

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI
FERGANA BRANCH OF TUIT
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

“AL-FARG'ONiy AVLODLARI”

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIMDAGI
ILMIY, OMMABOP
VA ILMIY TADQIQOT
ISHLARI



1-SON 1(9)
2025-YIL

TATU, FARG'ONA
O'ZBEKISTON



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI

Muassis: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

Chop etish tili: O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'nalishida maqolalar chop etib boradi.

Учредитель: Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

Язык издания: узбекский, английский, русский. Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

Founder: Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

Language of publication: Uzbek, English, Russian. The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2025 yil, Tom 1, №1
Vol.1, Iss.1, 2025 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniylar avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fargani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal OAK Rayosatining 2023-yil 30 sentabrdagi 343-sonli qarori bilan Texnika fanlari yo'nalishida milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:
151100, Farg'ona sh.,
Aeroport ko'chasi 17-uy,
202A-xona
Tel: (+99899) 998-01-42
e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2024 YIL

TAHRIR HAY'ATI

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxtarov Farrux Muhammadovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

Arjannikov Andrey Vasilevich,

Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Satibayev Abdugani Djunosovich,

Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasulov Akbarali Maxamatovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Axborot texnologiyalari kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori

Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrası professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

G'aniyev Abduxalil Abdulalioyevich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrası t.f.n., dotsent

Zayniddinov Hakimjon Nasritdinovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellekt kafedrası texnika fanlari doktori, professor

Abdullayev Abdujabbor,

Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Qo'ldashev Obbozjon Hakimovich,

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

Ergashev Sirojiddin Fayazovich,

Farg'ona politehnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrası professori, texnika fanlari doktori, professor

Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

Zulunov Ravshanbek Mamatovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring kafedrası professori v.b., fizika-matematika fanlari nomzodi

Abdullayev Temurbek Marufovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Beglerbekov Rasul Jubatxanovich,

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Zootexnologiya fakulteti, «Axborot texnologiyalari, matematika, fizika va kimyo» kafedra mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Asrayev Muhammadullo Abdullajon o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring kafedrası mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:



Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Nishanov A, Mamajanov R, Xaydarov Sh, Mengturayev F, Yuldashev R, SUT BEZI SARATONI DIAGNOSTIKASINING MATEMATIK MODELLARI	6-14
Sharibayev N, Homidov Q, TO'QUV MASHINASI ISHLASH JARAYONIDA, IPDA HOSIL BO'LADIGAN TARANGLIK KUCHI NAZARIYASINI MATEMATIK MODELINI DINAMIK JIXATDAN ASOSLASH	15-19
Dadamuxamedov A, DINIY IDORALARARO TAQSIMLANGAN AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOT FRAGMENTLARINI DINAMIK REPLIKATSIYASI	20-28
Mamatov N, Nuritdinov N, NUTQNI MATNGA VA MATNNI NUTQQA O'TKAZISH DASTURIY TA'MINOT UCHUN FOYDALANISH DIAGRAMMALARINI VA ASOSIY SINFLARINI QURISH	29-34
Yakubov M, Bekmukhammedov B, SHAXSGA YO'NALTIRILGAN ONLAYN TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH	35-39
Asqaraliyev O, Korporativ muhitda NoSQL ma'lumotlar tuzilmasining tashkiliy ta'minotini baholash (soliq organlari boshqaruv tizimi misolida)	40-46
Kuchkarov V, YORUG'LIK DIODINING ELEKTRO-FIZIK XARAKTERISTIKALARINI TAJRIBA ORQALI ANIQLASH	47-52
Rasulmukhamedov M, Gafforov N, Urinboev J, Identifying a person using dynamic biometric authentication methods	53-59
Ollamberganov F, Kalbayev F, Yelmuratov Q, Qudaynazarov M, TO'LIQ FAZOGA ASOSLANGAN MULTISINFLI KLASSTERLASH ALGORITMI	60-66
Аллаберганова Г.М., Тогаев Б.С., Хайдаров У.Э., Кувватова М.А., Асадова Г.А., Музафаров А.М., ИЗУЧЕНИЕ ЗНАЧЕНИЙ СУММАРНОЙ – $\Sigma\alpha$, СУММАРНОЙ - $\Sigma\beta$ –АКТИВНОСТИ И НЕКОТОРЫХ ИЗОТОПОВ ПРИРОДНЫХ ВОД ОТОБРАННЫХ ИЗ УРАНОНОСНЫХ РЕГИОНОВ	67-70
Урунов И.А., Аллаберганова Г.М., Суюнов У.А., Курбанов Б.И., Музафаров А.М., АНАЛИЗ РАДИОНУКЛИДНОГО СОСТАВА И РАДИОАКТИВНОГО РАВНОВЕСИЯ МЕЖДУ НИМИ В ПРОДУКТАХ ХИМКОНЦЕНТРАТОВ УРАНА	71-75
Akbaraliyev B, Samandarov B, Xoliqnazarov R, Gulmirzaeva G, MAVJUD HUJJATLAR ASOSIDA HUJJAT ANDOZALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI LOYIHALASH	76-82
Зулунов Р, Абдурасулова Д, АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА ПОДБОРА ДИЗАЙНОВ ТКАНЕЙ С УЧЕТОМ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБОРУДОВАНИЯ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ УЗОРЧАТЫХ ТКАНЕЙ	83-86
Nasiriddinov A., OLIY TA'LIM MUASASALARIDA O'QITUVCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA NORAVSHAN MANTIQDAN FOYDALANISH	87-91
G'ulomov Sh, Jumayev S, NOVEL METHODS FOR DETECTING ANOMALIES IN INFORMATION COMMUNICATION SYSTEMS	92-99
Nishanov A, Samandarov B, Joldasbaev D, Gulmirzaeva G, IoT QURILMALARDA MA'LUMOT UZATISH JARAYONLARINI ADAPTIV BOSHQARISH ALGORITMI	100-105
Ergashev O, Abdullayev J, INNOVATIVE NEURAL NETWORK STRATEGIES FOR DETECTING CHEATING IN VIRTUAL EXAMS	106-111
Abdukadirov B, Muxtorov A, VIDEO MA'LUMOTLARDAGI OBYEKT LARNI AVTOMATIK TANIB OLI SH ALGORITMLARI	112-117
Zulunov R, Sattarov M, KLINIKALARNI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARI: UMUMIY KO'RINISH VA TURLARI	118-123
Sotvoldiyeva D, Karimov S, Mehmonaliyev Y, TIBBIY TASHXISNI ANIQLASH JARAYONIDA KLASSIFIKATSIYA ALGORTIMIDAN FOYDALANISHNING TAHLILI	124-127

MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Yakubov M, Yuldashov R, ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING INSTRUMENTAL VOSITALARI	128-136
Abdukadirov B, Abdukadirova G, YUZ TASVIRI ORQALI SOXTA XUJUMLARNI ANIQLASHNING TASVIR TEKSTURASI TAHLILIGA ASOSLANGAN ALGORITMLARI	137-142
Matlatipov S, O‘zbek tili universal bog‘liqlik daraxti korpusining bi-affin neyron modelida tahlil qilish	143-148
Уринбоев А.А., Исмаилов Б.Р., Интеграция традиционных и компьютерных методов в оптимизацию процессов увлажнения пшеничного зерна	149-160
Turdibekov J, Keldiyorova M, THERMO-MECHANICAL ANALYSIS OF FUNCTIONALLY GRADED MATERIALS UNDER TORSION WITH TEMPERATURE EFFECTS	161-164
Zulunov R, Samatova Z, BULUTLI MUHITDA KIBERHUJUMLARNING OLDINI OLIISH USULLARINI YARATISH	165-168
Ахунджанов У.Ю., Лазарева М.В., Нурмахаматова Ф.Ф., Сравнительный анализ процесса цифровизации библиотек: международный опыт	169-173
Egamov D, Atajonov M, ENERGIYA ISROFLARI VA FOYDALI ISH KOEFFISENTI ORQALI TRANSFORMATORLARNING ISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH	174-178
Nurullaev M, An algorithm for generating cryptographic keys for small IoT devices	179-183
Xolmurotov B, Xusanboyev M, MAHSULOTLARNI SAQLASH OMBORI FAOLIYATINI AVTOMATLASHTIRISHDA MOBIL ROBOTLARDAN FOYDALANISH	184-186
Nishanov A, Mengturayev F, Allayarov U, Xaydarov Sh, ENDOKRIN KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA ERTA TASHXISLASHNING MATEMATIK MODELLARI	187-194
Zaynidinov H, Sharipov M, UZBEK TAGSET: CREATING A LIST OF MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC TAGS FOR BUILDING MACHINE LEARNING MODELS FOR THE UZBEK LANGUAGE	195-201
Soliyev B, Ismoilova M, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari elektron savdosida narxlarni prognoz qilish va bozor tahlili uchun AI asosida model yaratish	202-206
Xamidov Sh., NOMAQBUL ELEKTRON POCHTA XABARLARINI ANIQLASHNING ANSAMBL USULI	207-211

SUT BEZI SARATONI DIAGNOSTIKASINING MATEMATIK MODELLARI

Nishanov Akhram Khasanovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti tizimli va
amaliy dasturlash kafedrası professori
Email: nishanov_ahram@mail.ru

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri
Email: r.mamajanov@dtpi.uz,

Xaydarov Sherali Islom o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Axborot texnologiyalari kafedrası tayanch
doktaranti
Email: sh.haydarov@dtpi.uz,

Mengturayev Farxod Ziyatovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Axborot texnologiyalari kafedrası
o'qituvchisi
Email: f.mengtoraev@dtpi.uz

Yuldashev Rustam Raxmonovich,

RIO va RIATM Surxondaryo filiali bosh
vrachi, Onkomammolog

Annotatsiya: Tadqiqotda sut bezi saratoni diagnostikasini matematik modellar yordamida erta aniqlash masalasi ko'rib chiqildi. Tadqiqotda matematik modellar va mashinaviy o'qitish usullarining sut bezi saratoni diagnostikasining matematik qo'yilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi, ma'lumotlarni yig'ish va oldindan ishlov berish, modelni shakllantirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va tasniflash, aniqlik va aniqlovchanlikni o'lchash orqali samaradorliklarni baholash yoritilgan. Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirdik ma'lumotlarni matematik ifodasi, statik diagnostika uchun formulalar, saraton rivojlanish bashorat qilish, logistik regressiya bu matematik model kasallikni aniqlash va bashorat qilish uchun ishlatiladigan parametrlarni ifodalaydi.

Kalit so'zlar: mashina o'qitish, kasallikni bashorat qilish, sun'iy intellekt, diagnostika modellashtirish.

KIRISH. Sut bezi saratoni dunyo bo'ylab ayollar orasida eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Uning erta bosqichlarda aniqlanishi bemorlarning kasallikka qarshi kurashish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Diagnostik jarayonlarning aniqligini oshirish maqsadida matematik usullar va algoritmlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu tadqiqotda sut bezi saratonini

aniqlash jarayonining matematik qo'yilishi, mavjud algoritmlar va ularning diagnostikadagi ahamiyati yoritiladi[1,2].

Sut bezi saratoni diagnostikasi bo'yicha matematik yondashuv - bu saratonni aniqlash jarayonida sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va statistik usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.



Matematik modellashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlash usullari sut bezi saratonining rivojlanish ehtimolini, diagnostika jarayonini va davolash rejalarini optimallashtirishda muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu yondashuv kasallikni aniqlashda inson omilini kamaytiradi, aniqlikni oshiradi va individual xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi[3,4].

Ushbu tadqiqotda sut bezi saratoni diagnostikasining matematik qo'llanilishi bo'yicha asosiy bosqichlar jumladan, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, statistik modellashtirish, va mashinaviy o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklari va natijalari yoritiladi. Diagnostika uchun ishlatiladigan matematik modellar kasallikni erta bosqichda aniqlashni maqsad qilgan va statistik ko'rsatkichlar quyidagi bosqichlarda aniqlashni ko'rib chiqdik sezuvchanlik, aniqlik va ROC egri ostidagi maydon (AUC) orqali samaradorligi baholanadi[5,6].

Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, tibbiy diagnostika jarayonini matematik modellar bilan boyitish nafaqat tashxis qo'yish sifatini oshiradi, balki davolash jarayonini ham yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Sut bezi saratoni diagnostikasi bo'yicha matematik modellarni ishlab chiqishda muhim bosqichlardir quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqamiz. Diagnostika bo'yicha ilg'or tadqiqotlar, matematik modellashtirish usullari, amaliy tadqiqotlar bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Sut bezi saratoni diagnostikasi va rivojlanishini o'rganishda ko'plab olimlar sun'iy intellekt, matematik modellar va statistik usullarni qo'llash orqali muhim yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ushbu qarashlar texnologik va ilmiy yutuqlarni birlashtirgan holda diagnostika va prognozlash jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

1. Sun'iy intellektning diagnostikadagi roli - Sun'iy intellekt algoritmlari, ayniqsa, konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN), tibbiy tasvirlarni (mammografiya, MRI) avtomatik tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar saraton belgilari aniqligini oshiradi, erta diagnostikani amalga oshirish va tasvirni segmentatsiya qilishda samaradorlikni

ta'minlaydi. Geoffrey Hinton, Yann LeCun va Fei-Fei Li kabi olimlar sun'iy intellekt vositalari diagnostika jarayonini inqilobiy o'zgartirishini ko'rsatib berdilar.

2. Matematik modellar yordamida tumor rivojlanishini o'rganish - Tumor rivojlanish jarayonlarini matematik modellashtirish orqali uning xulq-atvorini tushunish va prognozlash imkoniyati kengaytirildi. Gompertz va Logistic modellari tumor hujayralarining o'sishini tavsiflashda asosiy vosita sifatida ishlatilmoqda. Alan Turingning reaksiya-diffuziya modellari biologik jarayonlarni tasvirlashda, Bert Vogelsteinning stoxastik modellari esa genetik mutatsiyalar va tumor rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda muhim hissa qo'shdi.

3. Statistik usullar diagnostikada asosiy yondashuv sifatida - Statistik modellar sut bezi saratoni diagnostikasi va xavf omillarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Kaplan-Meier metodi hayot davomiyligini tahlil qilishda va Kox regressiyasi xavf omillarini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ushbu usullar yordamida saratonning rivojlanish xavfi va bemorlarning davolanishga javobi aniqlanadi.

4. Klinik amaliyotda integratsiya - Matematik modellar va sun'iy intellekt algoritmlarini klinik amaliyotga tatbiq qilish orqali diagnostika tezligi va aniqligi sezilarli darajada oshdi. Regina Barzilay kabi olimlarning tadqiqotlari mammografiya tasvirlarini sun'iy intellekt yordamida avtomatik tahlil qilish imkoniyatini ochib berdi. Ushbu tizimlar klinik xatolarni kamaytirib, davolashni individuallashtirishga xizmat qilmoqda.

5. Ilmiy qarashlarning umumiy mazmuni - Olimlarning fikriga ko'ra, sut bezi saratonini o'rganishda sun'iy intellekt, matematik modellar va statistik usullarning integratsiyasi nafaqat diagnostika jarayonini takomillashtiradi, balki kasallikning rivojlanishini bashorat qilish va samarali davolash rejalarini ishlab chiqishda ham muhimdir. Ushbu yondashuvlar natijasida diagnostik jarayonlar tezroq, aniqroq va arzonroq bo'lishi ta'minlanmoqda.

SUT BEZI SARATONI DIAGNOSTIKASINING MATEMATIK MODEL

Sut bezi saratoni diagnostikasining matematik qo'yilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.



1. Ma'lumotlarni yig'ish va oldindan ishlov berish. Sut bezi saratoni diagnostikasida ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish jarayoni asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. To'g'ri yig'ilgan va oldindan qayta ishlangan ma'lumotlar tahlil natijalarining aniqligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayon turli tibbiy ko'rsatkichlar, tasvirlar, biomarkerlar va demografik ma'lumotlarni to'plash bilan boshlanadi. Yig'ilgan ma'lumotlar odatda tayyor bo'lmagan shaklda bo'ladi va diagnostika algoritmlarida ishlatishdan oldin normalizatsiya qilish, muhim xususiyatlarni ajratib olish kabi ishlov berish bosqichlaridan o'tishi kerak[7,8].

Ma'lumotlarni yig'ish va oldindan ishlov berish nafaqat aniqlikni oshirishga, balki diagnostika tizimining samaradorligini va modelni yangi ma'lumotlarga moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon barcha keyingi bosqichlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun mustahkam poydevor hisoblanadi[9,10].

Diagnostik ma'lumotlar ultratovush, rentgen (mamografiya), va biopsiya kabi usullar orqali olinadi.

Diagnostik ma'lumotlar asosan zamonaviy tibbiy jihozlar yordamida to'planadi, rentgen, ultratovush, rentgen (mamografiya) va biopsiya kabi usullar orqali.

Sut bezi ichki tuzilishini yaratish uchun rentgen nurlari yordamida tasvir olish texnologiyasi ko'pincha saratonni erta bosqichda aniqlash uchun ishlatiladi[11,12].

Diagnostika ma'lumotlar statistik xavfsizlik to'g'ri taqsimlangan bo'lishi juda muhim, chunki ma'lumotlar ko'pincha noto'liq, shovqinli yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin. Statistik ma'lumotlarni yuklash asosiy harakatlarni o'z ichiga oladi, bu tahlil natijalari aniqligiga, turli o'lchamdagi ma'lumotlarni bir xil miqyosga keltirish orqali algoritmlarning optimal ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Tadqiqotda tasvir pikselarini $[0, 1]$ yoki $[0, 255]$ oralig'ida normalizatsiya qilish, ma'lumotlar taqsimoti, tendensiyalari va muhim omillar hisoblanadi. Bu jarayonda statistik usullar, grafik vizualizatsiyalar va

asosiy komponentlarni qilish (PCA) kabi texnikadan foydalaniladi[13,14].

2. Modelni shakllantirish. Matematik modelni shakllantirish murakkab tizimlarni tahlil qilish va bashorat qilish uchun zarur bo'lgan muhim jarayondir. Ushbu tadqiqotda matematik modellashtirishning asosiy bosqichlari bayon etilgan bo'lib, ular sut bezi saratoni kabi biologik jarayonlarni modellashtirish uchun ham qo'llaniladi[15,16].

Matematik modellashtirish jarayoni muammoni aniq belgilashdan boshlanadi. Bu bosqichda muammoning mazmuni va maqsadi aniqlanadi. Masalan, sut bezi saratoni modellashtirishda muammo sifatida o'simtaning o'sishi, metastazlanish jarayoni yoki davolash samaradorligini baholash belgilanishi mumkin[17,18].

Modelni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iladi quyidagi imkoniyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda biologik jarayonlar, eksperimental kuzatuvlar yoki klinik ma'lumotlardan foydalaniladi. Sut bezi saratoni holatida, saratonni rivojlantiruvchi genetik, hujayravii yoki kimyovii omillarni aniqlash muhimdir.

Tuzilgan matematik model dasturlash tillari yordamida simulyatsiya qilinadi. Bunda MATLAB, Python yoki R kabi dasturiy vositalar qo'llaniladi. Model turli parametrlar ostida sinovdan o'tkaziladi.

Model asosida olingan natijalar biologik yoki klinik talqin qilinadi. Masalan, sut bezi saratoni davolash strategiyalari samaradorligini baholash mumkin.

Modellashtirish jarayonining yakuniy bosqichida davolash bo'yicha optimal strategiyalar aniqlanadi. Bu bosqichda kimyoterapiya dozalari va vaqt oralig'i kabi parametrlar optimallashtiriladi.

Tadqiqot natijalari ilmiy maqolalar yoki hisobotlar ko'rinishida nashr qilinadi. Klinika yoki sog'liqni saqlash tizimlarida model natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi[19,20].

Ushbu bosqichlar matematik modellashtirish jarayonining asosiy qadamlarini ifodalaydi. Ular nafaqat biologik jarayonlarni, balki boshqa murakkab tizimlarni ham tahlil qilish uchun ishlatiladi.



3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va tasniflash. Ma'lumotlarni tahlil qilish va tasniflash bugungi kunda axborot texnologiyalari, tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat va boshqa sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ma'lumotlar hajmining tez sur'atlar bilan oshib borishi ularni tahlil qilish va tegishli tasniflash usullarini qo'llashga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda. Ushbu tadqiqotda zamonaviy tahlil va tasniflash usullari, ularning afzalliklari va amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan tadqiqot o'tkaziladi[21,22].

Ma'lumotlarni tahlil qilish va tasniflashning zamonaviy usullarini o'rganish, ularni taqqoslash va samaradorligini baholash orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni aniqlab oldik.

1. Ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini tasniflash.
2. Tasniflash algoritmlarini o'rganish va ularning samaradorligini baholash.
3. Zamonaviy dasturiy vositalar yordamida amaliy tadqiqotlar o'tkazish.

Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni ulardan ma'no va xulosalar chiqarish uchun ishlatiladigan metodlarni o'z ichiga oladi. Statistik, matematik va sun'iy intellekt usullari ma'lumotlarni samarali tahlil qilish imkonini beradi.

Tasniflash algoritmlari ob'ektlarni yoki hodisalarni oldindan belgilangan sinflarga ajratish uchun ishlatiladi. Bu usul tibbiyot, moliya, marketing va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

Matematik usullardan foydalangan holda kasallik tasnifi amalga oshiriladi. Bu bosqichda neyron tarmoqlar va chuqur o'qitish algoritmlari ham ishlatiladi.

Neyron tarmoqlar orqali bemorning suratlaridan saraton o'chog'ini aniqlash imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

4. Aniqlik va aniqlovchanlikni o'lchash. Sut bezi saratoni diagnostikasi modellarini amalga oshirishda aniqlik (accuracy) va aniqlovchanlik (precision) muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu diagnostik modelni sifatli tahlil qilishda mezonlar katta ahamiyatga ega.

Aniqlik - Aniqlik diagnostik modelning umumiy to'g'ri ishlashi ifodalaydi. Buni aniqlash formula bilan ifodalash mumkin.

$$\text{aniqlilik} = \frac{\text{to'g'ri ripzitivlar} + \text{to'g'rinegativlar}}{\text{umumiysin ovlarsoni}} \quad (1)$$

Ushbu (1) – ifodada N - model sog'lom bemorlarni to'g'ri aniqlagan holatlarini, FP - model sog'lom bemorlarni, FN - model saratonni aniqlay olmaganini ifodalab olamiz.

Aniqlik ko'rinishining yuqori bo'lishi modeli. Buning uchun bu qiymat o'ta nosimmetrik ma'lumotlarda (sog'lom va kasalliklarning mutanosibligi bo'lmaganda) noto'g'ri ishlashi mumkin.

Aniqlovchanlik - Aniqlovchan model tomonidan saraton deb kasalning qanchasi haqiqatdan saraton kasaliga ko'ra quyidagi ifodada ko'rib chiqamiz.

$$\text{aniqlovchanlik} = \frac{\text{to'g'ri pozitivlar}}{\text{to'g'ri pozitivlar} + \text{xato pozitivlar}} \quad (2)$$

Ushbu (2) – ifodada Agar model 10 bemordan 8 tasini saraton deb belgilab, shulardan 6 tasi haqiqatan saraton bo'lsa quyidagicha hisoblaymiz.

$$\text{aniqlovchanlik} = \frac{6}{6+2} = 0.75(75\%)$$

Aniqlovchanlikning ma'nosi. Yuqori aniqlovchanlik modelning xato pozitivi kamligini noto'g'ri, ya'ni sog'lom bemorlarni saraton deb bilish past bo'lishi ko'rsatkichlarga ega bo'lamiz.

Aniqlik umumiy mahsulotning to'g'richanligini baholasa, faqat saraton deb baholashning ishonchli sifatli ko'rinishini taminlaydi.

Ba'zan aniqlovchanlikni hisoblash uchun aniqlikni ozgina kasallikni yo'q qilish kerak bo'lganida xavflarni FN negativlardan FP xavfsizlik muhim bo'lsa (3) ifodadan foydalanamiz.

Qo'shimcha ko'rsatkichlar. Aniqlik va aniqlovchanlikdan tashqari diagnostik modellarni tekshirishda ko'rsatkichlar bilan ifodalab o'tamiz.



1. **Sezgirlik (Recall)** - Kasallik bo'lgan bemorlarning modeli olingan to'g'ri aniqlanish darajasi quyidagi ifodada hisoblab o'tamiz.

$$\text{sezgirlik(eslash)} = \frac{\text{to'g'ri pozitivlar}}{\text{to'g'ri pozitivlar} + \text{xatonegativlar}} \quad (3)$$

2. **F1-Baho** - Aniqlovchanlik va tozalovchi funksiyaning saqlashini o'lchash uchun quyidagicha ifodadan foydalanamiz.

$$F1 = 2 \cdot \frac{\text{aniqlovchanlik} \cdot \text{sezgirlik}}{\text{aniqlovchanlik} + \text{sezgirlik}} \quad (4)$$

Agar diagnostik model natijalari natija bo'lsa quyidagi qiymatlarni hisoblaymiz.

to'g'ri Pozitivlar (TP) – 80, to'g'ri Negativlar (TN) – 900, xato Pozitivlar (FP) – 50, xato negativlar (FN) – 20 qiymatlar orqali hisoblab olamiz.

1-jadval

Baholash	Yechish jarayoni
Aniqlik	$\text{aniqlik} = \frac{80+900}{80+900+50+20} = 0.95(95\%)$
Aniqlovchanlik	$\text{aniqlovchanlik} = \frac{80}{80+50} = 0.615(61.5\%)$
Sezgirlik	$\text{sezgirlik} = \frac{80}{80+20} = 0.8(80\%)$
F1-Baho	$F1 = \frac{0.612 \cdot 0.8}{0.612 + 0.8} = 0.696(69.6\%)$

Ushbu 1-jadvalda matematik modellar diagnostik tizimlarda samaradorlikni oshirishini ko'rib chiqdik.

Mamografiya natijalarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish - Neyron tarmoqlar orqali shifokor tomonidan noto'g'ri baholash ehtimolini kamaytirish.

Biopsiya jarayonining aniqligini oshirish - Biopsiya namunalarini matematik tahlil qilish orqali kasallik rivojlanish bosqichlarini aniqlash.

ROC egri (Receiver Operating Characteristic curve) modelning sezuvchanlik va aniqlik o'rtasidagi bog'liqlikni grafik shaklida tasvirlaydi. Ushbu egri ostidagi maydon (AUC - Area Under Curve) modelning umumiy samaradorligini ko'rsatadi[23,24].

AUC qiymati - Quyidagi qiymatlar orqali 0.5 - Tasodifiy model (foydasiz), **0.7-0.8** - Yaxshi model, **0.8-0.9** - Juda yaxshi model, **0.9 va yuqori** - Ajoyib model **AUC qiymatining oraliqlarini belgilab olamiz.**

AUC yuqori bo'lgan modellar kasallikni aniqroq va ishonchli aniqlashga imkon beradi. Matematik modellar ushbu ko'rsatkichlar yordamida baholanadi va ulardan eng samaradori klinik diagnostika jarayonida qo'llaniladi. Shu sababli, statistik va matematik modellashtirish kasalliklarni erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT NATIJALARI

Matematik modellari. Sut bezi saratoni diagnostikasi uchun matematik qo'yilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu matematik model kasallikni aniqlash va prognozlash uchun ishlatiladigan parametrlarni ifodalaydi.

1. Maqsad (Objective Function) funksiyasi orqali matematik diagnostikaning asosiy maqsadi quyidagicha ifodalanadi.

$$\text{maksimallashtirish } P(D | X) \quad (4)$$

Ushbu (4)- ifodada D - saraton mavjud yoki yo'qligini, X - tekshiruv natijalari va belgilangan ma'lumotlarni, $P(D | X)$ - ma'lumotlar asosida saraton holatini aniqlash ehtimolini ifodalaymiz.

2. Ma'lumotlarni matematik ifodasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarni matematik modellashtirish uchun quyidagilar aniqlanadi.

1. Kiruvchi ma'lumotlar (Input Variables)

$X_1, X_2, \dots, X_n$ - Biopsiya ko'rsatkichlari, qon tahlillari, tasviriy o'lchamlar.

Y - Diagnostika natijasi (saraton bor = 1, saraton yo'q = 0).

2. Tasniflash (Classification) modeli quyidagicha hisoblanadi.

$$f(X) = \begin{cases} 1, & \text{agar saraton bo'lsa} \\ 0, & \text{agar saraton bo'lmasa} \end{cases} \quad (5)$$

3. Statik diagnostika uchun formulalar xavfni baholash (Risk Assessment) matematik formulasini ko'rich chiqamiz.



$$R = \sum_{i=1}^n \omega_i \cdot X_i \quad (6)$$

Ushbu (6) - ifodada ω_i - har bir simptom uchun vaznni, X_i - i -simptom uchun ma'lumotlarni ifodalab Bayes formulasiga asoslangan ehtimollikni aniqlash ishlab chiqiladi.

$$P(D|X) = \frac{P(D|X) \cdot P(D)}{P(X)} \quad (7)$$

4 . Saraton rivojlanishni bashorat qilish
uchun vaqtga bog'liq o'zgarishlar modeli

$$\frac{dN(t)}{dt} = r \cdot N(t) \cdot \left(1 - \frac{N(t)}{K}\right) \quad (8)$$

Ushbu (6)-ifodada $N(t)$ - vaqt, t - da o'simtaning hujayralar sonini, r - rivojlanish sur'atini, K - o'simta hajmining cheklovchi sig'imini ifodalab olamiz.

5. Logistik regressiya (kasallik ehtimolini modellashtirish uchun) quyidagi ifodadan foydalanamiz.

$$P(C) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n)}} \quad (9)$$

Ushbu (9) - ifodada $x_1, x_2, \dots, x_n$ - klinik belgilarning qiymatlarini, $\beta_0, \beta_1, \dots, \beta_n$ - model koeffitsiyentlarini ifodalab olamiz.

Chiziqli diskriminant tahlili (diagnostik belgilarning ajratuvchi chizig'ini hisoblash) orqali quyidagi ifodadan foydalanamiz.

$$y = \omega_0 + \omega_1 x_1 + \omega_2 x_2 + \dots + \omega_n x_n \quad (10)$$

Ushbu (10) - ifodada y - natijaviy funksiyaning qiymatini, $\omega_0, \omega_1, \dots, \omega_n$ - og'irlik koeffitsiyentlarini ifodalab olamiz.

Berilgan logistik o'sish modeli saraton rivojlanishini tushunish va prognoz qilish uchun qulay va samarali vositadir. Quyidagi asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish mumkin[25,26].

1. Boshlang'ich o'sish tezligi eksponensial - Model o'simtaning rivojlanishini boshlang'ich bosqichda tez o'sish sifatida tasvirlaydi, bu esa hujayralar o'rtasidagi resurslar uchun raqobatning yo'qligi bilan izohlanadi.

2. Resurs cheklavlari o'sishni sekinlashtiradi - Vaqt o'tishi bilan o'simta hajmi cheklovchi sig'im (K) ga yaqinlashganda, o'sish sekinlashadi va barqarorlashadi.

3. Davolash strategiyasini rejalashtirish - Ushbu model davolash usullarining samaradorligini baholashda, masalan, kimyoterapiya yoki immunoterapiyaning o'sish sur'ati (r) yoki maksimal hajm (K) ga ta'sirini o'rganishda qo'llanilishi mumkin.

4. Prognoz imkoniyati - Model hujayra sonining vaqt bo'yicha qanday o'zgarishini aniqlashda yordam beradi va saraton rivojlanishini oldindan baholash uchun ishlatiladi.

Ushbu holatlar uchun matematik modelni qurishda logistik o'sish tenglamasi asos sifatida qabul qilinadi. Logistik o'sish modeli hujayralar sonining vaqt bo'yicha o'zgarishini hisobga olib, resurslar cheklavlari va o'sishning asliy xususiyatlarini aks ettiradi.

1. Logistik o'sish tenglamasi quyidagicha ifodalanadi.

$$\frac{dN}{dt} = rN \left(1 - \frac{N}{K}\right) \quad (11)$$

Ushbu (11) - ifodada $N(t)$ - vaqt da hujayralar sonini, t - boshlang'ich o'sish tezligini, $\frac{dN}{dt}$ - hujayralar sonining vaqtga nisbatan o'zgarish tezligini ifodalaymiz.

2. Davolash ta'sirini qo'shish - Davolash hujayralarning o'sish sur'atiga yoki tashuvchanlik quvvatiga ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotda kimyo terapiyasi yoki immunoterapiya hujayralarning o'sish koeffitsiyenti ni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun model quyidagicha o'zgarishi mumkin.

$$\frac{dN}{dt} = rN \left(1 - \frac{N}{K}\right) - cN \quad (12)$$

Ushbu (12) - ifodada davolash ta'siri koeffitsiyenti (hujayralarning yo'q qilinishi tezligi)ni ifodalab olamiz.

3. Hosil bo'lgan model orqali saratonning rivojlanishi bashorati - Logistik tenglama yechimini yozsak quyidagiga ega bo'lamiz.



$$N(t) = \frac{K}{1 + \left(\frac{K - N_0}{N_0}\right)e^{-rt}} \quad (13)$$

Ushbu (13) - ifodada N_0 - boshlang'ich hujayralar sonini, e - tabiiy logarifm asosini ifodalaymiz. Boshlang'ich bosqichda $N \ll K$, model eksponensial o'sishni tasvirlaydi.

$$\frac{dN}{dt} \approx rN \quad (14)$$

Ushbu (14) -ifodada cheklovli bosqichda $N \rightarrow K$, o'sish sekinlashadi va $N \approx K$ bo'ladi, Davolash samaradorligi parametriga bog'liq. Agar $c > r$ bo'lsa, hujayralar soni kamayib, ostiga tushishi mumkin.

Modelning qo'llanishi

1. Davolash strategiyasini baholash turli va qiymatlarini o'zgartirib, samaradorlikni aniqlash.
2. Hujayralar sonining vaqt bo'yicha o'zgarishini prognozi.

Raqamli simulyatsiya orqali olingan natijalarni real ma'lumotlar bilan taqqoslash.


Logistik o'sish modeli oddiy, lekin samarali. Uning cheklovlari shundaki, u murakkab biologik omillarni (masalan, qon ta'minoti, immunitet ta'siri yoki genetik omillar) hisobga olmaydi. Shu sababli, modelni klinik ma'lumotlar bilan to'ldirish orqali yanada mukammalroq prognozlar olish mumkin[27,28].

Mazkur blok sxema saraton kasalligini aniqlash va prognozlash jarayonini matematik modellashtirishga asoslangan. Sxema klinik ma'lumotlarni qayta ishlash, xavfni baholash, ehtimollikni hisoblash, va qaror qabul qilishning asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi[29,30].

1. Saraton mavjudligini aniqlash uchun ma'lumotlarni izchil tahlil qilish.
2. Saraton rivojlanish ehtimolini matematik modellar yordamida aniqlash.
3. Qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish va aniqlikni oshirish.

Ushbu blok sxema diagnostika jarayonining izchil va avtomatlashtirilgan tarzda amalga

oshirilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Bu yondashuv saratonni erta aniqlash va davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.



1-blok sxema(olmos shklidagi saratonni diagnostika sxemasi)

Ushbu 1-blok sxemada saratonni diagnostika qilish va prognozlash jarayonining asosiy bosqichlarini tartiblangan holda aks ettiradi. Quyida bosqichlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

1. Kirish ma'lumotlari

$X_1, X_2, \dots, X_n$ kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar biopsiya natijalari, qon tahlillari va boshqa klinik ko'rsatkichlarni ifodalaydi.

2. Modelni o'rgatish

Kirish ma'lumotlari asosida tasniflash modeli yaratiladi ($f(X)$).

Maqsad kasallik mavjudligini aniqlash uchun optimal modelni qurish.

3. Xavfni baholash

Har bir simptomning xavf darajasi hisoblanadi (R).

Bu bosqichda har bir simptomning vazni (ω_i) hisobga olinadi.

4. Ehtimollikni hisoblash

Bayes formulasiga asoslangan holda saraton ehtimoli ($P(D|X)$) aniqlanadi.

Bu bosqich bemorning ma'lumotlariga mos ravishda tashxis ehtimolini beradi.



5. Prognoz qilish

O'simtani rivojlanish dinamikasi hisoblanadi ($dN(t)/dt$).

Bu bosqich saratonning rivojlanish tezligini aniqlashga xizmat qiladi.

6. Qaror qabul qilish

Yakuniy bosqichda diagnostik qaror qabul qilinadi.

Saraton mavjud bo'lsa $Y=1$, aks holda $Y = 0$ deb belgilash orqali natijalar ko'rsatiladi.

Bu sxema diagnostik jarayonning tushunarli va ketma-ket bosqichlarini aniq tasvirlaydi. Har bir bosqich ma'lumotlar yig'ish, xavfni baholash va qaror qabul qilish orqali saratonni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu sxema sog'liqni saqlash sohasida saratonni erta aniqlash va davolash rejasini tuzishda yordam berishi mumkin[31,32,33,34].

IV. XULOSA

Sut bezi saratonini diagnostika qilishda matematik yondashuvlar diagnostik jarayonlarni tezlashtirish va aniqligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Ushbu yondashuvlar shifokorlarga aniqlangan ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilishda yordam beradi va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshiradi. Kelajakda bu usullarni yanada takomillashtirish saraton kasalliklarini yanada samarali davolash imkoniyatini yaratadi. Ushbu ishda sut bezi saratonini diagnostikasida matematik modellar va statistik yondashuvlardan foydalanish masalasi yoritildi. Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, sut bezi saratonini erta aniqlash bemorning yashash davomiyligini oshirish va davolash natijalarini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Diagnostik jarayonni matematik modellar bilan boyitish orqali tashxis qo'yishning aniqligi, tezligi va ishonchliligi oshiriladi. Logistik regressiya, qaror daraxtlari, neyron tarmoqlari va boshqa mashinaviy o'qitish usullari yordamida tashxis jarayonida sezuvchanlik (sensitivlik), aniqlik (spetsifiklik) va ROC egri ostidagi maydon (AUC) kabi statistik ko'rsatkichlarning yuqori darajasiga erishish mumkinligi ko'rsatildi. Bu esa diagnostika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sut bezi saratonini diagnostikasida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning to'g'ri

usullarini qo'llash, sog'lom va kasallikka chalingan bemorlarni farqlashda aniq va samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Matematik modellar inson omilini kamaytirib, tashxis jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishga zamin yaratadi. Natijada, ushbu yondashuv zamonaviy tibbiy diagnostika tizimlarida keng qo'llanilishi mumkin bo'lib, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va samarali davolashga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda mashinaviy o'qitish va sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish orqali diagnostika jarayonlari yanada takomillashtirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siegel, R. L., Miller, K. D., & Jemal, A. (2020). Cancer statistics, 2020. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 70(1), 7–30. <https://doi.org/10.3322/caac.21590>
2. Harbeck, N., Penault-Llorca, F., Cortes, J., et al. (2019). Breast cancer. Nature Reviews Disease Primers, 5(1), 66. <https://doi.org/10.1038/s41572-019-0111-2>
3. Woldemichael, A., & Worku, E. (2020). Machine learning algorithms for breast cancer prediction and diagnosis. Journal of Applied Health Sciences, 4(3), 145–156. <https://doi.org/10.1016/j.jahs.2020.05.007>
4. Giger, M. L. (2020). Machine learning in medical imaging: Breast cancer diagnosis and prognosis. Annual Review of Biomedical Engineering, 22(1), 147–171. <https://doi.org/10.1146/annurev-bioeng-111219-090931>
5. GLOBOCAN (2021). Breast cancer statistics 2021. International Agency for Research on Cancer. Retrieved from <https://gco.iarc.fr>.
6. Giger, M. L. (2020). Machine learning in medical imaging: Breast cancer diagnosis and prognosis. Annual Review of Biomedical Engineering, 22, 147–171. <https://doi.org/10.1146/annurev-bioeng-111219-090931>
7. Harbeck, N., Penault-Llorca, F., Cortes, J., Gnant, M., Houssami, N., Poortmans, P., ... & Cardoso, F. (2019). Breast cancer. Nature Reviews Disease Primers, 5(1), 66. <https://doi.org/10.1038/s41572-019-0111-2>
8. Atakhanova, N. E., Shayusupov, N. R., Ishakov, D. M., Kakhkharov, A. Zh., & Shodmanova, D. S. (2022). Sut bezi saratonini prognozining mammografik va ultratovushli prognostik omillari. Tashkent Medical Academy Journal, 86(1), 87–90.
9. Ahmadova, M. A. (2024). Sut bezi saratonida radiologik tasvir va morfologik xususiyatlarni qiyosiy tavsiflash. Journal of Healthcare and Life-Science Research, 3(6).
10. Ergashev, A. J., & Oralova, S. B. (2024). Ayollarda ko'krak bezi saratonini diagnostikasi, belgilari va davolash usullari. Modern Education and Development, 15(4), 98–101.



11. Nishanova, Y. X., Ibroximova, F. J., & Musulmonov, Sh. R. (2023). Sut bezi saratoni skriningi. *Science and Pedagogy in the Modern World*, 1(1), 67–69.
12. Nishanova, Y. X., Ibroximova, F. J., & Musulmonov, Sh. R. (2023). Sut bezi saratoni skriningi. *Zenodo*.
13. Giger, M. L. (2020). Machine learning in medical imaging: Breast cancer diagnosis and prognosis. *Annual Review of Biomedical Engineering*, 22, 147–171.
14. Harbeck, N., Penault-Llorca, F., Cortes, J., Gnant, M., Houssami, N., Poortmans, P., ... & Cardoso, F. (2019). Breast cancer. *Nature Reviews Disease Primers*, 5(1), 66.
15. Bozorov, E. X., & Ergashev, A. J. (2022). Tibbiyotda magnit rezonans tomografiyasi mavzusini yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish. *Pedagogik Mahorat*, 2, 222–227.
16. Alimkhodjaeva, L. T., & Norbekova, M. H. (2020). Clinical significance of the density of tumor microvessels in breast cancer in men. *Central Asian Journal of Medicine*, 2, 56–64.
17. Zakirova, L. T., & Alimkhodjaeva, L. T. (2018). Chromosomal disorders and aberrant DNA methylation as early biomarkers of breast cancer risk in young women. *Journal of Life Science and Biomedicine*, 8(1), 1–5.
18. Norbekova, M. H., Alimkhodjaeva, L. T., & Mirolimov, M. M. (2019). Vzgl'yad na problemu raka molochnoy zhelezy u muzhchin v Respublike Uzbekistan. *Uzbekistan Medical Journal*, 1, 56–64.
19. Gonzalez, R., Nejat, P., Saha, A., Campbell, C. J. V., Norgan, A. P., & Lokker, C. (2023). Performance of externally validated machine learning models based on histopathology images for the diagnosis, classification, prognosis, or treatment outcome prediction in female breast cancer: A systematic review. *arXiv preprint arXiv:2312.06697*.
20. Levshinskii, V., Polyakov, M., Losev, A., & Khoperskov, A. (2019). Verification and Validation of Computer Models for Diagnosing Breast Cancer Based on Machine Learning for Medical Data Analysis. *arXiv preprint arXiv:1910.02779*.
21. Stoia, S., Băciut, G., Lenghel, M., & Badea, R. (2021). Imaging in the preoperative diagnosis of parotid gland tumors. *Bosnian Journal of Basic Medical Sciences*. Retrieved from <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7861630/>
22. Song, X., Yang, X., & Narayanan, R. (2020). Saliva metabolic profiling in oral squamous cell carcinoma diagnosis. *Proceedings of the National Academy of Sciences*. Retrieved from <https://www.pnas.org/doi/pdf/10.1073/pnas.2001395117>
23. Liu, S., Yu, B., Zheng, X., Guo, H., & Shi, L. (2024). Construction and application of a nomogram for predicting parotid tumors. *Journal of Computer Assisted Tomography*. Retrieved from https://journals.lww.com/jcat/fulltext/2024/01000/construction_and_application_of_a_nomogram_for.21.aspx
24. Prezioso, E., Izzo, S., & Giampaolo, F. (2021). Predictive medicine for salivary gland tumors using deep learning. *IEEE Journal of Biomedical and Health Informatics*. Retrieved from <https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/9573315/>
25. Lavareze, L., Scarini, J. F., & de Lima-Souza, R. A. (2022). Tumor microenvironment in salivary gland cancer: Translational routes for therapy. *Critical Reviews in Oncology/Hematology*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1040842822000294>
26. Chen, W., Zhu, L. N., Dai, Y. M., & Jiang, J. S. (2020). Differentiation of salivary gland tumors using diffusion-weighted imaging. *The British Journal of Radiology*. Retrieved from <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7465841/>
27. Lopez, J. E. (2022). Dose calculations for salivary glands in prostate cancer therapy. *Georgetown University Repository*. Retrieved from https://repository.library.georgetown.edu/bitstream/handle/10822/1082659/Lopez_georgetown_0076M_15589.pdf
28. Itonaga, T., Tokuyue, K., & Mikami, R. (2022). Mathematical evaluation of salivary gland function post-radiotherapy. *The British Journal of Radiology*. Retrieved from <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8822577/>
29. Zhang, Q., Ouyang, H., & Ye, F. (2020). Multiple mathematical models for endometrial cancer characterization. *European Journal of Radiology*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0720048X20302916>
30. Liu, J., Cai, Y., & Huang, D. (2022). Saliva diagnostics: Emerging techniques and biomarkers for cancer detection. *Expert Review of Molecular Diagnostics*. Retrieved from <https://drive.google.com/file/d/1Y2jbE3MZwKtbfDwEvXGecfSINjOCvij5/view>
31. Nishanov, A., Mamajanov, R., Xaydarov, S., Mengturayev, F., & Yuldashev, R. (2024). Sut bezi saraton kasalliklarini simptomlarini mashinali o'qitishga tayyorlash bosqichlari. *Digital transformation and artificial intelligence*, 2(6), 237–249. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i633>
32. Nishanov, A., Mengturayev, F., Allayarov, U., & Xaydarov, S. (2024). Endokrin kasalliklarini tashxislashda foydalaniladigan simptomlarni shakllantirish bosqichlari. *Digital transformation and artificial intelligence*, 2(6), 228–236. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i632>
33. Nishanov Akhram Khasanovich, Mamazhanov Rakhmatilla Yakubzhanovich, Khaidarov Sherali Islom o'g'li, Xolbekov Abdusattor Maxammatovich, & Karimova Zilola Botirovna. (2024). Diagnostic Algorithm for Early Detection of Breast Cancer Based on Error Minimization Approach. *International Journal of Innovative Science and Research Technology (IJISRT)*, 9(12), 1535–1542. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14565219>



TO'QUV MASHINASI ISHLASH JARAYONIDA, IPDA HOSIL BO'LADIGAN TARANGLIK KUCHI NAZARIYASINI MATEMATIK MODELINI DINAMIK JIXATDAN ASOSLASH

Sharibayev Nosirjon Yusubjanovich,
Namangan Muhandislik texnologiyalari instituti
Fizika matematika fanlari doktori, professor
sharibayev_niti@mail.ru

Homidov Qahramon Abdullajonovich,
Namangan muhandislik-qurulish instituti o'qituvchisi,
hero23021986@gmail.com

Annotatsiya: To'qima to'qish jarayonida pishitilgan iplardan foydalaniladi. To'qilgan sifatli mato turli sanoat sohalorida, masalan, to'qimachilik, transport, inshootlar va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Shuning uchun iplarning mexanik xususiyatlarini aniqlash juda muhimdir. To'quv jarayonida yuzaga keladigan qarshilik kuchlarini hisoblash va turli holatlarda ularni tahlil qilish to'qimachilikning eng dolzarb masalalaridan biridir. To'qima to'qish jarayonida xomuza ochilishi natijasida ipning taranglik kuchi keskin ortadi, bu esa ipning uzilishiga olib keladi. Taranglik kuchining ortishini kamaytirish maqsadida qayishqoq prujinalar qo'llaniladi. Ushbu maqolada to'quv ipiga ta'sir qiladigan kuchning dinamik modeli ishlab chiqilib, unga mos differensial tenglama tuzilgan. Tenglama yechilib, uning grafigi chizilgan va yechimning mexanik ma'nosi izohlangan.

Kalit so'zlar: Ip, qarshilik kuchi, tezlik, ifoda, yuklanish, qayishqoqlik, deformatsiya, elastiklik, uzilish kuchi, tortish kuchi, to'qima, differensial tenglama, taranglik

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Respublikamizda, ishlab chiqariladigan yuqori sifatli mahsulotlarga bo'lgan talab kundan-kun ortib bormoqda. Ayniqsa, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalaridagi mahsulot sifatining muhimligi tobora oshib bormoqda. To'qima to'qish jarayonida iplarni qayta o'rashda ipning tarangligini va namlikni nazorat qilish juda muhim. Ipning sifati va xossalari, ayniqsa to'qish jarayonida uning tarangligini nazorat qilish va bir me'yorda o'rashni doimiy ravishda nazorat qilish zarur. Ip tarangligini nazorat qiluvchi qurilmalarning avtomatlashtirilishi, ish samaradorligini va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda to'qimachilik mashinalarini yaratish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri texnologik jihozlarning parametrlarini optimallashtirish orqali iplarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va unumdorligini oshirishdir. Biroq, bu vazifalarni amalga oshirishda olinadigan ip sifat ko'rsatkichlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish, uning mexanik

xossalari bilish zarur bo'ladi. Chunki tez harakatlanadigan jihozlarda ipga turli mexanik ta'sirlar (aylanish, egilish, buralish, taranglik va tebranish) o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ta'sirlar ishlatilayotgan va loyihalalanayotgan mashina qismlarining tezliklari, shakl va o'lchamlarini tanlashda asosiy mezon bo'ladi. To'qima to'qish jarayonida iplarning tarangligi to'quv texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida katta ahamiyatga ega. To'qish mashinasiga ip tarangligi o'rtacha bo'lishi kerak. Haddan ziyod taranglik ostida iplar cho'zilib qolib, to'quv jarayonlari va matolar uchun elastik qayishqoqligini yo'qotadi. Taranglikning oshishi bilan ip uzilishlari ko'payadi va iplarda uloqlar soni ortadi, bu esa to'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodlar. Qayta o'rash jarayonida ipning kerakli tarangligini olish va uni nazorat qilish uchun maxsus taranglovchi moslamalar ishlatiladi. Taranglovchi moslamalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ipning bir xil to'xtashini ta'minlash;




2. Kerakli taranglikni o'rnatish uchun oson sozlanishi;
3. Ish jarayonida turli xildagi xas cho'plar, momiqlar va iflosliklar to'planmasligi, oson tozalanishi;
4. Taranglovchi moslamani ishlatish ishonchli va chidamli bo'lishi.

Barcha taranglovchi moslamalarda ishqalanish kuchlari ta'sirida ipda qo'shimcha taranglik paydo bo'ladi. Turli konstruksiyadagi taranglovchi moslamalar ipning tarangligini nazorat qilishning turli usullarini amalga oshiradi, jumladan prujina kuchi, yuklarning og'irlik kuchi, magnit yoki elektromagnit ta'siri, pnevmatik usullar va boshqa kompleks kuchlarning ta'sirida. Ip tarangligini nazorat qilishda ishqalanish kuchlari muhim rol o'ynaydi, chunki ular ipning tarangligini oshiradi. Qayta o'rash jarayonida iplar disklar orasidan o'tib, ularga ishqalanish natijasida kerakli taranglikka ega bo'ladi. Ipning bir xil tarangligi mahsulot sifatini yaxshilaydi va jarayonni osonlashtiradi, shu bilan birga yuqori tezlikda ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Taranglikni nazorat qiluvchi moslamani tanlovi va sozlanishi, qayta o'rash jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, pishitish jarayonidagi iplarning mexanik xususiyatlarini o'rganish zarurligi ko'rsatilgan. Yakka iplarning bir xil tarangligini ta'minlash iplarning notekisligini kamaytiradi, ishqalanishga chidamliligini oshiradi va pishiqligini yaxshilaydi. Pishitish jarayonidagi iplarning mexanik xossalarini o'rganish va boshqarish yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lib, zamonaviy jihozlarni loyihalashda asosiy omil hisoblanadi.

Muammoning qo'yilishi: Bajarilgan ilmiy ishlar natijalariga ko'ra, iplarga ta'sir qilgan kuchlar natijasida plastik va elastik deformatsiyalar hosil bo'ladi. Bu deformatsiyalar ipning har xil tezlikda yuzaga keladi, ya'ni qayishqoq deformatsiya juda tez ro'y beradi, elastik deformatsiya esa ma'lum bir vaqt ichida o'sadi. Ipga ta'sir qiluvchi kuch kamaygandan so'ng, deformatsiyaning qaytishi ham o'xshash tarzda sodir bo'ladi: qayishqoq deformatsiya qisqa vaqt ichida, elastik deformatsiya esa uzoqroq vaqt

davomida qaytadi. Ma'lumki, iplarning cho'zilishi va siqilishi jarayonida uning qiya yuzachalarda siljish holati ham yuz beradi. Urinma kuchlanishlar ta'sirida ipning kuchlanganlik holatida sof siljish yuzaga keladi. Sof siljish natijasida ipning shakli o'zgarib, nisbiy deformatsiyalar paydo bo'ladi, bu esa ipning mexanik xossalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, cho'ziluvchan ipning tanda harakatlanganda hosil bo'ladigan qarshilik kuchining nazariy jihatdan tahlilini o'tkazish lozim. Cho'ziluvchan arqoq ipning taranglik kuchi bilan ipning cho'zilish masofasi orasidagi bog'liqlikni tavsiflash uchun maxsus tenglama tuzish zarur. Ushbu tenglama ipning cho'zilishi va unga ta'sir qilayotgan kuchlar o'rtasidagi aloqani o'rganish imkonini beradi va ipning mexanik xossalari hamda uning ishlash sharoitlari haqida chuqurroq tushuncha olishga yordam beradi.



1-rasm. To'qish jarayonida ipga ta'sir qiluvchi kuchning nazorat qiluvchi qurilma .

Mexanik-modulli yondashuv: 1-rasmdan ko'rinib turibdiki. Ip o'ng tomonga harakatlanmoqda. Tandagi ipning chap tomonida joylashgan A nuqtasiga (1) kuch, B nuqtasiga esa (2) kuch ta'sir qiladi. Bu kuchlarning dinamik muvozanatidan va Nyutonning ikkinchi qoninidan foydalanib (3) tenglamani keltirib chiqaramiz. [5]

$$T_1 \quad (1)$$

$$T_1 + T_0 \sin \omega t \quad (2)$$

$$T_1 + T_0 \sin \omega t - T_1 - kx - cv_{pr}t = ma \quad (3)$$

Yoki



$$T_0 \sin \omega t - kx - cv_{pr}t = ma \quad (4)$$

Bu yerda:

T_1 - To'qima to'qish jarayonida ipga ta'sir etib turuvchi doimiy taranglik kuchi;

T_0 - Bu kuch xomuzga ochilgan vaqtda xosil bo'ladigan maksimal kuch;

k - Ipga kuch ta'sirida hosil bo'ladigan elastiklik koeffitsienti;

m -Ipnning massasi;

c - Prujina bikrligi;

v_{pr} - Prujinaning o'rtacha tezligi;

x - Ipnning ish jarayonida yurish yo'li.

a -Kuchlar ta'sirida ip olgan tezlanish.

ω - Xomuzaning ishlash jarayonidagi siklik chastotasi

Differensial tenglamani keltirib chiqarish:

(4)-tenglikni soddalashtirib va quyidagi $\ddot{x} = a$ tenglikdan foydalanib, (5) tenglamaga kelimiz.

$$\ddot{x} + \frac{k}{m}x = \frac{T_0 \sin \omega t}{m} - \frac{cv_{pr}}{m}t \quad (5)$$

(5) tenglama ikkinchi tartibli o'zgarmas koeffitsientli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglama deyiladi.[6]. Bu tenglamani yechib quyidagi umumiy yechimni olamiz.(6)

$$x(t) = C_1 \cos \sqrt{\frac{k}{m}}t + C_2 \sin \sqrt{\frac{k}{m}}t + \frac{T_0 \sin \omega t}{k - m\omega^2} - \frac{cv_{pr}}{k}t; \quad (6)$$

$$x(0) = 0, \quad \dot{x}(0) = 0,$$

Dastlabki xolatda A va B nuqtalarga kuchlar ta'sir qilmasdan oldin, bu kuchning qiymati va ipning tezligi 0 ga teng bo'ladi. Bundan foydalanib (7) shartni yozishimiz mumkin.


Koshi masalasini umumiy yechimini topish:(5) tenglamani (7) shart asosidagi boshlang'ich shartli masala, ya'ni Koshi masalasi deyiladi. Bu masalani yechib, o'zgarmas koeffitsientlar C_1 va C_2 larni qiymatini topamiz. Topilgan qiymatlarni (6) tenglamaga olib borib qo'yib (8) yechimni olamiz.

$$x(t) = \sqrt{\frac{m}{k}} \left(\frac{cv_{pr}}{k} - \frac{T_0\omega}{k - m\omega^2} \right) \sin \sqrt{\frac{k}{m}}t + \frac{T_0 \sin \omega t}{k - m\omega^2} - \frac{cv_{pr}}{k}t; \quad (8)$$

$$v_{pr} = 0,4 \text{ m/s} \quad T_0 = 3 \text{ N}; k = 1200 \text{ N/m}; m = 0,0001$$

$$\omega = 10 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

kg; $c = 150 \text{ N/m}$;



1-grafik. Ipnning to'qilish jarayonidagi yo'li va vaqt orasidagi bog'lanish grafigi.

Natijalar: (5)-tenglamani yechimidan va kerakli o'zgarmaslarning amaliyotga yaqin qiymatlaridan foydalanib 1-grafikni olamiz. Yuqoridagi grafikni OA, AB, BC, CD qismlarga bo'lamiz. Har bir qismdagi jarayonni mexanik jixatdan taxlil qilib chiqamiz.

OA jarayon: Grafikning bu qismida tikuv boshlanish jarayoni aks etgan bo'lib, ipga ta'sir qiluvchi kuch dastlab nolga teng, umumiy qarshilik kuchi keskin oshishligini ko'rsatadi. Bunday bo'lishiga asosiy sabab ip cho'zilganda elastik kuchi va xomuzani ochilishi bilan xosil bo'ladigan qarshilik kuchi ortmoqda.

A nuqtada: Qarshilik kuchlarini $(\frac{1}{2})$ indisi maksimal qiymatga erishadi.

AB jarayon: Ipnning tutib turish chegarasi bo'shaladi yani ip relaksaksiyalanadi. Ip tandalardan o'ta boshlaydi bu esa ishqalanish yuzasini va harakatga qarshilik kuchini kamaytiradi, ipning relaksaksiyalanish natijasida elastik kuchining qiymatini kamayadi. Umumiy qarshilik kuchi kamayadi.

B nuqtada: Ipga teng ta'sir etuvchi kuch nolga teng bo'liadi. Natijada ip to'xtaydi.

BC jarayon: Bu holatda ipga ta'sir qiluvchi kuch yana ortib boradi.



CD jarayon: Bu jarayonda yuqoridagi sikl yana davom etadi.

Xulosa. O'rganilayotgan jarayon shuni ko'rsatadiki, matoning mexanik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, texnik va ilmiy yondashuvni takomillashtirishga olib keladi. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki to'qimachilik sanoati va boshqa sohalarda matolarni sifatli ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday tahlil va izlanishlar, matolarni ishlab chiqarish va ishlatishda yuzaga keladigan noaniqliklarni kamaytirishga yordam beradi. Mexanik xususiyatlarni o'rganish orqali matolarni turli sharoitlarda qanday ishlashini va ularning qaysi parametrlariga e'tibor qaratish kerakligini aniqlash mumkin. Shunday qilib, nazariy tahlil va hisoblashlar matolarni yanada ishonchli va uzoq muddatli ishlashini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlar, matolarni ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori sifat va barqarorlikni ta'minlashda, ularning barcha zarur mexanik xususiyatlarini hisobga olishda yordam beradi. Mexanik qonuniyatlarga asoslanib, matolarni birlamchi va ikkilamchi qarshilik kuchlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu jarayon, shuningdek, matolarni yanada sifatli ishlab chiqarishga, ularning ishlash muddatini uzaytirishga va ularni turli sharoitlarda samarali ishlatishga yordam beradi. Misol uchun, matolarni ekstremal sharoitlarda ishlatish (issiq, sovuq, yuqori yoki past bosim kabi) uchun qanday o'zgartirishlar kiritish zarurligini aniqlash mumkin. Bu esa texnologik jarayonlarni optimallashtirishga, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqolada olingan natijalar nafaqat ilmiy-tadqiqotlar, balki sanoat amaliyotida ham qo'llanilishi mumkin, bu esa texnologik jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Matoning mexanik xususiyatlarini tushunish va tahlil qilish, qarshilik kuchlarini hisoblash orqali materiallarning bardoshli va xavfsiz ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Bu nafaqat ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishga, balki matolarning texnik talablarga javob berishini nazorat qilishga ham imkon yaratadi. Masalan, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishda, matolarni tayyorlash jarayonida maxsus formula va usullarni qo'llash orqali ularning sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi. Tahlil

natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, matolarning mustahkamligini tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlar ularning mexanik va matematik modeli juda kam o'rganilgan. Hozirgi kunda, ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar matolarni tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa-da, ipga ta'sir qilayotgan qarshilik kuchi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun kerakli tenglamalar hali to'liq shakllantirilmagan. Berilgan parametrlarga bog'liq qarshilik kuchining tenglamalari va uning yechimlari hozirgacha o'rganilmoqda va bu soha hali ham rivojlanmoqda. Tadqiqotlar davomida bu jarayonning yanada chuqurroq va kompleks modellari ishlab chiqilishi kerak. Ushbu maqolada, tanda harakatlanayotgan ipga ta'sir qiladigan umumiy qarshilik kuchining tenglamasi Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan tuzilgan. Bu yondashuv, kuch va massaning ta'sirini aniqroq o'lchashga va matematik jihatdan batafsilroq tahlil qilishga imkon beradi. Tuzilgan tenglama, differensial tenglamalar nazariyasi asosida yechildi va ipning yurish yo'li $x(t)$ kuch va vaqt (t) orasidagi bog'lanish grafigi sifatida taqdim etildi. Bu grafik, tahlil qilinayotgan mexanik jarayonni aniq va to'liq ifodalashda yordam beradi. Shuningdek, grafikdan foydalanib, ipning harakati va unga ta'sir qilayotgan kuchlar orasidagi bog'lanish haqida amaliy tushunchalar olish mumkin. Olingan grafik, ip uchun o'rganilayotgan mexanik jarayonni to'liq ifoda etib berdi va uning o'zgarishini kuzatishga imkon yaratdi. Bu yechimni amaliyotda qo'llash mumkinligini grafik yordamida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, ipning harakatlanishi va unga ta'sir qilayotgan kuchlarning qanday o'zgarishini grafikda ko'rsatilgan parametrlar yordamida kuzatish mumkin, bu esa amaliyotda iplarning ishlash xususiyatlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ushbu ilmiy yondashuv matolarni ishlab chiqarish va ishlatishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bunday tahlil, matolarni maksimal samaradorlikda ishlatishga, ularning fizik va mexanik xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda, sanoat ishlab chiqarishida va materialshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulyamov, G., & Sharibaev, N.U. (2011). Determination of the density of surface states at the semiconductor-insulator interface in a metal-insulator-semiconductor structure. Semiconductors, 45, 174-178. <https://doi.org/10.1134/S1063782611020084>
2. Mamadaliyeva D, Karimov.R, Aliyeva D.G, “Increasing the strength of the pile in terry fabric by changing the weaving system”, “Scientific and Technical Journal” Namangan Institute of Engineering and Technology Volume 7, p.p 57-61, Namangan 2022.
3. Sharibaev, E., et al. (2022). Experimental investigation of the relationship between raw shaft density and saw cylinder electric motor load current. Journal of Physics: Conference Series, 2388, 012174. <https://doi.org/10.1088/1742-6596/2388/1/012174>
4. Akramov, A.M. Optimization of Parameters for Producing Suitable Fabrics on a Weaving Machine. PhD Thesis, NamMTI, Namangan, 2022.
5. Gordeev, V.A. Weaving Patterns and Fabric Analysis: A Textbook. Moscow: Light Industry, 1969, 120 pp.
6. Nikitin, M.N. Artistic Design of Fabrics. Moscow: Light Industry Publishing House, 1971, 280 pp.



DINIY IDORALARARO TAQSIMLANGAN AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOT FRAGMENTLARINI DINAMIK REPLIKATSIYASI

Dadamuxamedov Alimjon,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi.
E-mail: chinororg@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda taqsimlangan axborot tizimlarida ma'lumot fragmentlarini dinamik replikatsiyalash masalasi o'rganiladi. So'nggi yillarda ma'lumotlar bazalarini samarali boshqarish va ularni qayta ishlash muhim ilmiy muammoga aylandi. Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalarining cheklovlari sababli taqsimlangan ma'lumotlar bazalari (TMB) tezkor ma'lumotga kirish, tizim ishonchliligini oshirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish uchun muqobil yechim sifatida qaralmoqda. Ishda fragmentatsiya va replikatsiya texnologiyalari asosida taqsimlangan tizimlarning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda gorizontol, vertikal va gibrid fragmentatsiya modellarining taqsimlangan tizimlarda qo'llanilishi va ularning optimal joylashtirish strategiyalariga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Taqsimlash, fragmentatsiya, replikatsiya, optimizatsiya, joylashtirish, migratsiya, tarmoq, yuklama, resurslar, model

Kirish. So'nggi yillarda ma'lumotlar bazalarini boshqarish va qayta ishlash texnologiyalari yangi bosqichga chiqdi. Hozirgi kunda axborot tizimlarining asosiy maqsadi – ma'lumotga tezkor kirish imkoniyatini ta'minlash, tizim ishonchliligini oshirish va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirishdan iborat. Ayniqsa, ma'lumotlar butunligi va xavfsizligi ustuvor masala bo'lib qolmoqda.

Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni saqlash va ularga ko'plab foydalanuvchilar tomonidan bir vaqtning o'zida so'rovlar yuborilgan holatlarda yetarli darajada samaradorlik, yuqori mavjudlik va ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun, taqsimlangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ma'lumotlarga tezkor kirish va tizim samaradorligini oshirish muammolarini hal qilishning samarali usuli hisoblanadi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasini loyihalashning boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan turli usullar TMB (taqsimlangan ma'lumotlar bazalari) samaradorligiga ta'sir qiladi [7].

So'nggi yillarda ma'lumotlar bazalaridan foydalanuvchi taqsimlangan tizimlar sohasida ko'plab

tadqiqotlar olib borildi va ular quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi [8].

Taqsimlangan axborot tizimlarining samaradorligini oshirish uchun ma'lumotlar bazasini fragmentatsiya qilish va ushbu fragmentlarni turli tugunlarga optimal joylashtirish usuli qo'llaniladi. Bugungi kunda turli ilmiy tadqiqotlar bu borada samarali algoritmlar ishlab chiqmoqda. Asosiy fragmentatsiya usullari quyidagilardan iborat:

- Gorizontol fragmentatsiya jadval satrlari mustaqil qismlarga bo'linadi va har bir fragment alohida saqlanadi.
- Vertikal fragmentatsiya ustunlar asosida bo'linib, turli atributlar alohida guruhlariga ajratiladi.
- Gibrid fragmentatsiya yuqoridagi ikki usul kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Bundan tashqari, ma'lumotlar replikatsiyasi tizim ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Replikatsiya jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Replikalarni yaratish va boshqarish algoritmlarini qo'llash;
- Ma'lumotlarning mosligini ta'minlash uchun muvofiqlashtirish;



- Replikalarni tizim tugunlari orasida dinamik ravishda ko'chirish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda taqsimlangan ma'lumotlar bazalarining samaradorligini oshirish va ma'lumotlarni optimal boshqarish bo'yicha turli metodologiyalar qo'llanilgan. Nazariy tahlil, matematik modellash, eksperimental sinovlar, algoritmik optimallashtirish va fayl kengaytmasiga asoslangan fragmentatsiya yondashuvlari birgalikda ishlatilgan bo'lib, bu yondashuvlar natijasida tizim ishonchliligi, tezkorligi va samaradorligi oshirilgan.

Ushbu maqola taqsimlangan tizimlarda ma'lumotlar replikasiyasi bo'yicha tadqiqot olib boradi va uning tizim ishonchliligi va barqarorligi uchun muhim vosita ekanligini asoslaydi. Asosiy e'tibor ma'lumotlarni takrorlash (replikatsiya qilish) texnologiyalariga, ularning tarmoq infratuzilmasiga ta'siri va ma'lumotlarni yo'qotish xavfini kamaytirishga qaratilgan. Maqolada quyidagi jihatlar ko'rib chiqilgan: Replikatsiya usullari va ularning taqsimlangan tizimlardagi roli, tizimning ishonchliligi oshirish uchun ma'lumotlarning ko'p nusxasini saqlash strategiyalari, ma'lumotlarni sinxron va asinxron replikasiya qilishning afzalliklari va kamchiliklari, tarmoq kechikishi va yuklanishini minimallashtirish bo'yicha algoritmik yondashuvlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali replikasiya algoritmlaridan foydalanish tizimni nosozliklardan himoya qilish, yuklamani muvozanatlash va tezkor so'rovlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [1].

Big Data texnologiyalarining ilmiy va texnik tarmoqlardagi o'rni, ularni samarali boshqarish usullari hamda axborot oqimini optimallashtirish strategiyalari muhokama qilingan. Tadqiqot IoT qurilmalari, sensor tizimlar va tarmoq monitoringi kabi ma'lumot yig'ish texnologiyalari, mashinani o'rganish, sun'iy intellekt va real vaqt tahlili kabi ma'lumotni qayta ishlash usullari, bulutli hisoblash va taqsimlangan tizimlar orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali boshqarish yondashuvlari, shuningdek, axborot oqimini optimallashtirish uchun tarmoq orqali

ma'lumotlarni uzatish va saqlash strategiyalarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish uchun taqsimlangan ma'lumotlar bazalari, replikasiya va fragmentatsiya usullari markazlashtirilgan tizimlarga nisbatan afzalroq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada Hadoop, Spark va NoSQL kabi zamonaviy ma'lumotlar tahlili texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Ushbu ish ilmiy tadqiqotlar, sanoat axborot tizimlari va davlat axborot tarmoqlari uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi [2].

Taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari turli darajadagi murakkablik va vazifalarga ega bo'lib, ularga qo'yiladigan talablar ham o'ziga xosdir. Eng muhim talablar quyidagilardan iborat: ma'lumotlarning yuqori darajada saqlanishi, tizim ishonchliligi maksimal darajada ta'minlanishi, so'rovlarga javob berish vaqti belgilangan chegaradan oshmasligi hamda ekspluatatsiya xarajatlarining minimal bo'lishi. Ushbu talablarni samarali bajarish uchun asosiy yechim ma'lumotlarni replikasiya qilish va taqsimlangan tizim tugunlari bo'ylab replikasiya qilingan ma'lumot massivlarini optimal joylashtirishdan iborat. Bunday yondashuv tizim samaradorligini oshirish, nosozliklarga chidamlilik darajasini kuchaytirish va tarmoq yuklamasini muvozanatlash imkonini beradi [3].

Replikatsiya usullari keng qo'llaniladi, masalan, taqsimlangan ma'lumotlar bazalarida (TMB), bu jarayon jadval ma'lumotlarini optimal joylashtirish yoki jadvalning gorizontaal yoki vertikal fragmentlarini samarali taqsimlash zarur bo'lganda ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Ushbu yondashuv ma'lumotlarga tezkor kirishni ta'minlash, tizim yuklamasini muvozanatlash va ishlash samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi [4].

GRID tizimlarida ma'lumotlar replikasiyasi tizimning mavjudligini oshirish, nosozliklarga bardoshlilikini ta'minlash, yuklamani muvozanatlash va miqyoslash imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, bu yondashuv tarmoq kanallaridagi ortiqcha yukni kamaytirish va topshiriqlarni bajarish vaqtini qisqartirishga xizmat



qiladi. Natijada, GRID tizimlari barqaror va samarali ishlashga erishib, katta hajmdagi hisoblash va ma'lumotlar almashinuvi jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi [5].

Ma'lumotlarni tarmoq tugunlari bo'ylab optimal joylashtirish masalasi uzoq tarixga ega. Replikatsiya joylashtirish muammosi, ma'lum ma'noda, taqsimlangan kompyuter tarmoqlarida fayllarni samarali joylashtirish muammosining davomi sifatida qaraladi. Ushbu masala ilk bor ilmiy asosda shakllantirilgan va tahlil qilingan ish [6] bo'lib, u tizim samaradorligini oshirish va ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

Ma'lumot saqlash tarmog'i (Storage Area Network – SAN) axborot saqlash vositalari (serverlar), boshqaruv tizimi va MST komponentalari orasida muloqotni ta'minlaydigan kommunikatsiya vositalaridan tarkib topadi (1 - rasm). MST vositalari mahalliy Ethernet tarmog'i, Fibre Channel ma'lumot uzatish magistral tarmog'i vositalari (Fibre Channel) va Fibre Channel marshrutizatorlari (Fibre Channel – SCSI router) dan tarkib topadi, ular Fibre Channel protokoli yordamida o'zaro muloqotda bo'ladilar. MST vositalarining bog'lanishi optik tolali aloqa tizimlari yordamida ta'minlanadi. Vositalarning bunday o'zaro bog'lanishi Fibre Channel Fabric deyiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, tarqoq holda joylashgan diniy muassasalarida shakllantirilishi rejalashtirilayotgan ma'lumot saqlash tarmog'ining infratuzilmasini quyidagi bosqichlarda yaratish mumkin:

1) Diniy muassasalarda server hamda ishchi stansiya kompyuterlari asosida mahalliy kompyuter tarmog'ini tashkil etish.

2) Diniy muassasalarda yaratiladigan elektron ma'lumot bazalarining yagona standartini ishlab chiqish va ushbu standart asosida imkon qadar yagona platforma negizida ma'lumot saqlash omborlarini shakllantirish.


3) Graf nazariyasiga tayangan holda, MST ning Fibre Channel texnologiyasi asosidagi magistral telekommunikatsiya tarmog'i uchun topologik tuzilma sxemasini ishlab chiqish.

4) Diniy muassasalarining lokal kompyuter tarmoqlarini Fibre Channel texnologiyasi asosida integratsiya qilish orqali markaziy boshqaruv tizimiga ega taqsimlangan ma'lumot saqlash tarmog'i infratuzilmasini shakllantirish.

5) Foydalanuvchi so'rovlarini tahlil qilish asosida qaysi mazmundagi diniy axborotlarga talab yuqori ekanligini aniqlash.

6) 1-5-bosqich natijalariga asoslanib, joylardagi diniy muassasalarning yuklanish darajalarini tahlil qilish orqali foydalanuvchi so'rovlarini taqsimlash usulini ishlab chiqish va ushbu jarayonni avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minot yaratish.

7) MST ning ishonchliligini va samaradorligini oshirish maqsadida, axborot resurslarini replikatsiya asosida tarqatib, diniy muassasalarining xotira disklariga qayta joylashtirish jarayonlarini amalga oshirish.



1 – rasm. Ma'lumot saqlash tarmog'ining umumlashgan sxemasi.

W (S) – Windows platformali axborot saqlash server kompyuterlari;

U (S) – Unix platformali axborot saqlash server kompyuterlari;

N (S) – Rezerv nusxa olish server kompyuterlari;

MUT – Ma'lumot uzatish tarmog'i

Ularni amaliyotga tatbiq etish muayyan miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Shu bois, taqsimlangan ma'lumotlar saqlash tarmog'i resurslarining hajmi va yuklanish darajasi juda yuqori bo'lmagan holatlarda, magistral telekommunikatsiya



tarmog'i sifatida Internet imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Taqsimlangan tizimlarda samaradorlikni oshirishning eng muhim yo'llaridan biri - tizim tugunlarini mantiqiy klasterlarga ajratishdir. Bunda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:


- Klasterlar orasidagi axborot almashinuvini minimallashtirish orqali tizim yuklamasini kamaytirish;
- Jadval fragmentlarini tizim tugunlariga optimal joylashtirish.

Klasterni qo'llash usulining mosligini namoyish etish uchun taklif etilgan klasterlash algoritmini 14 ta tarmoq tugunidan iborat tarmoq fragmenti misolida modellashtirish natijalarini ko'rib chiqamiz. Tarmoq fragmentining topologiyasi rasmda keltirilgan. Tizim tugunlari: Tarmoqdagi N1, N2, ..., N14 tugunlari mavjud bo'lib, ular ma'lumotlarni qayta ishlash yoki saqlash uchun xizmat qiladi (Rasm -2).

Tugunlar o'rtasidagi bog'lanishlar: Tugunlar o'zaro bog'langan bo'lib, ma'lumotlarni almashish imkoniyatiga ega.

CN (Connectivity) matritsasi: Tugunlar o'rtasidagi bog'lanish darajasini ko'rsatadi.

NAC (Node Assignment to Clusters) matritsasi: Tugunlarning C1, C2, C3 kabi mantiqiy klasterlarga ajratilganligini tasvirlaydi (Jadval 2).



Rasm -2. Taqsimlangan tizimning fragmenti

Algoritm ishlashi natijasida tarmoq tugunlari raqamlari keltirilgan CN matritsasi hosil qilindi, ular turli mantiqiy klasterlarga guruhlanishi mumkin. CN matritsasi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval 1. Tugunlarning klasterlarga kiritilishi mumkinligini ko'rsatuvchi CN matritsasi


Tarmoq	N1	N2	N3	N4	N5	N6	N7	N8	N9	N10	N11	N12	N13	N14
N1	1	1	0	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0
N2	1	1	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
N3	0	1	1	1	0	0	0	0	0	1	0	0	0	0
N4	0	1	1	1	1	1	1	1	0	0	0	0	0	0
N5	1	0	0	1	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
N6	0	0	0	1	0	1	1	1	0	1	0	0	0	0
N7	0	0	0	0	1	1	1	1	1	0	0	0	0	0
N8	0	0	0	0	0	1	1	1	1	0	0	0	0	0
N9	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	0	1	0	1
N10	0	0	1	0	0	1	0	0	1	1	0	0	0	0
N11	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	0	1	0
N12	0	0	0	0	0	0	0	0	1	0	0	1	1	0
N13	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1
N14	0	0	0	0	0	0	0	0	1	0	0	0	1	1

CN matritsasining qolgan satrlarini ko'rib chiqish zarur emas. Natijada, tugunlarning klasterlarga kiritilishini ko'rsatadigan NAC matritsasi quyidagi ko'rinishga ega (Jadval 2).

Jadval 2. Tugunlarning klasterlarga kiritilishini ko'rsatuvchi NAC matritsasi.

Klaster	N1	N2	N3	N4	N5	N6	N7	N8	N9	N10	N11	N12	N13	N14
C1	1	1	1	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0
C2	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	0	0	0	0
C3	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1

3-rasmda tugunlari uchta mantiqiy klasterga taqsimlangan tarmoq fragmenti sxemasi keltirilgan.



Rasm-3. Mantiqiy klasterlarga bo'lingan taqsimlangan tarmoq.

Jadvallarni fragmentatsiya qilishdan asosiy maqsad – qidiruv jarayonida faqat kerakli ma'lumotlarga ishlov berish orqali tizim tezligini oshirishdir. Bu esa tarmoqdagi axborot almashinuvini kamaytiradi va so'rovlarga javob berish vaqtini optimallashtiradi.

- Ortib ketmagan joylashtirish – bunda jadval yoki uning fragmentining faqat bitta nusxasi



taqsimlangan tizimning bitta tugunida joylashtiriladi.

- Ortib ketgan joylashtirish – bunda taqsimlangan tizimning bir nechta tugunlarida jadval yoki uning fragmentlarining bir nechta identik nusxalari (replikalari) joylashtiriladi.

Ma'lumotlar replikatsiyasi (ortib ketgan joylashtirishda qo'llaniladi):

- Tizim ishini optimallashtirish uchun replikalarni yaratish va o'chirish algoritmlaridan foydalanish;
- Replikalarni tizimning bir tugunidan boshqasiga ko'chirish (migratsiya);
- Ma'lumotlarning o'zaro identikligi va mantiqiy mosligini ta'minlash usullaridan foydalanish;
- Jadvallarning va ularning fragmentlarining replikalarini o'zaro moslashtirish (replikatsiya muvofiqligi).

Yirik taqsimlangan tizim tugunlarini klasterlash va jadval fragmentlarini alohida mantiqiy klasterlarga joylashtirish:

- Yirik taqsimlangan tizimlarni bir-birini kesib o'tmaydigan mantiqiy klasterlarga ajratish, bu esa turli klasterlar orasidagi ma'lumot almashinuvini minimallashtirish va tizim tugunlarida jadval fragmentlarini optimal joylashtirish vazifalarining hisoblash murakkabligini kamaytirishga imkon beradi;
- Jadval fragmentlarini alohida klasterlarda optimal joylashtirish yo'llarini izlash.

Taqsimlangan tizimlarning samaradorligini oshirishning samarali usullaridan biri tizimda foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi jadvallarini fragmentlarga ajratish va ushbu fragmentlarni taqsimlangan tizim tugunlariga optimal joylashtirish hisoblanadi. Taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining (TMQT) erishilgan samaradorligi asosan tanlangan jadval fragmentatsiyasi usulining qanchalik samarali ekanligi hamda hosil bo'lgan fragmentlarning turli tizim tugunlariga qanchalik optimal joylashtirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining (TMQT) samaradorligini oshirish

muammosini hal qilishda turli samaradorlik mezonlari qo'llaniladi. Masalan, [8]-ishda fragmentatsiya va fragmentlarni taqsimlash usuli ma'lumotlar bazasi tizimining (MBT) samaradorligini oshirish uchun qo'llanilgan. [9]-ishlarda esa jadval fragmentlarini taqsimlashning dinamik modelida ma'lumotlarni uzatish uchun aloqa kanallaridan foydalanishni minimallashtirish mezonlari ishlatilgan.

Jadvallarni fragmentatsiya qilishning asosiy maqsadi – ma'lumotlarni qidirish jarayonida qayta ishlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar hajmini kamaytirishdan iborat. Jadval fragmentlaridagi yozuvlarda atributlar to'plamidan foydalanish, asl jadval yozuvlaridagi to'liq atributlar ro'yxatidan ko'ra, saqlash qurilmalaridan o'qiladigan ma'lumotlar hajmini qisqartirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlarni uzatish kanallari orqali yuborish vaqtining kamayishiga va tizimning so'rovlarga javob berish vaqtini qisqartirishga yordam beradi [10].

Natijada, jadval fragmentlarini tizim tugunlari bo'ylab optimal joylashtirish taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

Jadval T quyidagi fragmentlarga ajratiladi:

$$T = \bigcup_{i=1}^n F_i \quad (1)$$

Bu yerda: F_i - i-fragment, n – umumiy fragmentlar soni, U – barcha fragmentlar yig'indisi asl jadvalni tashkil qilishini bildiradi. Fragmentlar quyidagi shartni bajarishi kerak: $F_i \cap F_j = \emptyset, \forall i \neq j$. Bu shart har bir fragment mustaqil bo'lishi kerakligini bildiradi.

Taqsimlangan tizimdagi tugunlar to'plami $S = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$ bo'lsin. Har bir fragment F_i optimal tarzda bitta yoki bir nechta tugunga joylashtiriladi: $J: F_i \rightarrow S_j$

Bu yerda: J – joylashtirish funksiyasi, S_j - j-tugun, ya'ni fragment qayerga joylashtirilishi. Optimal joylashtirishni quyidagi maqsad funksiyasi orqali ifodalash mumkin:



$$\min \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m C(F_i, S_j) x_{i,j} \quad (2)$$

Bu yerda: $C(F_i, S_j) x_{i,j}$ fragment F_i ni tugun S_j ga joylashtirish qiymati (tarmoq kechikishi, saqlash xarajati va hisoblash resurslari asosida hisoblanadi), $x_{i,j}$ – agar F_i fragment S_j tugunda saqlansa, 1; aks holda, 0.

Jadval fragmentlarini joylashtirishda tarmoq orqali ma'lumot almashish xarajatlari ham optimallashtirilishi kerak [11]. Tarmoq bo'ylab ma'lumot uzatishning umumiy qiymatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\min \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m \sum_{k=1}^m d(S_j, S_k) \cdot x_{i,j} x_{i,k} \quad (3)$$

Bu yerda: $d(S_j, S_k)$ – S_j va S_k tugunlari orasidagi tarmoq kechikishi yoki trafik narxi, $x_{i,j}$ va $x_{i,k}$ – agar fragment F_i ikkala tugunda mavjud bo'lsa, 1; aks holda, 0. Bu funksiya minimal aloqa xarajatlari bilan maksimal samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi matematik modellar taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining samaradorligini oshirishda fragmentatsiya va optimal joylashtirish muhimligini isbotlaydi. Optimal joylashtirish algoritmlari (masalan, genetik algoritmlar, dinamik dasturlash, simulyatsiya qilingan tavlani) yordamida $x_{i,j}$ qiymatlari hisoblanib, ma'lumot bazasi so'rovlarini tezkor bajarish va tarmoq yuklamasini kamaytirish mumkin.

Fayllarni fayl kengaytmasi asosida fragmentlarga ajratish vertikal fragmentatsiya tamoyiliga asoslanadi. Bunda har bir fayl turini alohida guruhlash orqali samarali saqlash va boshqarish tizimi yaratiladi. Fragmentatsiya modeli quyidagicha.

Fayllarning umumiy to'plamini quyidagicha belgilaymiz: $F = \{f_1, f_2, \dots, f_n\}$

Bu yerda: F – barcha fayllar to'plami, f_i – i -fayl.

Fayllarni kengaytma bo'yicha guruhlash funksiyasi: $G: f_i \rightarrow E_j$

Bu yerda: G – guruhlash funksiyasi, E_j – fayl kengaytmasi (masalan, .txt, .pdf, .jpg). Shu asosda har bir fayl o'ziga tegishli fragmentga ajratiladi:

$$F = \bigcup_{j=1}^m F_j \quad (4)$$

Bu yerda: F_j – j -kengaytma bo'yicha hosil bo'lgan fayl fragmenti, m – barcha noyob kengaytmalar soni. Fayl kengaytmalariga asoslangan fragmentlar quyidagicha ifodalanadi.

Quyidagi asosiy fayl turlari bo'yicha fragmentatsiya qilish mumkin:

1. Matnli hujjatlar fragmenti (F_1)

$$F_1 = \{f \in F \mid G(f) \in \{.txt, .docx, .pdf\}\}$$

Hujjatlar, kitoblar, kod fayllari. (5)

2. Rasm va grafik fayllar fragmenti (F_2)

$$F_2 = \{f \in F \mid G(f) \in \{.jpg, .png, .svg\}\}$$

Suratlar, dizayn chizmalari. (6)

3. Video va media fayllar fragmenti (F_3)

$$F_3 = \{f \in F \mid G(f) \in \{.mp4, .avi, .mov\}\} \quad \text{Video materiallar.} \quad (7)$$

4. Arxiv va siqilgan fayllar fragmenti (F_4)

$$F_4 = \{f \in F \mid G(f) \in \{.zip, .rar, .7z\}\} \quad \text{Zaxira nusxalar va siqilgan fayllar.} \quad (8)$$

5. Dastur va ijro fayllar fragmenti (F_5)

$$F_5 = \{f \in F \mid G(f) \in \{.exe, .apk, .sh\}\} \quad \text{Dasturlar va bajariluvchi fayllar.} \quad (9)$$

Yuqoridagi optimal joylashtirishni maqsad funksiyasi orqali jarayonni amalga oshiramiz.

Tasavvur qiling, korporativ tarmoq quyidagi serverlardan iborat:

S_1 – Matnli hujjatlar serveri (.txt, .docx, .pdf)

S_2 – Media server (.jpg, .png, .mp4)

S_3 – Arxiv server (.zip, .rar, .7z)

S_4 – Bajariluvchi fayllar serveri (.exe, .apk)

Agar fayl turi bo'yicha ajratib, ularni mos serverga joylashtirsak, tizim tezroq ishlaydi, chunki:



Har bir server o'ziga mos fayllarni optimallashtirib boshqaradi. Kerakli fayllarni qidirish tezlashadi. Tarmoqdagi bandlik kamayadi. Tashkilotlarning fayllarini fayl kengaytmasiga va vaqt kesimiga qarab fragmentatsiya modeli asosida taqsimlab, optimal joylashtirish jadvalini tuzaman.

Bunda: Fayl kengaytmasiga qarab fragmentatsiya – har bir fayl turiga ko'ra alohida guruhlariga ajratiladi. Vaqt kesimida taqsimlash – fayllarni kunlik, haftalik yoki oylik bo'limlarga ajratish orqali vaqt bo'yicha tasniflash. Uchta tashkilot – ularning fayllari tegishli serverlarga joylashtiriladi.

Tashkilotlar va ularning fayllari:

Tashkilot 1: Bank tizimi

Matnli hujjatlar: Hisobotlar, shartnomalar, mijozlar ma'lumotlari (.pdf, .docx, .xls)

Media fayllar: Reklama bannerlari, mijoz pasport skanerlari (.jpg, .png)

Arxiv fayllar: Bank tranzaksiyalari loglari, backuplar (.zip, .rar)

Bajariluvchi fayllar: Ichki dasturlar, xavfsizlik vositalari (.exe, .sh)

Tashkilot 2: IT kompaniya

Matnli hujjatlar: Kod fayllari, texnik hujjatlar (.txt, .md, .pdf)

Media fayllar: Dizayn chizmalar, UI/UX rasmlari (.svg, .psd, .png)

Arxiv fayllar: Old versiyalar va siqilgan kodlar (.zip, .tar.gz)

Bajariluvchi fayllar: Test dasturlari, beta versiyalar (.apk, .exe)

Tashkilot 3: Universitet

Matnli hujjatlar: Talabalar hujjatlari, dars materiallari (.docx, .pdf)

Media fayllar: Darslik videolari, laboratoriya rasmlari (.mp4, .jpg)

Arxiv fayllar: Eski ma'lumotlar, ilmiy maqolalar arxivi (.zip, .rar)

Bajariluvchi fayllar: Elektron o'quv dasturlari, sinov tizimlari (.exe, .sh)

Fayl kengaytmasiga va vaqt kesimiga qarab fragmentatsiya qilinishi (Jadval 3).

Tashkilotlarning fayllari kengaytma va vaqt bo'yicha kunlik, haftalik va oylik ketma-ketlikda fragmentatsiya qilinadi.

Jadval 3. Tashkilotlarning fayllari kengaytma va vaqt bo'yicha kunlik, haftalik va oylik ketma-ketlikda fragmentatsiya qilinadi.

Fayl turi	Tashkilot 1 (Bank)	Tashkilot 2 (IT kompaniya)	Tashkilot 3 (Universitet)
Matnli hujjatlar (F1)	PDF, DOCX, XLS (kunlik)	TXT, MD, PDF (kunlik)	DOCX, PDF (haftalik)
Media fayllar (F2)	JPG, PNG (kunlik)	SVG, PSD, PNG (haftalik)	MP4, JPG (oylik)
Arxiv fayllar (F3)	ZIP, RAR (haftalik)	ZIP, TAR.GZ (oylik)	ZIP, RAR (oylik)
Bajariluvchi fayllar (F4)	EXE, SH (haftalik)	APK, EXE (oylik)	EXE, SH (oylik)

Kunlik fragmentlar: Doimiy yangilanadigan va ishlatiladigan fayllar (.pdf, .docx, .xls, .txt, .png).

Haftalik fragmentlar: Qisman statik, biroq vaqti-vaqti bilan o'zgaruvchi fayllar (.zip, .rar, .exe).

Oylik fragmentlar: Kamdan-kam yangilanadigan yoki arxivlanadigan fayllar (.tar.gz, .apk, .mp4).

Optimal joylashtirish matematik modeli. Har bir fragment tegishli tugunga joylashtiriladi:

Matnli hujjatlar → Dokument serveri (S1)

Media fayllar → Rasm/video serveri (S2)

Arxiv fayllar → Arxiv serveri (S3)

Bajariluvchi fayllar → Dasturiy ta'minot serveri (S4)

Matematik model: $J(F_i) = S_j$

Optimal joylashtirishni minimallashtirish funksiyasi orqali ifodalash mumkin:

Tashkilot 1 (Bank) uchun matnli hujjatlar serveri quyidagicha taqsimlanadi:

$F_{1, \text{bank}} = \{\text{kunlik PDF, DOCX, XLS}\} \rightarrow S_1$

Bu jarayon har bir tashkilot uchun turli vaqt kesimida optimal serverga joylashtirish orqali amalga oshiriladi (2). Tajriba sinovlari taqsimlangan



ma'lumotlar bazalarida fragmentatsiya va replikasiya algoritmlarining samaradorligini baholashga qaratilgan (Jadval 4).

Jadval 4. Tashkilotlar samaradorligini baholash.

Ko'rsatkich	Tashkilot 1 (Bank tizimi)	Tashkilot 2 (IT kompaniya)	Tashkilot 3 (Universitet)
Jadval fragmentatsiyasi samaradorligi (%)	40%	45%	35%
Tarmoq orqali ma'lumot almashish kechikishining kamayishi (%)	30%	25%	28%
Fayllarni fragmentatsiya qilish orqali so'rov bajarilish tezligi oshishi (%)	55%	50%	45%
Server yuklamasining kamayishi (%)	40%	38%	35%
Replikatsiya muvofiqligi (aniqlik darajasi, %)	92%	90%	88%
Tizim ishonchligining oshishi (%)	48%	50%	42%

Bunda fragmentatsiya va replikasiya strategiyalarining turli xil tashkilotlarda qanday samaradorlik bilan ishlashini ko'rsatadi. Bank tizimi va IT kompaniyasi uchun optimallashtirish natijalari yuqori bo'lsa-da, universitet uchun natijalar nisbatan pastroq bo'ldi. Bu ularning ish yuritish jarayonlari va ma'lumotlar bazasi tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Natijalar: Tadqiqot davomida fragmentatsiya va replikasiya algoritmlarining samaradorligi baholandi, shuningdek, optimal joylashtirish va ma'lumotlar mosligini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqildi. Matematik modellash yondashuvi asosida fragmentlarni taqsimlash jarayoni va replikasiya strategiyalarining samaradorligi tekshirildi.

- Jadval fragmentatsiyasi va replikasiyasi kombinatsiyasi yordamida tizimning umumiy ishlash samaradorligi 35–45% gacha oshirildi.

- Tarmoq orqali ma'lumot almashish kechikishi optimallashtirilgan model yordamida 30% gacha qisqartirildi.

- Fayllarni kengaytma va vaqt kesimida sementatsiya qilish orqali so'rov bajarilish tezligi 55% ga oshdi, bu esa server yuklamasini 40% gacha kamaytirishga yordam berdi.

- Replikatsiya muvofiqligi algoritmi ma'lumotlarning mosligi va yaxlitligini 90% dan yuqori aniqlikda saqlash imkonini berdi.

- Optimal joylashtirish modeli orqali ma'lumotlar bazasi resurslarini taqsimlash samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, taqsimlangan ma'lumotlar bazalarini samarali boshqarish uchun fragmentatsiya strategiyalarining to'g'ri tanlanishi va optimal joylashtirish algoritmlarining qo'llanilishi zarur. Ma'lumotlarni geografik va funksional bo'linish tamoyillariga asoslangan holda taqsimlash orqali yuklama muvozanati ta'minlanadi, ma'lumotlar almashinuvi uchun talab qilinadigan tarmoq resurslari minimallashtiriladi va tizim samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mazkur algoritmlar real vaqt rejimida ishlovchi katta hajmdagi ma'lumotlar bazalari, bulutli hisoblash tizimlari va yuqori yuklama ostida ishlaydigan axborot tizimlari uchun qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, bank tizimlari, ilmiy hisoblash markazlari va korporativ ma'lumotlar bazalarida ushbu metodlarni tatbiq etish orqali tizimning ishlash barqarorligi va xavfsizligi oshirilishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda taqsimlangan axborot tizimlarida ma'lumot fragmentlarini dinamik replikasiya qilish muammosi tahlil qilindi va uning samarali yechimlari taklif etildi. Markazlashgan ma'lumotlar bazalarining ma'lumotlarga tezkor kirish, tizim yuklamasini optimal taqsimlash va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishdagi cheklovlari sababli taqsimlangan ma'lumotlar bazalari (TMB) zamonaviy hisoblash tizimlari uchun muhim texnologik yechimga aylangan. Ushbu yondashuvlar taqsimlangan tizimlarning resurslardan yanada samarali foydalanishiga hamda uzluksiz ishlashini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сомов, С. К. (2018). Репликация данных как инструмент повышения надежности функционирования распределенных систем. Информационные технологии и вычислительные системы, (3), 69-79.

2. Кондрусева, С. А. (2020). Технологии сбора и обработки больших массивов информации.



прикладная математика и информатика:
современные исследования в области естественных
и технических наук (pp. 574-578).

3. Сомов С.К. Сохранность информации в
распределенных системах обработки данных / – М.:
ИПУ РАН. – 2019. – 254 с.

4. Чернышев Г.А. Обзор подходов к
организации физического уровня в СУБД // Труды
СПИИРАН. 2013. – Санкт-Петербург. 2013, – Вып.
1(24). – с. 222–275.

5. Tos U. and oth. Dynamic replication
strategies in data grid systems: a survey. – The Journal
of Supercomputing. 2015, – Volume 71, – Issue 11. –
pp. 4116–4140.

6. Chu W.W, File Allocation in a Multiple
Computer System // IEEE Transactions on Computers,
1969, – Vol. C-18, – № 10. – p. 885–889.

7. Чернышев Г.А. Обзор подходов к
организации физического уровня в СУБД //–
СПб®: Труды СПИИРАН® 2013. – Вып. 1(24). – с.
222 – 275.

8. Abdalla H.I., Amer A.A., Mathkour H. A.
Novel Vertical Fragmentation, Replication and
Allocation Model in DDBSs // Journal of Universal
Computer Science. –2014. – V. 20, –N. 10. –P. 1469–
1487.

9. Gupta, S., Panda S. Vertical Fragmentation,
Allocation and ReFragmentation in Distributed Object
Relational Database Systems (Update Queries
Included) / International Journal of Engineering
Research and Development. – 2012. – V. 4, – N. 7. –
P. 45– 52.

10. A. Mohamed, D. Alimjon, A. Choriev, T.
Saravanan, L. Jasim and M. B, "Development and
Application of Mechanical Design Engineering
Database Based on Simulated Annealing Algorithm,"
2023 Second International Conference On Smart
Technologies For Smart Nation (SmartTechCon),
Singapore, Singapore, 2023, pp. 1398-1403, doi:
10.1109/SmartTechCon57526.2023.10391752.

11. Alimjon, D. (2022). Problems of data
replication in distribution systems. ACADEMICIA:
An International Multidisciplinary Research Journal,
12(5), 1119-1128.



NUTQNI MATNGA VA MATNNI NUTQQA O'TKAZISH DASTURIY TA'MINOT UCHUN FOYDALANISH DIAGRAMMALARINI VA ASOSIY SINFLARINI QURISH

Mamatov Narzillo Solidjonovich,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,
t.f.d., professor
m_narzullo@mail.ru

Nuritdinov Nurbek Davlataliyevich,
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
tayanch-doktorant
nuritdinovnurbek85@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada veb-texnologiyalar yordamida real vaqt rejimida nutqni matnga va aksincha matndan nutqqa aylantirishni ta'minlovchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga qaratilgan. Flask asosidagi backend va jQuery, AJAX bilan bog'langan frontend orqali foydalanuvchilar nutqni taniy oladi va uni boshqa tillarga tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. LSTM asosidagi neyron tarmoqlar nutqni tanib olishda qo'llanilgan bo'lib, MFCC xususiyatlari asosida audio ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, matndan ovoz yaratishda spektral tahlil va kodlovchi-dekodlovchi modeldan foydalaniladi. Dastur interfeysi oddiy va intuitiv bo'lib, barcha qurilmalarda ishlashga moslashtirilgan.

Kalit so'zlar: Nutqni tanib olish, Matndan nutqqa aylantirish, Flask, LSTM neyron tarmog'i, MFCC, AJAX, jQuery, Tarjima algoritmi, Spektrogramma, API integratsiyasi.

Kirish. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishda muhim rol o'ynamoqda[1]. Ayniqsa, eshitish va nutq qobiliyatida muammolari bo'lgan insonlar uchun maxsus ilovalar yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[2]. Ushbu tadqiqot ishida kar-soqovlar uchun muloqotni shakllantirish algoritmlari ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy maqsad – ovozni matnga va matnni ovozga aylantirish imkonini beruvchi veb-ilovani ishlab chiqishdir[3].

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda nutqni matnga va aksincha matnni ovozga aylantirish bo'yicha juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Sun'iy intellekt va mashina o'rganish sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi, bu esa ushbu texnologiyalarni real vaqt rejimida yanada takomillashtirishga imkon berdi[4].

Nutqni matnga aylantirish (STT - Speech-to-Text) texnologiyalari bo'yicha Google Speech API, IBM Watson Speech to Text va CMU Sphinx kabi vositalar mavjud bo'lib, ularning har biri turli

yondashuvlarga asoslangan. Ushbu tizimlarda asosan MFCC (Mel Frequency Cepstral Coefficients) xususiyatlarini ajratish va RNN (Recurrent Neural Network), LSTM (Long Short-Term Memory) yoki Transformer modellaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan[5].

Matnni ovozga aylantirish (TTS - Text-to-Speech) bo'yicha esa Tacotron 2 va WaveNet kabi ilg'or tizimlar ishlab chiqilgan. Ushbu modellar spektrogramma generatori va tovush sintezatoridan iborat bo'lib, ularning birgalikdagi ishlashi aniq va tabiiy tovushlar hosil qilish imkonini beradi[6].


Tarjima texnologiyalari bo'yicha Google Translate, DeepL va OpenNMT kabi mashhur tizimlar mavjud. Ushbu tizimlar Transformer asosidagi neyron tarmoqlarga asoslanib, matnlarni bir tildan boshqa tilga yuqori aniqlikda tarjima qilish imkonini beradi[7].

Python 3 dasturlash tili dasturiy ta'minot ishlab chiqish uchun ishlatilgan Flask veb-ilovalarni ishlab chiqish uchun ramka sifatida foydalanildi. Ma'lumotlar Json va ko'p qismli shakl ma'lumotlar formatida uzatiladi. Vizualizasiya uchun asos HTML belgilash



tili va CSS uslubi edi. Frontendda ishlatiladigan dasturlash tili jQuery va AJAX so'rovlarni yaratish va frontendni backendga ulash uchun ishlatiladi.

Yakuniy saralash ishining asosiy vazifasi real vaqt rejimida bitta qurilmada ovozni matnga va aksincha matnni ovozga aylantirishdir. Ilovaning barcha mavjud qurilmalarda ishlash qobiliyati muhim jihatdir. So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, Internetda millionlab odamlar foydalanadigan juda tez o'sayotgan joyga aylandi. Internet dunyoning istalgan nuqtasida tez va yo'qotmasdan ma'lumotlarni almashish imkonini beradi. Veb-ilovalar axborot almashish va ular bilan ishlashning asosiy usullaridan biriga aylandi. Ushbu omillar ushbu ishni rivojlantirish uchun veb-texnologiyalarni tanlashga sabab bo'ladi.



1-rasm. Dasturiy ta'minotdan foydalanish diagrammasi

Tizim bitta qurilmada ishlash uchun mo'ljallangan, lekin ikkita odamni bog'laydi, ulardan biri kar-soqov. Foydalanish sxemasini ko'rsatadi. Biror kishi qurilmaning mikrofoniga iborani aytadi, tizim nutqni taniydi va uni ekranda aks ettiradi. Qabul qilingan matnni boshqa tilga tarjima qilish ham mumkin. Boshqa bir kishi, o'z navbatida, matnni yozishi va tizim ovozida ovoz berishi mumkin.

Ko'rib turganingizdek, tizim ikkita asosiy modulga bo'lingan: nutqni aniqlash va nutq sintezi.



2-rasm. Modulning ishlash algoritmi

Mikrofondan kirganda, matnga aylantirilishi kerak bo'lgan ovozli signal qabul qilinadi. Ushbu modulning ishlash algoritmi rasmda ko'rsatilgan.

Mikrofon turli chastotalar, kattaliklar va formatlardagi ovozli ma'lumotlarni yozib oladi. Hozirgi vaqtda 44100 Gts va katta edian qiymatlari yetarli sifatga ega. Shu bilan birga, mashhur audioyozuv formati mp3 hisoblanadi.


Ma'lumotlar uzatishni optimallashtirish har qanday dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning ajralmas qismidir. Ma'lumotlarni kodlash tezroq almashish uchun ushbu ma'lumotlarning og'irligini kamaytirishga imkon beradi. Ovozni mashhur MP3 audio formatiga kodlash resurs talab qiladigan jarayon, lekin ayni paytda eng samaralilaridan biri. Mijoz ma'lumotlarni kodlashi kerak va server uni dekodlashi kerak. Hisoblash serveridagi yuqori yuklar ostida dekodlash vaqti sezilarli darajada oshishi mumkin. Signal oldindan ishlov berilganda, audio ma'lumotlar oxir-oqibat 13 raqamdan iborat Mel-Spektral koeffitsientlariga (MFCC) aylantiriladi. Bu sizga vazifadan kodlash va dekodlashni yo'q qilish va buning o'rniga kiritilgan ma'lumotlarni kamaytirish imkonini beradi. Ma'lumotlar 16000 Hz va kichik edian ga qisqartirildi. Ushbu yondashuv ovozli signal hajmini 75% ga kamaytiradi[8-9].

Nutqni oldindan qayta ishlash audio ma'lumotlar bilan ishlashning navbatdagi bosqichidir. Ushbu veb-ilova turli xil shovqin sharoitida ishlatilishi mumkin, ammo nutqni aniqlash barcha mumkin bo'lgan sharoitlarda zarur. Ushbu bosqichda shovqinni kamaytirish, ovozni normallashtirish va jimlikni olib tashlash kabi turli xil filtrlar qo'llaniladi.

MFCC xususiyatlarini matn formatiga o'tkazish uchun sun'iy neyron tarmog'idan foydalaniladi. Uzlaksiz ketma-ket ma'lumotlar bilan ishlash uchun neyron tarmoqlarning alohida turi



takroriy neyron tarmoqlari mavjud. Ular joriy qiymatlarning ahamiyatini yo'qotmasdan keyingi qiymatlarni hisoblash imkonini beradi. Nutqni aniqlash muammolarini hal qilish uchun LSTM (Long Short-Term Memory).



3-rasm. LSTM tarmoqlarining tuzilishi

Kirish har 25 millisekundda hisoblangan MFCC qiymatlarini 10 millisekundning bir-biriga mos kelishi bilan oladi. Ushbu qiymatlar eksperimental ravishda tanlangan. Bu vaqt ichida odam o'rtacha bir nutq birligini - morfemani talaffuz qiladi[10].


Neyron tarmoqning chiqish qatlami morfema sinfini ko'rsatadi, shuning uchun biz ushbu bir necha millisekundlarda qaysi bo'g'in talaffuz qilinganini bilamiz.

Olingan morfemalar normallashtirish va matnga aylantirish uchun yuboriladi. Optimal so'zni topish uchun ikki qator orasidagi masofa uchun Damerau-Levenshtein formulasi qo'llaniladi.

$$d_{a,b}(i, j) = \begin{cases} \max(i, j) & \text{если } \min(i, j) = 0, \\ \min \begin{cases} d_{a,b}(i-1, j) + 1 \\ d_{a,b}(i, j-1) + 1 \\ d_{a,b}(i-2, j-2) + 1 \end{cases} & \text{если } i, j > 1 \text{ ва } a_i = b_{j-1} \text{ ва } a_{i-1} = b_j, \\ \min \begin{cases} d_{a,b}(i-1, j) + 1 \\ d_{a,b}(i, j-1) + 1 \\ d_{a,b}(i-1, j-1) + 1_{(a_i \neq b_j)} \end{cases} & \text{акс холда} \end{cases} \quad (1)$$

A qatorni B qatorga aylantirish uchun qancha almashtirish, o'chirish va qo'shish amallarini bajarish kerakligini ko'rsatadi. Shunday qilib, algoritmi ma'lumotlar bazasidan eng yaqin so'zlarni topadi.

Keyin olingan matn veb-saytda ko'rsatish uchun uzatiladi.



3.1-rasm. Ovoz yaratish modulining tuzilishi


sh, ch harflaridagi farqni tushunmaganligi sababli, ularning ba'zilarini boshqa qandaydir tasniflangan qiymatlar bilan almashtirish kerak. Bundan tashqari, tinish belgilarining ma'nosi algoritimga tushunarli emas. Aksariyat hollarda og'zaki nutqda tinish belgilari faqat pauza yoki kechikish rolini o'ynaydi. Shunday qilib, suhbatdosh leksemalar orasidagi ma'no va bog'lanishni tushunadi.

Matnni tushunarliroq tasniflanadigan ma'lumotlarga aylantirgandan so'ng, bu ma'lumotlar spektrogramma generatoriga o'tkaziladi. Zamonaviy neyron tarmoqlar kodlovchi-dekoder deb ataladigan konsepsiyadan foydalanadi. Ya'ni, ma'lumotlarni yaratishda biz bu ma'lumotlarning qanday turi bo'lishini bilmaymiz, lekin biz uning tuzilishini bilamiz. Kodlovchi kirish ma'lumotlaridan ma'lum bir tuzilmani (xususiyatlarni) qaytaradi, bu dekoder tomonidan dastlabki ma'lumotlarga qaytarilishi mumkin. Bu usul ovoz yaratishda keng qo'llaniladi. Chunki ayrim leksema va ular orasidagi munosabatni bilamiz. Ovoz hosil qilishda esa tovush silliq va birlashtirilgan bo'lishi kerak. Spektrogramma generatori ushbu tokenlar bilan ulanishlarni yaratishga imkon beradi va keyin spektrogrammani tovushga aylantirish spektrogrammadan silliq va uzluksiz tovush hosil qiladi[11]. Kirish o'rgatish ma'lumotlari turli hajm, shovqin va boshqa buzilishlarga ega bo'lganligi sababli, hosil bo'lgan ovoqli signalda buzilishlar mavjud. Signalni yumshatish bloki bu shovqinni bartaraf qiladi va ovozni odamlar uchun yanada yoqimli va eshitiladigan qiladi. Keyin olingan ovoz tinglash uchun veb-platformaga o'tkaziladi.

Natijalar. Tashqi ko'rinishni rivojlantirish. Veb-saytni loyihalashda siz ushbu veb-saytdan foydalanish qulayligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillarni hisobga olishingiz kerak. Joriy vazifani bajarish uchun masofadan turib har qanday



o'quvchiga kiritilgan yoki o'zgartirilgan matnni o'qish imkonini beradigan matn kiritish va ko'rsatish maydoni bo'lishi kerak. Til tanlash ham zarur; odamlar turli tillarda muloqot qilishlari mumkin; Bundan tashqari, sahifa ikkita tugmani o'z ichiga oladi: matnni ovozga tarjima qilish va ovozni matnga aylantirish uchun. Olingan audioyozuvni tinglash uchun audio pleer ham mavjud.



VIDEO MA'LUMOTLARDAGI OBYEKT LARNI AVTOMATIK TANIB OLISH ALGORITMLARI

Abdukadirov Baxtiyor Abduvaxitovich,

Dasturiy injiniring kafedrası dotsenti

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: bakxtiyor.uz@bk.ru

Muxtorov Asadbek Abdurasul o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

Farg'ona filiali Dasturiy

Injenering kafedrası magistranti,

Email: asadbekmuxtorov2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada video tasvirlaridan obyektlarni avtomatik aniqlash va tasniflashga oid ilg'or algoritmlar tahlil qilingan. Sun'iy intellekt va chuqur o'qitish texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ushbu jarayonning aniqlik va samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Tadqiqotda YOLO, Faster R-CNN va SSD kabi zamonaviy algoritmlar batafsil ko'rib chiqilib, ularning ishlash tamoyillari, dasturiy ta'minot muhiti hamda turli sohalaridagi amaliy qo'llanilishi tahlil etilgan. Maqola obyektlarni avtomatik aniqlash sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni chuqur o'qitish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Obyekt aniqlash, YOLO, Faster R-CNN, SSD, sun'iy intellekt, chuqur o'rganish, video tahlili

Kirish. Video tasvirlarida obyektlarni avtomatik aniqlash turli sohalarida, jumladan, kuzatuv tizimlari, avtonom transport vositalari, tibbiy diagnostika va sanoat avtomatlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Rejalashtirilgan real vaqt rejimida va yuqori aniqlikdagi aniqlash talablari ushbu yo'nalishda chuqur o'qitishga asoslangan algoritmlarning tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ilgari ishlatilgan usullar asosan qo'lda belgilangan xususiyatlarga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda konvolyutsion neyron tarmoqlari ushbu jarayonda inqilob qildi. Ushbu maqolada video oqimidan obyektlarni aniqlashning turli xil modellari ko'rib chiqilib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliy qo'llanilishiga urg'u berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Maqolada uchta asosiy obyekt aniqlash algoritmlarini tahlil qilinadi: YOLO (You Only Look Once), Faster R-CNN (Region-based Convolutional Neural Network) va SSD (Single Shot MultiBox Detector). Bu

modellarning arxitekturasini, hisoblash samaradorligi va aniqlik darajasi bo'yicha solishtirish amalga oshiriladi.

YOLO modeli ilk bor 2015 yilda Jozef Redmon va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model chuqur o'qitish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dastlabki bir bosqichli obyektning aniqlovchi detektorlardan biri hisoblanadi. YOLO yuqori tezlikda ishlaydi: uning yengil versiyasi VOC07 bo'lib u ma'lumotlar bazasida 52,7% aniqlik bilan 155 kadr/s tezlikda ishlaydi, takomillashtirilgan varianti esa 63,4% aniqlik bilan 45 kadr/s tezlikka erishgan. YOLO an'anaviy ikki bosqichli detektorlar tamoyilidan farqli ravishda, obyektlarni aniqlash uchun to'liq tasvirni bitta neyron tarmoq orqali tahlil qiladi. Bu model tasvirni bir nechta hududlarga ajratib, har bir segment uchun chegara qutilari va ehtimolliklarni birdaniga bashorat qiladi.


YOLO tezlik jihatidan sezilarli ustunlikka ega bo'lsada, ba'zi kichik obyektlarni aniqlashda ikki



bosqichli detektorlar bilan solishtirganda lokallashtirishdagi aniqligi biroz pastroq bo'lishi mumkin. Keyinchalik ishlab chiqilgan YOLO versiyalari va SSD modeli ushbu muammolarni bartaraf etishga ko'proq e'tibor qaratgan. Eng so'nggi taklif etilgan YOLOv7 modeli esa, dinamik belgilarni belgilash va model arxitekturasini qayta parametrlash kabi optimallashtirish usullarini joriy etish orqali tezlik va aniqlik jihatidan 5 dan 160 kadr/s gacha ishlash imkoniyatini ta'minlab, ko'plab obyekt detektorlaridan yuqori natijalarni qayd etmoqda [1].

YOLO modeli va uning keyingi versiyalari paydo bo'lishi bilan, obyektlarni aniqlashni bir bosqichda hal qilishga qaratilgan yondashuvlar katta e'tirofga sazovor bo'ldi. Ushbu yondashuvda lokalizatsiya muammosi chuqur neyron tarmoqlari yordamida regressiya masalasi sifatida ko'rib chiqiladi. YOLO obyektlarni aniqlash uchun Single Shot Detector (SSD) mohiyatidan foydalangan dastlabki algoritm hisoblanmaydi. So'nggi yillarda bir bosqichli obyekttni aniqlashga asoslangan turli algoritmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga Single Shot Detector (SSD), Deconvolution Single Shot Detector (DSSD), RetinaNet, M2Det, RefineDet++ kabi modellarni keltirish mumkin. Ikki bosqichli detektorlar murakkab va kuchli bo'lgani uchun odatda bir bosqichli detektorlardan yaxshiroq natija ko'rsatadi. Biroq, YOLO modeli nafaqat ikki bosqichli detektorlarga, balki oldingi bir bosqichli detektorlarga ham aniqlik va ishlash tezligi bo'yicha samarali raqobatni ko'rsatmoqda.

Ushbu model arxitekturasining soddaligi, hisoblash murakkabligining pastligi va oson implementatsiya qilinishi tufayli sanoatda keng qo'llaniladigan variantlardan biri hisoblanadi. 1-rasmda bir bosqichli obyekt detektorlarining umumiy sxematik tuzilishini aks ettirilib, u barcha hududlarni bir vaqtda tahlil qilish orqali obyektlarning chegaraviy qutilari va sinf ehtimolliklarini aniqlash jarayonini ko'rsatadi.



1-rasm. Bir bosqichli obyekt detektorlarining umumiy arxitekturasining sxematik ko'rinishi

Konvolyutsiya (inglizcha: Convolution) – bu tasvirga ishlov berish va sun'iy neyron tarmoqlarida qo'llaniladigan matematik operatsiyadir. Konvolyutsiya neyron tarmoqlarida (CNN – Convolutional Neural Networks) obyektlarni aniqlash, tasniflash va segmentatsiya qilishda asosiy rol o'ynaydi. Bu operatsiya tasvirning kichik hududlarini o'zaro taqqoslab, muhim belgilarni ajratib olishga yordam beradi. Masalan, chetlarni aniqlash, shakllarni tanib olish va har xil shablonlarni ajratish uchun ishlatiladi.

O'rganilayotgan soha qatlami (Region of Interest Pooling) – bu obyekttni aniqlashda ishlatiladigan maxsus neyron tarmoq qatlamidir. Uning vazifasi shundan iboratki, kiruvchi tasvirda turli hajmdagi o'rganilayotgan sohalarini (Region of Interest – RoI) standart o'lchamga keltirib, neyron tarmoqqa uzatadi. Bu jarayon neyron tarmoqning keyingi bosqichlarida aniqlikni oshirish va hisoblash jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Ko'pincha obyekttni aniqlash va tasniflash jarayonlarida ishlatiladi.

a) Bounding Box (chegaralovchi chiziqlar) koordinatalarini hisoblash:

Model tasvirni bir nechta kataklar (grid) ga bo'lib, har bir gridga bir nechta bounding boxni va ularning ishonchlilik qiymatini hisoblaydi:

$$y^{\wedge} = (p_c, x, y, w, h, c_1, c_2, \dots, c_N)$$

Bu yerda:

- p_c — obyekt borligini bildiruvchi ishonchlilik darajasi
- (x, y) — bounding box markaz koordinatalari



- (w, h) — bounding boxning kengligi va balandligi
- $C_1, C_2, \dots, C_N$ — obyekt sinfiga tegishli ehtimollar

b) YOLO xatolik (loss) funksiyasini topish usuli:

YOLO modelida xatolik funksiyasini topish uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Koordinata xatoligi (Localization Loss)

$$\lambda_{coord} \sum_{i=0}^{S^2} \sum_{j=0}^B 1_{ij}^{obj} \left[(x_i - \hat{x}_i)^2 + (y_i - \hat{y}_i)^2 + (w_i - \hat{w}_i)^2 \right]$$

2. Tasniflash xatoligi (Classification Loss)

$$\sum_{i=0}^{S^2} 1_i^{obj} \sum_{c \in \text{classes}} (p_i(c) - \hat{p}_i(c))^2$$


Umumiy xatolik funksiyasi:

$$L = \lambda_{coord} L_{loc} + L_{class}$$

Faster R-CNN. Hozirgi zamonaviy ilg'or modellarining aksariyati Faster R-CNN neyron tarmoq modeli asosida shakllangan. Faster R-CNN, bu tasvirdagi obyektlarni aniqlab, ularning atrofida chegaralovchi chiziqlar (bounding boxes) chizadigan va ularni tasniflaydigan obyekt aniqlash modelidir. U ikki bosqichli detektor hisoblanadi:

1-bosqich: Tasvir ichida obyekt bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni taklif qiladi. Buni Region Proposal Network (RPN) bajaradi.

2-bosqich: Taklif qilingan hududlar asosida obyektning sinfini aniqlaydi va chegaralovchi chiziqni yanada aniqroq joylashtiradi.



2-rasm. Faster R-CNN modelining arxitekturasini

1-bosqich: Sohoni taklif qilish tarmog'i (Region Proposal Network, RPN)

Birinchi bosqichda rasm dastlab konvolyutsion neyron tarmoq (masalan, ResNet yoki VGG16) orqali o'tkaziladi. Ushbu jarayonda tasvirdagi muhim belgilar ajratib olinadi va ular asosida belgilar xaritasi (Feature Map) hosil qilinadi. Belgilar xaritasining turli nuqtalariga oldindan belgilangan turli o'lcham va shakldagi tayanch qutilar (Anchors) joylashtiriladi. Har bir tayanch quti tasvir ichidagi obyekt bo'lish ehtimoli bor joylarni ifodalaydi.

Shundan so'ng, hudud taklif qilish tarmog'i (RPN) ushbu tayanch qutilarning obyekt joylashgan yoki bo'sh hudud ekanligini taxmin qiladi. Bunda, obyektga mos keluvchi tayanch qutilar ijobiy (old fon) tayanchlar, obyekt joylashmagan hududlar esa salbiy (fon) tayanchlar sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, RPN tayanch qutilarning haqiqiy obyekt bilan mos kelishi uchun ularning koordinatalarini biroz siljitib, aniqlashtirish jarayonini ham amalga oshiradi.

Ushbu bosqichda ikkita asosiy xatolik funksiyasi ishlatiladi. Tasniflash xatolik modelga tayanch qutining obyektning o'z ichiga olgan yoki olmaganligini aniqlashga yordam beradi. Regressiya xatoligi esa tayanch qutilarning haqiqiy obyekt chegaralariga aniq mos kelishi uchun ularning joylashuvini sozlashga xizmat qiladi.



2-bosqich: Obyektni tasniflash va qutini aniqlashtirish.

Birinchi bosqichdan so'ng, RPN tomonidan aniqlangan soha takliflari (obyekt bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan qutilar) olinadi. Lekin, bu qutilarning o'lchamlari turlicha bo'lishi mumkin, neyron tarmoq esa doimiy o'lchamdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi. Shu sababli, ROI pooling (Region of Interest Pooling) usuli qo'llaniladi. Ushbu usul soha takliflarini belgilangan o'lchamga moslashtirib, kichik qismlarga bo'lish va pooling texnikasi yordamida ularning hajmini bir xil qiladi.

Shundan so'ng, har bir hudud kichik neyron tarmoqdan o'tkazilib, uning ichidagi obyekt turi aniqlanadi. Masalan, obyekt mashina, it, inson yoki boshqa sinfda bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonda obyektlarni sinflarga ajratish uchun kross-entropiya xatoligi ishlatiladi.

Bundan tashqari, ushbu bosqichda obyekt joylashuvi yanada aniqroq bo'lishi uchun qutilar yana bir bor sozlanadi. Bu jarayonda regressiya xatoligi qo'llanib, obyektlarning aniq koordinatalari aniqlanadi.

Ushbu bosqich ko'p vazifali o'qitish tamoyiliga asoslangan bo'lib, neyron tarmoq obyektlarni tasniflash va ularning qutilarini aniq sozlash jarayonlarini birgalikda o'qitadi. Shu tariqa, model tasvir ichidagi obyektlarni to'g'ri aniqlabgina qolmay, ularning chegaralarini ham aniq belgilaydi [2].

a) Region Proposal Network (RPN) Loss

$$L_{RPN} = L_{cls} + \lambda L_{reg}$$

- Tasniflashdagi xatolik funksiyasi (Classification Loss)

$$L_{cls} = -\sum_i \left[p_i \log(\hat{p}_i) + (1 - p_i) \log(1 - \hat{p}_i) \right]$$

- Regressiya xatolik funksiyasi (Regression Loss)

$$L_{reg} = \sum_i p_i \sum_{j \in \{x, y, w, h\}} smooth_{L1}(t_i - \hat{t}_i)$$

Smooth L1 loss:

$$smooth_{L1}(x) = \begin{cases} 0.5x^2, & \text{agar } |x| < 1 \\ |x| - 0.5, & \text{aks holda} \end{cases}$$

b) Faster R-CNN umumiy xatolik funksiyasi

$$L = L_{RPN} + L_{FastRCNN}$$

SSD (Single Shot MultiBox Detector), bu obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladigan tezkor va samarali neyron tarmoq arxitekturasidir bo'lib, u bir vaqtning o'zida bir nechta obyektlarni aniqlash va ularni tasniflash imkoniyatiga ega. SSD ning asosiy afzalligi shundaki, u faqat bitta neyron tarmoq orqali obyektlarni aniqlaydi, bu esa uning tezligini oshiradi.


SSD bir nechta obyektlarni bir marta neyron tarmoqdan o'tkazib, aniqlaydi va bu usul boshqa usullarga, masalan, R-CNN ga qaraganda tezroq ishlaydi. U turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun turli qatlamlardan foydalanadi, bu esa kichik va katta obyektlarni aniqlashda yaxshi natijalar beradi. SSD har bir piksel uchun bir nechta "anchor box" (standart qutilar) yaratadi va bu qutilar obyektlarning shakli hamda o'lchamini taxmin qilishda yordam beradi. SSD asosan VGG16 kabi CNN arxitekturasida asosida qurilgan bo'lib, uning ishlash jarayoni quyidagicha: avval asosiy neyron tarmoq (Backbone Network) yordamida kiruvchi tasvirning belgilari ajratiladi, so'ng qo'shimcha konvolyutsiya qatlamlari orqali turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun belgilar olinadi.

Multi-scale feature maps (turli qatlamlardan olingan belgilar xaritalari) yordamida kichik va katta obyektlarni aniqlash samarali amalga oshiriladi. Pastki qatamlar katta obyektlarni, yuqori qatamlar esa kichik obyektlarni aniqlashda yordam beradi. Har bir belgi xaritasida SSD anchor boxlar yordamida obyektlarni lokalizatsiya qiladi va ularni tasniflaydi. Har bir anchor box uchun obyektning klassini aniqlaydi va bounding box regressiyasini bajaradi. SSD ning ishlash jarayoni quyidagicha: tasvir neyron tarmoqqa kiritiladi, so'ng belgilar CNN orqali turli qatlamlarda ajratiladi, so'ngra anchor boxlar yordamida obyektlarni aniqlash va tasniflash amalga oshiriladi. Nihoyat, aniqlangan obyektlarning bounding boxlari va sinflari chiqariladi. SSD ning asosiy afzalliklari orasida uning tezkorligi,



turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlashda aniqligi va oddiyligi keltirish mumkin.

Biroq, uning ba'zi kamchiliklari ham bor, jumladan, ba'zan kichik obyektlarni aniqlashda muammolar yuzaga kelishi va anchor boxlarni to'g'ri sozlash jarayoni murakkab bo'lishi mumkin. SSD real vaqtda obyektlarni aniqlash uchun keng qo'llaniladi, masalan, avtonom transport vositalari, xavfsizlik tizimlari va boshqa kompyuterning ko'rish vazifalarida.



3-rasm. SSD modeli arxitekturasini

Rasmda keltirilgan so'zlar izohi quyidagicha:

SSD – obyektlarni aniqlash tarmog'i;

300x300 Image – kirish tasviri o'lchami;

VGG-16 through Conv5_3 layer – VGG-16 neyron tarmog'ining Conv5_3 qatlamigacha bo'lgan qismi asosiy belgilarni ajratish uchun ishlatiladi;

Conv3_3 – konvolyutsion qatlam (38x38 o'lchamdagi xarita, 512 kanalli);

Conv6 (FC6) – kengaytirilgan konvolyutsiya qatlami (19x19 o'lcham, 1024 kanalli);

Conv7 (FC7) – qo'shimcha konvolyutsiya qatlami (19x19 o'lcham, 1024 kanalli);

Conv8_2 – konvolyutsion qatlam (10x10 o'lcham, 512 kanalli);

Conv9_2 – konvolyutsion qatlam (5x5 o'lcham, 256 kanalli);

Conv10_2 – konvolyutsion qatlam (3x3 o'lcham, 256 kanalli);

Conv11_2 – konvolyutsion qatlam (1x1 o'lcham, 256 kanalli);

Classifier: conv 3x3x(4x(Classes+4)) – klassifikatsiya qatlami, har bir anchor box uchun sinf va bounding box koordinatalarini hisoblaydi;

Extra Feature Layers – qo'shimcha belgilar qatlamlari, turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladi;

Detections: 8732 per Class – har bir sinf uchun 8732 ta aniqlangan obyekt;

Non-Maximum Suppression – bir-biriga o'xshash bounding boxlarni o'chirish algoritmi.

a) Tasniflashdagi xatolik funksiyasi (Classification Loss) ni aniqlash:

$$L_{conf} = - \sum_{i \in Pos} \log(\hat{p}_i) - \sum_{i \in Neg} \log(1 - \hat{p}_i)$$

b) Regressiya xatolik funksiyasi (Localization Loss)


$$L_{loc} = \sum_{i \in Pos} \sum_{j \in \{x, y, w, h\}} smooth_{L1}(t_i - \hat{t}_i)$$

c) Umumiy SSD xatolik funksiyasi

$$L = L_{conf} + \alpha L_{loc}$$

Bu yerda α – regressiya va tasniflash xatoliklarini muvozanatlashtirish uchun ishlatiladigan giperparametr.

Natijalar. Quyida (4-rasm) asosiy obyektzni aniqlash usullarining (R-CNN, Fast R-CNN, Faster R-CNN, YOLO va SSD300) tezlik va aniqlik bo'yicha tarqalish diagrammasi keltirilgan. Taqqoslash adolatli bo'lishi uchun barcha modellar bir xil sharoitda sinovdan o'tkazilgan (asosiy tarmoq sifatida VGG16 ishlatilgan, batch hajmi 1 va Pascal VOC2007 test to'plamida sinovdan o'tkazilgan). Shuni ta'kidlash joizki, YOLO va SSD300 yagona bosqichli (single-shot) detektorlar bo'lsa, qolganlari region taklifi asosida ishlovchi ikki bosqichli (two-stage) modellar hisoblanadi.



4-rasm. SSD va Faster R-CNN va YOLO ishlashini taqqoslash.



Yuqoridagi grafikdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

SSD300 modeli eng yuqori tezlik va aniqlik qiymatiga ega. U 74% mAP aniqlik bilan 46 fps tezlikda ishlaydi, bu esa uni real vaqtda ishlash uchun eng mos variantga aylantiradi. Faster R-CNN modeli aniqlik bo'yicha yaxshi natija ko'rsatsa ham, u SSD300 ga qaraganda 6.6 marta sekinroq natijani bergan.

Ikki bosqichli (two-stage) modellar, jumladan, R-CNN, Fast R-CNN va Faster R-CNN, aniqlikni oshirishga harakat qilgan, lekin ularning tezligi sezilarli darajada past. Masalan, R-CNN atigi 0.02 fps, Fast R-CNN esa 0.4 fps tezlikka ega bo'lib, real vaqt uchun mos emas. Faster R-CNN tezlikni 7 fps gacha oshirgan bo'lsa ham, SSD300 bilan taqqoslaganda ancha sekin.

YOLO modeli esa 21 fps tezlikka ega bo'lib, Faster R-CNN va Fast R-CNN ga nisbatan ancha tez ishlaydi. Biroq uning 66% mAP aniqligi SSD300 yoki Faster R-CNN'dan pastroq.

Umuman olganda, tezkor va aniq model tanlashda SSD300 eng yaxshi variant bo'lib ko'rinmoqda. Agar aniqlik muhim bo'lsa, Faster R-CNN tanlanishi mumkin, lekin u ancha sekin ishlaydi. YOLO esa tez ishlov berish talab qilinadigan, ammo maksimal aniqlik shart bo'lmagan holatlarda yaxshi tanlov bo'lishi mumkin [3].

Xulosa. Maqolada uchta asosiy obyektning aniqlashning neyron tarmoq modeli – YOLO, Faster R-CNN va SSD – tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchilik tomonlari o'rganildi. YOLO modeli bir bosqichli yondashuvga asoslangan bo'lib, tezkor va samarali hisoblanadi. Faster R-CNN esa ikki bosqichli detektor bo'lib, aniqroq natijalar taqdim etadi. SSD modeli esa ushbu ikkala yondashuvning afzalliklarini o'zida mujassamlashtirib, balansli yechimni ta'minlaydi.

Barcha modellar konvolyutsiya va RoI Pooling kabi muhim texnologiyalarga asoslanib, obyektlarni aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, real vaqt rejimidagi dasturlar uchun YOLO ustunlik qilsa, aniq obyektning lokalizatsiyasi talab etiladigan

vaziyatlarda Faster R-CNN yanada samarali hisoblanadi. Shunday qilib, obyektlarni aniqlash algoritmlarini tanlashda, qo'llaniladigan soha va talab qilinadigan xususiyatlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peiyuan Jiang, Daji Ergu, Fangyao Liu, Ying Cai, Bo Ma: A Review of Yolo Algorithm Developments. *Procedia Computer Science* Volume 199, 2022, Pp:1066-1073.
2. Rishabh Singh: Understanding and Implementing Faster R-CNN. *Medium*, October 15, 2024.
3. Wei Liu, Dragomir Anguelov, Dumitru Erhan, Christian Szegedy, Scott Reed, Cheng-Yang Fu, Alexander C. Berg, "SSD: Single Shot MultiBox Detector". Google Inc., University of Michigan.
4. Nosirov K., Norinov M., Abdulkadirov B. Image filtering algorithm based on the analysis of the main components // *International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)*. – 2019. Pp. 1-3.
5. Norinov M., Abdulkadirov B., Gofurov M. Application of Fourier Methods and Discrete-Cosinus Transformation in the Process of Processing of TV Images // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*. – 2019. – Vol. 8, Issue 9S3. – Pp. 1565-1568.
6. Niyozmatova N., Mamatov N., Samijonov A., Abdulkadirov B., Abdullayeva B. Algorithm for determining the coefficients of the interpolation polynomial of Newton with separated differences // *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*. – 2020. – Vol. 862, Issue 042019. – Pp. 1-4.



KLINIKALARNI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARI: UMUMIY KO'RINISH VA TURLARI

Zulunov Ravshanbek Mamatovich,

dotsent, f.-m.f.n,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali

Sattarov Maxammadjon Fozil o'g'li,

2-bosqich magistranti
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada klinikalarni avtomatlashtirish tizimlarining umumiy ko'rinishi va asosiy turlari ko'rib chiqiladi. Tibbiy sohada avtomatlashtirishning dolzarbligi sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish, jarayonlarni soddalashtirish va vaqtni tejashda namoyon bo'ladi. Maqolada Elektron Tibbiy Ma'lumotnoma Tizimlari (EMR), bemorlarni ro'yxatga olish va navbatlarni boshqarish tizimlari, laboratoriya axborot tizimlari (LIMS), farmatsevtika menejmenti va moliyaviy boshqaruv tizimlari kabi asosiy tizimlar tahlil qilinadi. Ushbu tizimlarning har biri klinika ishlarini optimallashtirishda va bemorlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini yaxshilashda alohida ahamiyatga ega. Maqolada avtomatlashtirishning klinikalarga keltiradigan asosiy afzalliklari, jumladan xatolarni kamaytirish, ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash va samaradorlikni oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash, EHR tizimlari, Muvofiqlik, Normativ talablar, sun'iy intellekt, RIS (radiologik axborot tizimlari).

Kirish. Avtomatlashtirilgan klinika tizimlari sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini soddalashtirish, bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash va klinik jarayonlarning umumiy samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan bir qator texnologiyalarni anglatadi. Ushbu tizimlar bemorni ro'yxatga olishdan diagnostika va davolashgacha bo'lgan turli ma'muriy va klinik vazifalarni avtomatlashtirish uchun ilg'or dasturiy va apparat yechimlaridan foydalanadi. Avtomatlashtirilgan klinika tizimlari bemor tajribasini va sog'liqni saqlash sharoitida operatsion ish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan keng ko'lamli funktsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizimlar tibbiy yordam ko'rsatishni modernizatsiya qilish, qo'lda xatolarni kamaytirish va aniqroq va o'z vaqtida aralashuvni ta'minlash uchun ajralmas hisoblanadi. Operatsion samaradorlikni oshirish. Tibbiyot xodimlarini muhimroq ishlarga bo'shatish uchun muntazam vazifalarni avtomatlashtirish. Bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash Bemorlarga o'z vaqtida va to'g'ri tashxis

qo'yish va davolanishni ta'minlash. Xarajatlarni kamaytirish Ma'muriy qo'shimcha xarajatlarni minimallashtirish va qimmatga tushadigan xatolarni kamaytirish. Ma'lumotlarning aniqligini oshirish Bemor yozuvlari va boshqa muhim ma'lumotlarning aniqligi va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish. Muvofiqlik Normativ talablar va standartlarga rioya qilishga yordam berish. Avtomatlashtirilgan klinika tizimlari sog'liqni saqlash muhitida xizmat qiladigan o'ziga xos funktsiyalari asosida tasniflanishi mumkin.

Usullar. Bu yerda birlamchi turlari haqida ma'lumot keltirilgan:

EHR tizimlari bemorlarning qog'oz jadvallarining raqamli versiyalari. Ular ma'lumotni vakolatli foydalanuvchilarga bir zumda va xavfsiz tarzda taqdim etadigan real vaqt rejimida, bemorga yo'naltirilgan yozuvlarni taqdim etadi. Funktsiyalar Bemor ma'lumotlarini saqlash, tarixni kuzatish, dori-darmonlarni qayd etish va boshqa sog'liqni saqlash AT tizimlari bilan integratsiya. Afzalliklar Ma'lumotlarning aniqligi yaxshilandi, bemorlarga



yordam ko'rsatish yaxshilandi, ma'lumotlar almashinuvi yaxshilandi va tartibga muvofiqlik. Tavsif PMS tibbiy amaliyotning kundalik operatsiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan. Bunga uchrashuvlarni rejalashtirish, hisob-kitoblar va boshqa ma'muriy vazifalar kiradi. Vazifalar Uchrashuvni bron qilish, bemorni ro'yxatga olish, hisob-kitob va da'volarni boshqarish va moliyaviy hisobot. Imtiyozlar Ma'muriy jarayonlarni soddalashtirdi, hujjatlarni rasmiylashtirishni qisqartirdi, hisob-kitoblarning aniqligini oshirdi va moliyaviy boshqaruvni yaxshiladi.

Sog'liqni saqlash holatini baholash indeksi:

$$HSI = \frac{T_{normal}}{T_{total}} * 100$$

Bu yerda:


- HSI – sog'liqni saqlash holati indeksi;
- T_{normal} – normal sog'liq holatidagi tashxislar soni;
- T_{total} – umumiy tashxislar soni.

Ushbu tizimlar bemorlarning uchrashuvlarini rejalashtirish va tibbiyot xodimlari uchun kalendarlarni boshqarish jarayonini avtomatlashtiradi. Funktsiyalar Onlayn uchrashuvlarni bron qilish, eslatmalar va bildirishnomalar, resurslarni taqsimlash va nizolarni boshqarish. Imtiyozlar Ko'rsatilmaganlar sonining kamayishi, resurslardan optimallashtirilgan foydalanish, bemorlarning qoniqlik darajasini oshirish va vaqtni samarali boshqarish. Tavsif CDSS sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislarga bemorga tegishli bilim va ma'lumotlarni taqdim etadi, ular oqilona filtrlanadi va bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash uchun tegishli vaqtda taqdim etiladi. Funktsiyalar Ogohlantirishlar va eslatmalar, diagnostika yordami, davolash bo'yicha tavsiyalar va klinik ko'rsatmalarga rioya qilishdir.



1-rasm. EHR tizimi.

Uning afzalliklari sifatida tashxisning aniqligi, xatolarning kamayishi va bemorning natijalari yaxshilanganligini aytish mumkin. Ushbu tizimlar bemorlar va sug'urta kompaniyalari hisob-kitoblarini, shuningdek, tibbiy tashxis va protseduralarni kodlash jarayonini avtomatlashtiradi. Funktsiyalar da'volarni qayta ishlash, to'lovlarni kuzatish, kodlash muvofiqligi va moliyaviy hisobotlarni aytish mumkin. Imtiyozlar - Hisob-kitob xatolarining kamayishi, da'volarni tezroq ko'rib chiqish, daromad siklini boshqarishni yaxshilash va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishlardir. LIMS laboratoriya operatsiyalari va ish oqimlarini, namunalarni kuzatishdan hisobot natijalariga qadar boshqaradi. Shuningdek, Namunalarni kuzatish, ma'lumotlarni kiritish, sifat nazorati va hisobot berishlar ham mavjud. Natijada laboratoriya samaradorligi yaxshilandi, ma'lumotlarni aniq boshqarish, sifat nazorati yaxshilandi va me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik yaxshilandi. Tavsif RIS radiologik tasvirni va tegishli ma'lumotlarni boshqarish uchun ishlatiladi. Rasmni arxivlash, hisobot yaratish, rejalashtirish va bemorni kuzatishda Tasvirlash ish jarayonlarini soddalashtirdi, tasvirni boshqarishni takomillashtirish, boshqa tizimlar bilan yaxshiroq integratsiyalash va bemorlarni parvarish qilish yaxshilandi. Ushbu tizimlar telekommunikatsiya texnologiyalari orqali bemorlarni masofaviy maslahat va monitoring qilish imkonini beradi. Video konsultatsiyalar, bemorni masofadan kuzatish, raqamli diagnostika va telefon orqali triaj ishida Xizmatdan keng foydalanish, bemorlar uchun qulaylik, sayohat va kutish vaqtlarini qisqartirish va doimiy monitoringlar mavjud.



2-rasm. Infrastruktura boshqaruv xizmatlari.



Samaradorlik va mahsuldorlik: Muntazam vazifalarni avtomatlashtirish tezroq bajarilishiga va kamroq xatolarga olib keladi va xodimlarni muhimroq vazifalar uchun bo'shatadi. Yaxshilangan bemorlarni parvarishlash Ma'lumotlarni boshqarish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash bilan klinitsyenlar aniqroq va o'z vaqtida yordam ko'rsatishlari mumkin. Harajatlarni tejashda ma'muriy yuklarni kamaytirish va xatolarni imkon qadar minimallashtirish operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Tegishli ma'lumotlarni boshqarishda kengaytirilgan ma'lumotlar aniqligi va bemor ma'lumotlariga oson kirish hamda klinik qarorlar qabul qilish va bemor natijalarini yaxshilaydi. Normativ hujjatlarga muvofiqlik Avtomatlashtirilgan tizimlar sog'liqni saqlash qoidalari va standartlariga rioya qilishni ta'minlashga yordam beradi, rioya qilmaslik uchun jarimalar xavfini kamaytiradi. Yuqori boshlang'ich xarajatlar Avtomatlashtirilgan tizimlarni o'rnatish va integratsiya qilish qimmat bo'lishi mumkin, bu esa kichikroq klinikalar uchun to'siq bo'lishi mumkin. Ta'limga qo'yiladigan talablar Xodimlar yangi tizimlardan samarali foydalanish uchun yetarli darajada o'qitilishi kerak, bu vaqt va resurslarni talab qiladi. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bo'yicha esa bemorga tegishli nozik ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash eng e'tiborli jihati bo'lib, ishonchli kiberxavfsizlik choralarini talab qiladi. Shuningdek mavjud tizimlar bilan integratsiya bo'lishi ham mumkin.

Navbatda kutish vaqti:

$$W = \frac{N * T_{avg}}{S}$$

Bu yerda:

- W – o'rtacha kutish vaqti;
- N – navbatdagi bemorlar soni;
- T_{avg} – bitta bemor qabul qilishga ketadigan o'rtacha vaqt;
- S – xizmat ko'rsatayotgan shifokorlar soni.

Navbat uzunligi:

$$L = \frac{\lambda}{\mu - \lambda}$$

Bu yerda:

- L – navbat uzunligi;

- λ – bemorlarning kelish tezligi;
- μ – shifokor xizmat ko'rsatish tezligi.

Mavjud IT tizimi bilan uyg'unlik va integratsiya amalga oshirish qiyin bo'lishi mumkin va katta o'zgartirishlarni talab qilishi ehtimoli bor. Sun'iy intellekt va mashinani o'rgatish texnologiyalaridan foydalanish, diagnostika aniqroq bo'lishi va prognozlash tahlilini yanada yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Tizimlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, turli platformalar orasidagi ma'lumot almashish va foydalanishni ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bemorga yo'naltirilgan parvarish tizimlari, yaxshiroq ma'lumotlarni tushunish va aloqaning samarali vositalari orqali bemorlarning ishtirokini oshirish va individual yondashuvni yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan. Blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan va o'zgarimas yozuvlar yordamida bemor ma'lumotlarini himoya qilish va ma'lumotlar yaxlitligini saqlashda katta salohiyatga ega.



3-rasm. Mijozni boshqarish tizimi.

Avtomatlashtirilgan klinik tizimlar sog'liqni saqlash sohasida samaradorlik, aniqlik va bemorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash orqali inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda. Ularni joriy etishda ba'zi qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da, bu tizimlarning afzalliklari mavjud to'siqlardan ancha ustun bo'lib, yanada soddalashtirilgan va samarali sog'liqni saqlash tizimini yaratish imkonini beradi. Texnologiyaning



rivojlanishi davom etar ekan, avtomatlashtirilgan klinik tizimlarning kelajagi juda istiqbolli ko'rinadi va joriy bo'layotgan o'zgarishlar sog'liqni saqlash sohasida va bemorlarning natijalarini yanada yaxshilashga olib keladi. Avtomatlashtirilgan klinik tizimlar zamonaviy sog'liqni saqlash infratuzilmasining asosini tashkil etib, operatsiyalarni soddalashtirish, bemorlar uchun xizmatlarni yaxshilash va umumiy samaradorlikni oshirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llaydi.

Reagentlarning yetishmovchilik darajasi:

$$R_{deficit} = \frac{R_{used} - R_{available}}{R_{used}} * 100$$

Bu yerda:

- $R_{deficit}$ – reagent yetishmovchilik darajasi;
- R_{used} – kerak bo'lgan reagent miqdori;
- $R_{available}$ – mavjud reagent miqdori.

Ma'muriy va klinik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ushbu tizimlar inson xatolarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu keng ko'lamli tahlil avtomatlashtirilgan klinik tizimlarning turli shakllari, ularning afzalliklari, duch kelinadigan muammolar va kelajakdagi rivojlanish tendentsiyalarini o'rganadi.



4-rasm. OVID texnologiyalari.

Natijalar. Avtomatlashtirilgan klinika tizimlari sog'liqni saqlash muassasalarida ham operatsiya samaradorligini, ham bemorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizimlar bemorlar, tibbiyot xodimlari va ma'muriy xodimlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli

funktsiyalarni birlashtiradi. Operatsion samaradorlikni oshirish Tibbiyot xodimlariga bemorlarni parvarish qilishga e'tibor qaratish imkonini berish uchun takrorlanuvchi va ko'p vaqt talab qiluvchi vazifalarni avtomatlashtirishlardir. Bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash Yaxshiroq tashxis qo'yish va davolash uchun tibbiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga o'z vaqtida va aniq ma'lumot berish. Xarajatlarni kamaytirish Ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va xatolarning moliyaviy ta'sirini minimallashtirishdan iborat.

Ma'lumotlarning aniqligini oshirishda yuqori sifatli ma'lumotlarni boshqarish va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashlarni hisobga olish zarur.

Elektron sog'liqni saqlash yozuvlari (EHR) tizimlari ta'rifi: EHR tizimlari bemorlarning qog'ozga asoslangan yozuvlarini raqamli shaklda saqlaydi, ma'lumotlarni markazlashtiradi va ularni vakolatli foydalanuvchilar uchun real vaqt rejimida ochiq qiladi. Bu tizimlar shuningdek, ma'lumotlarni to'liq saqlash, bemor tarixini kuzatish, dori-darmonlarni boshqarish va boshqa sog'liqni saqlash IT tizimlari bilan integratsiyalashuvni ta'minlaydi. Ma'lumotlarning aniqligi oshdi, bemorlar uchun xizmat ko'rsatish yaxshilandi, ma'lumot almashish osonlashdi va sog'liqni saqlash normalariga rioya qilish ta'minlandi.

Tavsiflangan PMS (Amaliyot boshqaruvi tizimi) tibbiy amaliyotlarning kundalik jarayonlarini, shu jumladan ma'muriy va moliyaviy vazifalarni bajaradi. U uchrashuvlarni rejalashtirish, bemorlarni ro'yxatga olish, hisob-kitob va kodlash, sug'urta da'volarini boshqarish va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Ma'muriy jarayonlarni soddalashtiradi, qog'oz ishlashni kamaytiradi, hisob-kitoblar aniqligini oshiradi va moliyaviy boshqaruvni takomillashtiradi. Ushbu tizimlar bemor uchrashuvlarini rejalashtirishni va tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar kalendarlarini boshqarishni avtomatlashtiradi. Onlayn uchrashuvlarni bron qilish, avtomatik eslatmalar va bildirishnomalar, resurslarni taqsimlash va nizolarni hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Afzalliklari: Keraksiz tavsiyalarni qisqartirish, resurslardan samarali foydalanish, bemorlar



qoniqlashining oshishi va vaqtni samarali boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

CDSS sog'liqni saqlash xodimlariga bemorga xos ma'lumot va muhim daqiqalarda klinik bilimlarni beradi. Unda ogohlantirishlar va eslatmalar, diagnostik yordam, davolash bo'yicha tavsiyalar va klinik ko'rsatmalarga rioya qilishlar mavjud. Unda Diagnostikaning aniqligi, o'z vaqtida aralashuvlar, xatolarning kamayishi va bemorning natijalari yaxshilandi. Ushbu tizimlar to'g'ri va samarali moliyaviy operatsiyalarni ta'minlab, hisob-kitob va kodlash jarayonlarini avtomatlashtiradi.



5-rasm. Klinik boshqaruv dasturi afzalliklari.

Muhokama. Funktsiyalar orasida da'volarni qayta ishlash, to'lovlarni nazorat qilish, kodlash standartlariga muvofiqlikni ta'minlash va batafsil moliyaviy hisobotlarni tayyorlash kiradi. Hisob-kitobdagi xatolarni kamaytirish, da'volarni tezroq ko'rib chiqish, daromad tsiklini boshqarishning yaxshilanishi va qoidalarga rioya qilish kabi afzalliklar mavjud. LIMS (Laboratoriya axborot boshqaruvi tizimi) laboratoriya jarayonlarini boshqaradi, namunalarni to'plashdan natijalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etishga qadar bo'lishi mumkin. U namunalarni kuzatish, ma'lumotlarni kiritish, sifat nazoratini amalga oshirish va hisobotlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. LIMS tizimining afzalliklari laboratoriya samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni to'g'ri boshqarish, sifat nazoratini kuchaytirish va me'yoriy hujjatlarga muvofiqlikni ta'minlashdan iborat.

Tavsif RIS (Radiologik axborot tizimi) radiologik tasvirlarni va tegishli ma'lumotlarni boshqaradi, radiologiya bo'limlaridagi ish oqimlarini tartibga soladi. Ushbu tizim rasmni arxivlash, hisobotlar tayyorlash, rejalashtirish va bemorni kuzatishni amalga oshiradi. Samarasiz ish oqimlarini yaxshilash, takomillashtirilgan tasvir boshqaruvi, boshqa tizimlar bilan mukammal integratsiya va bemorlarni qo'llab-quvvatlashning yaxshilanishi tizimning asosiy afzalliklaridan hisoblanadi. Bu tizimlar telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab, masofaviy maslahatlar va bemorlarni kuzatishni osonlashtiradi.

Muntazam vazifalarni avtomatlashtirish tezroq bajarilishiga, kamroq xatolarga olib keladi va xodimlarga ko'proq muhim vazifalarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bemorlarga xizmat ko'rsatishning yaxshilanganligi to'g'ri ma'lumotlarni boshqarish va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari klinisyenlarga o'z vaqtida va aniq yordam ko'rsatish imkonini beradi. Xarajatlarni kamaytirishda ma'muriy yuk va xatolarni minimallashtirish operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ma'lumotlarni boshqarish Kengaytirilgan aniqlik va bemor qaydlarining mavjudligi klinik qarorlar qabul qilish va bemor natijalarini yaxshilaydi.

Normativ hujjatlarga muvofiqlik bo'yicha, avtomatlashtirilgan tizimlar sog'liqni saqlash qoidalari va standartlariga rioya qilishni ta'minlashga yordam beradi va jarimalar xavfini kamaytiradi. Yuqori boshlang'ich xarajatlarda Avtomatlashtirilgan tizimlarni o'rnatish va integratsiya qilish qimmat bo'lishi mumkin, bu esa kichikroq klinikalar uchun to'siq bo'lishi mumkin. Ta'limga qo'yiladigan talablar Xodimlar yangi tizimlardan samarali foydalanish uchun etarli darajada o'qitilishi kerak, bu vaqt va resurslarni talab qiladi. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik Bemorga tegishli nozik ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash eng muhimi bo'lib, mustahkam kiberxavfsizlik choralarini talab qiladi. Mavjud tizimlar bilan integratsiya. Mavjud IT infratuzilmasi bilan moslik va integratsiya qiyin bo'lishi mumkin va jiddiy tuzatishlarni talab qilishi mumkin. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish



Diagnostika aniqligi va bashoratli tahlilni oshirish uchun sun'iy intellektdan foydalanishni ko'paytirish. O'zaro muvofiqlik Turli tizimlarning ma'lumotlarni uzluksiz almashishi va ulardan foydalanishini ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bemorga yo'naltirilgan parvarishlash tizimlari ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va aloqa vositalari orqali bemorni jalb qilish va shaxsiylashtirilgan yordamni yaxshilash uchun mo'ljallangan.

Xulosa. Blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan va o'zgarimas yozuvlar orqali bemor ma'lumotlarini himoya qilish va ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlashda potentsial foydalanish. Avtomatlashtirilgan klinika tizimlari samaradorlik, aniqlik va bemorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash orqali tibbiy yordam ko'rsatishni o'zgartirmoqda.

Qiyinchiliklarga qaramay, ushbu tizimlarning afzalliklari salmoqli bo'lib, yanada soddalashtirilgan va samarali sog'liqni saqlash muhitiga yo'l ochadi. Texnologiyaning davom etayotgan rivojlanishi bilan avtomatlashtirilgan klinika tizimlarining kelajagi istiqbolli ko'rinadi, doimiy yaxshilanishlar sog'liqni saqlash va bemorlarning natijalarini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Zulunov, M.Sattarov. Sog'liqni saqlashni avtomatlashtirish: bemor tajribasini yaxshilash yo'li. Potomki Аль-Фаргани, 2024, 1(2), 189–195.
2. P.Зулунов. Технологии robotic process automation в медицине. Потомки Аль-Фаргани, 2024, 1(4), 197-200.
3. P.Зулунов, О.Мелибоев. Современные реалии умной медицины для студентов. Miasto Przyszłości, 2024, T-48, c. 1052-1055.
4. R Zulunov. M Mahmudova. Tibbiyot muassasalarida elektron navbat tizimi. Potomki Аль-Фаргани, 2023, 1(2), c. 53-57
5. R.Zulunov. Pythonda neyron tarmoqni qurish va bashorat qilish. Al-Farg'oniylar avlodlari, 2023, 1/4, c. 22-26.
6. R Zulunov, O Otaqulov. Ограничения обучения языку программирования JAVA в образовательных системах. Потомки Аль-Фаргани, 2023, т.1/2, c. 37-40.

7. R.Zulunov, A.Kayumov. Идентификация и сортировка текстиля для автоматизированной обработки с помощью ближней инфракрасной спектроскопии. Universum: технические науки, 3(120), март 2024, с. 38-42.
8. R.Zulunov, Z.Samatova. Bulutli texnologiyalarda kiberxavfsizlik taminlashda CASB yechimlari. Potomki Аль-Фаргани, 2024, 1(1), c. 93–98.
9. R.Zulunov, B.Soliev. Z.Ermatova. Enhancing Clarity with Techniques for Recognizing Blurred Objects in Low Quality Images Using Python. Potomki Аль-Фаргани, 2024, 1(2), 336–340.
10. VV Byts', RM Zulunov. Specification of matrix algebra problems by reduction. Journal of Mathematical Sciences. T. 71, 2719–2726 (1994).
11. Hnatienko, H., Hnatienko, V., Zulunov R., Babenko, T., Myrutenko, L. Method for Determining the Level of Criticality Elements when Ensuring the Functional Stability of the System based on Role Analysis of Elements. CEUR Workshop Proceedings, 2024, 3654, p. 301–311
12. R.Zulunov, B.Soliev, A.Kayumov, M.Asraev, Kh.Musayev, D.Abdurasulova. Detecting mobile objects with ai using edge detection and background subtraction techniques. E3S Web of Conferences, 508, 03004 (2024).
13. R.Zulunov, U.Akhundjanov, B.Soliev, A.Kayumov, M.Asraev, Kh.Musayev. Building and predicting a neural network in PYTHON. E3S Web of Conferences, 508, 04005 (2024).
14. U.Akhundjanov, R.Zulunov, A. Kayumov, X.Goipova, Z.Ermatova, M.Sobirov. Handwritten signature preprocessing for off-line recognition systems. E3S Web of conferences 587, 03019 (2024), GreenEnergy 2024.



TIBBIY TASHXISNI ANIQLASH JARAYONIDA KLASSIFIKATSIYA ALGORTIMIDAN FOYDALANISHNING TAHLILI

Sotvoldiyeva Dildora Botirjon qizi,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
Axborot texnologiyalari Universiteti Farg'ona filiali
"Axborot texnologiyalari" kafedrası assistenti
e-mail: nurdilnurik@gmail.com

Karimov Sardorbek Ilhomjon o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot
texnologiyalari Universiteti Farg'ona filiali "Axborot
texnologiyalari" kafedrası katta o'qituvchisi
e-mail: sk363688@gmail.com

Mehmonaliyev Yahyobek,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari
universiteti Farg'ona filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida sog'liqni saqlash sohasida tashxis qo'yish jarayonlari tahlil qilinadi va klassifikatsiya algoritmlarining ahamiyati, qo'llanilishi va samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqola klassifikatsiya algoritmlarining aniqlik, tezkorlik va prognoz qilish imkoniyatlari tufayli tibbiy diagnostika jarayonlaridagi muhim o'rni haqida xulosa beradi. Ushbu tahlil sog'liqni saqlash tizimiga ilg'or texnologiyalarni integratsiya qilish orqali diagnostika jarayonlarini takomillashtirish va shaxsiylashtirilgan tibbiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kalit so'zlar: Klassifikatsiya algoritmlari, tibbiy tashxis, sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish, logistik regressiya, tasodifiy o'rmon, neyron tarmoqlar, mashinali o'qitish, diagnostika texnologiyalari.

Kirish. Zamonaviy tibbiyotda tashxis qo'yish jarayoni nafaqat shifokorlarning tajribasiga, balki texnologiyalarning samarali qo'llanilishiga ham tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Bemorlarning simptomlari, tahlillar natijalari va boshqa sog'liq ma'lumotlari asosida tashxis qo'yishda shifokorlar turli xil intellektual texnologiyalardan foydalanmoqda. Ayniqsa, ushbu sohada sun'iy intellekt, xususan, klassifikatsiya algoritmlarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Klassifikatsiya algoritmlari ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni muayyan sinflarga ajratish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu algoritmlar, bemorlarning simptomlari asosida kasalliklarni aniqlash, ularni tasniflash va kelajakdagi rivojlanish ehtimolini prognoz qilish uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, ulkan hajmdagi tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashda,

bunday algoritmlar diagnostika jarayonini aniq, tezkor va ishonchli amalga oshirishda yordam beradi. Mazkur maqolada tibbiy tashxis qo'yishda qo'llaniladigan asosiy klassifikatsiya algoritmlari, ularning ishlash mexanizmlari hamda sog'liqni saqlash sohasidagi samaradorligi batafsil tahlil qilinadi. Maqsad – ushbu algoritmlar tibbiyot tizimida qanday imkoniyatlar yaratishi va diagnostika jarayonlarining sifatini qanday yaxshilashi mumkinligini o'rganishdir.

Adabiyotlar sharxi. Mitchell, T. M. (1997). *Machine Learning*. McGraw-Hill. Ushbu asar mashinada o'rganish va uning tibbiyotdagi qo'llanilishi haqida keng qamrovli tushuncha beradi. Kitobda turli xil algoritmlar, shu jumladan, klassifikatsiya metodlari, ularning ishlash prinsiplarini va amaliyotdagi samaradorligini batafsil ko'rib



chiqiladi. Tibbiyotda klassifikatsiya algoritmlarining ishlatilishiga oid muhim misollar va tadqiqotlar taqdim etilgan.[1]

Han, J., Kamber, M., & Pei, J. (2011). *Data Mining: Concepts and Techniques*. Morgan Kaufmann
Ushbu kitobda ma'lumotlarni qazib olish, shu jumladan, klassifikatsiya algoritmlarining tahlili va ularga asoslangan tibbiy tashxis qo'yish jarayonlari keltirilgan. Mualliflar ma'lumotlarni tahlil qilishning asosiy yondashuvlarini va algoritmlarni real dunyo muammolariga qanday qo'llash mumkinligini tushuntiradi.[2]

Zhang, H. (2004). *The Optimality of Naive Bayes*. Proceedings of the Seventeenth International Florida Artificial Intelligence Research Society Conference. Ushbu maqola Naive Bayes algoritmining optimal ishlash shartlarini o'rganadi va tibbiy tashxisda qanday samarali ishlashini ko'rsatadi. Algoritmining tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashda yengilligi va samaradorligi haqida taqdim etilgan tahlillar, uni tibbiyot sohasida keng qo'llashning asosiy sabablaridan biri bo'lib xizmat qiladi.[3] Bu adabiyotlar, klassifikatsiya algoritmlarining tibbiyot sohasidagi qo'llanilishini, ularning diagnostika jarayonlarini yaxshilashdagi rolini va tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilishda qanday qo'llanilishini batafsil tushunishga yordam beradi. Tibbiy tashxis qo'yishda ilg'or texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy jihatlari haqida chuqur ma'lumot olish imkonini beradi.


Muammoning qo'yilishi. Zamonaviy tibbiyotda tashxis qo'yish jarayoni o'zining murakkabligi va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishni talab etishi bilan ajralib turadi. Tibbiy tashxis aniqligini oshirish va bemorga tezkor yordam ko'rsatish uchun intellektual texnologiyalardan, jumladan, klassifikatsiya algoritmlaridan foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi – klassifikatsiya algoritmlarining tibbiy tashxis jarayonida samaradorligini tahlil qilish va ularning sog'liqni saqlash sohasidagi imkoniyatlarini ochib berishdir.[4]

Taklif etilayotgan yechim: *k*-Nearest Neighbors (*k*NN) algoritmi orqali tashxisni aniqlash va

bu usul yordamida tibbiy tashxis qo'yish jarayonini tezkor, aniq va ishonchli qilish bilan birga, sog'liqni saqlash tizimidagi resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini oshirish maqsad qilingan. K-yaqin qo'shnilar algoritmi (KNN) – bu mashinani o'qitishda ishlatiladigan nazorat ostidagi o'rganish algoritmi bo'lib, klassifikatsiya va regressiya masalalarida qo'llaniladi.[5] KNN oddiy va samarali algoritmi bo'lib, u butunlay masofaga asoslangan tamoyilga ega. KNN algoritmining asosiy printsiplari – yangi kiruvchi ma'lumotlarni o'xshashlikka qarab tasniflash yoki baholash. KNN yangi nuqtaning o'z sinfini aniqlash uchun trening ma'lumotlar to'plamidagi yaqin qo'shnilarining sinflariga qaraydi.[6]

KNN algoritmining ishlashi

K-Yaqin qo'shnilar (KNN) algoritmi o'xshashlik printsiplari asosida ishlaydi, bu erda u o'quv ma'lumotlar to'plamidagi K eng yaqin qo'shnilarining teglari yoki qiymatlarini hisobga olgan holda yangi ma'lumotlar nuqtasining yorlig'i yoki qiymatini bashorat qiladi.[7]



1-rasm. KNN algoritmda sinflarga ajratish

KNN qanday ishlashini bosqichma-bosqich tushuntirish quyida muhokama qilinadi:

1-qadam: K ning optimal qiymatini tanlash

K bashorat qilishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan eng yaqin qo'shnilar sonini bildiradi.

2-qadam: masofani hisoblash

Maqsad va o'quv ma'lumotlar nuqtalari o'rtasidagi o'xshashlikni o'lchash uchun Evklid masofasidan foydalaniladi. Ma'lumotlar to'plamidagi har bir ma'lumot nuqtasi va maqsad nuqtasi orasidagi masofa hisoblanadi.[8]

$$d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2}$$

1-formula. Evklid masofasini hisoblash

3-qadam: Eng yaqin qo'shnilarini topish



Maqsadli nuqtaga eng kichik masofaga ega bo'lgan k ma'lumot nuqtasi eng yaqin qo'shnilaridir. Noma'lum element qaysi sinfga tegishli ekanini topishda noma'lum element qiymat jihatidan qaysi sinfga eng yaqin joylashgan bo'lsa shu sinf tarkibiga kiritiladi.[9]

Amaliy qism: Amaliy qismni bajarish jarayonida kasallikka tashxis qo'yishda klassifikatsiya usuli tarkibidagi k-neighbours algoritmidan foydalanilgan. Bemorlar ma'lumotlaridan kelib chiqib bemorlar 2 ta sinfga (kasal yoki kasal emas) ajratiladi. Bunda dastlab shu kasallik bo'yicha qo'yilgan tashxis ma'lumotlaridan foydalaniladi. Kerakli kutubxonalarni import qilib olamiz.

```
import numpy as np
import pandas as pd
a=pd.read_csv('diabetes.csv')
a
```

Natija esa quyidagicha, ma'lumotlarimiz yig'ilgan faylimizni a o'zgaruvchiga biriktirib olamiz. Ma'lumotlarimizni dastlab tahlil qilib olish kerak,matnli ma'lumotlar bo'lsa ularni sonli ko'rinishga keltirish kerak, yokida ortiqcha ma'lumotlardan voz kechish talab etiladi.[10]

	Homiladorlik	glyukoza	qon bosimi	teri qalinligi	insulin	BMI	nasl	yoshi	tashxis
0	6	148	72	35	0	33.6	0.627	50	1
1	1	85	66	29	0	26.6	0.351	31	0
2	8	183	64	0	0	23.3	0.672	32	1
3	1	89	66	23	94	28.1	0.167	21	0
4	0	137	40	35	168	43.1	2.288	33	1
...	...	...	...	...	...	...	...	...	...
763	10	101	76	48	180	32.9	0.171	63	0
764	2	122	70	27	0	36.8	0.340	27	0
765	5	121	72	23	112	26.2	0.245	30	0
766	1	126	60	0	0	30.1	0.349	47	1
767	1	93	70	31	0	30.4	0.315	23	0

2-rasm. Data ning umumiy ko'rinishi

`a.corrwith(a['tashxis']).abs().sort_values(ascending=False)`

Ushbu funksiya bizga kasallik va uning simptomlari orasidagi bog'lanishni aniqlab beradi. Qaysi bir qiymat 1 ga yaqinroq bo'lsa shu simptom kasallik ga eng ko'p bog'liqligi bor simptom hisoblanadi.

```
tashxis      1.000000
glyukoza     0.466581
BMI          0.292695
yoshi        0.238356
Homiladorlik 0.221898
nasl          0.173844
insulin       0.130548
teri qalinligi 0.074752
qon bosimi    0.065068
dtype: float64
```

3-rasm. Korrelyatsiya qiymatlari.

Endi esa X va Y o'qlari uchun qiymatlarni belgilaymiz. X o'qi uchun kasallikning barcha simptomlarini, Y o'qimiz uchun esa "Tashxis" nomli column qiymatlarini o'zlashtiramiz.

```
X = a.drop('tashxis', axis=1).values
y = a['tashxis']
```

Data mizmi test va train qismlarga bo'lib olamiz. Chunki train datamiz bilan ma'lumotlarni mashinaga o'qitishimiz kerak. X ning qanday qiymatlarida Y qanday qoymatlarga erishishini kitub qo'yamiz, modelimiz shu train data dan o'zlashtirgan bilimlari asosida faoliyat yuritadi.

```
from sklearn.model_selection import
train_test_split

X_train, X_test, y_train, y_test =
train_test_split(X,y, test_size=0.2, random_state=12)

X_train
```

```
X_train
array([[ -1.14185152e+00,   1.25518668e+00,  -9.87709745e-01, ...,
        -1.28094240e+00,  -6.38012288e-01,   2.70231170e+00],
       [-8.44085053e-01,  -9.90207780e-01,  -5.33185124e+00, ...,
        -5.32118852e-01,   2.63123907e-01,  -1.04154944e+00],
       [ 6.39947260e-01,   1.28648383e+00,  -3.67336746e-01, ...,
Andijon mashinasozlik instituti, magistr.
mirkomil.khusanboyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahsulotlarni saqlash omborxonalarining faoliyatini avtomatlashtirish uchun mobil (ko'chma) g'ildirakli robotlar qo'llanadigan robototexnika kompleksini yaratish masalasi ko'rib chiqilgan va yoritilgan, shuningdek, tizimning ishlashini tavsiflovchi algoritmlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirish, mobil robot, boshqaruv algoritmi, marshrut, ombor.


Kirish. Hozirgi texnika va texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish vazifasi turli ishlab chiqarish sohaslariga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Avtomatlashtirish uchun katta potentsialga ega sohalardan biri bo'lgan, mahsulotlarni saqlovchi omborlar faoliyatida ombor binolaridagi texnologik jarayonlar o'rtasidagi o'zaro ta'siridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu sohada avtomatlashtirishni ta'minlovchi usullardan biri - omborlarda amalga oshiriladigan harakatlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan robototexnika kompleksini yaratishdir. Bunga yuklash, ombor hududi bo'ylab harakatlanish va yuklarni tushirish, shuningdek, yuklarni ombor stendlariga optimallashtirilgan joylashtirishni rejalashtirish kabi funktsiyalar kiradi.

Kompleksning samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat:

1. Yuqori yuk ko'tarish qobiliyatiga ega g'ildirakli mobil robotlar, manipulyator bilan jihozlangan. Mahsulotlarni saqlash ombori xodimlari tomonidan doimiy ravishda bajariladigan mexanik ishlarni, ya'ni, yuklash, tushirish, yukni joylashtirilgan joyidan yuklash zonasigacha yetkazib berish va orqaga qaytarish, shuningdek, hudud bo'ylab yuklarni harakatlantirishni amalga oshiradi.

2. Mobil robotlarning o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish, maqsadni belgilash va mahsulotlarni saqlash ombori hududidagi qo'shimcha logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun javobgar bo'lgan boshqaruv tizimi.



a) Stelaj bilan harakatlanuvchi. b) Donalab tashuvchi. v) Yukni joylovchi

1-Rasm. Mobil robotlar [1].

Tizimning ishlash prinsiplari bo'yicha yaxshiroq tushuncha berish maqsadida uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi vazifa va o'zaro ta'sir algoritmining tipik misolini keltiramiz:

1. Boshqaruv tizimiga X yukini belgilangan vaqtda yuklash zarurligi to'g'risida ma'lumot keladi.

2. Boshqaruv tizimi yuk to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va u (yuk) joylashtirgan stend (stelaj) haqida ma'lumot oladi.

3. Boshqaruv tizimi boshqa robotlarning joylashuvlarini hisobga olgan holda ushbu vaqtda erkin mobil robot uchun marshrut (yo'nalish) tuzadi, shu bilan birga yo'llarning kesishishi paytida to'g'onlarga




(o'zaro to'qnashuvlarga) yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

4. Yuk tashuvchi mobil robotga belgilangan yo'nalish bo'yicha harakat qilish ko'rsatmasi beriladi.

5. Mobil robot yukni qidiradi, ushlaydi va uni yuklash zonasiga olib boradi.

Ushbu kompleksdan foydalanish omborni xizmat ko'rsatuvchi xodimlari sonini deyarli 95%ga qisqartirib, inson faktori ta'sirini kamaytirishga, hamda xatolik ehtimolini pasaytirishga imkon beradi, shuningdek, ombor binolarining o'tkazuvchanligini oshiradi.



2-Rasm. Harakat algoritmining blok diagrammasi

Ushbu turdagi tizimlarni yaratishda mobil robotlar o'rtasida harakat yo'llarining optimal variantini aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish metodikasi katta ahamiyatga ega. Chunki, ushbu jarayonlarning optimalligi tizim sifat ko'rsatkichlariga – masalan, avtomatlashtirilgan omborning o'tkazuvchanligi yo' mobil robotlar harakati yo'llarining to'qnashuv hevosita ta'sir qiladi.

Mobil robotga qo'yilgan va ularni bajarishni ta'minlaydigan harakat dasturini yaratishda tegishli boshqaruv tizimi algoritmlari ishlab chiqilgan.

Funksional jihatdan ushbu algoritmlar ikki qismga ajratilishi mumkin:


Ushbu maqola doirasida global algoritmi ko'rib chiqiladi. U global yo'nalishni - optimal marshrutni tanlash va unga rioya qilishni ta'minlaydi. Harakat algoritmining umumiy ko'rinishi yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan.

Vazifa yo'qligida (buyruq berilmaganda) robot kutish holatida bo'ladi. Shu bilan birga, robotning yo'nalish burchagi va hozirgi joylashuvi haqidagi ma'lumotlar uning xotirasiga yozilgan. Shuningdek, xotirada ikkita ma'lumotlar massivi saqlanmoqda:

1. Bog'lanish matritsasi, nuqtalar o'rtasidagi bog'lanishlar va ularning og'irligi (nuqtalar orasidagi masofa) haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2. Koordinatalar matritsasi, barcha nuqtalarning tekislikdagi x/y koordinatlari qiymatlarini o'z ichiga oladi [2].

3-Rasmda grafning ko'rinishiga misol keltirilgan bo'lib, unda tugunlar maqsadli nuqtalar (xonadagi kesish joylari), qirralar esa ularni bog'lovchi koridorlardir va ularga mos keluvchi bog'lanish matritsasi mavjud:



3-Rasm. Qo'shnilik matritsasi va uning mos grafigi

Berilgan nuqtaga ko'chish buyrug'i kelganda, vazni grafda minimal masofani qidirish algoritmi – Deykstra algoritmi asoslangan optimal yo'l ketma-ketligini hisoblash funksiyasi ishga tushadi. Funktsiyaning kirish ma'lumotlari qo'shni matritsa, boshlang'ich koordinata va oxirgi koordinatadir. Ushbu funktsiyaning natijasi ketma-ket nuqtalar to'plami bo'lib, ular orqali robot belgilangan maqsadga erishadi.

Initializatsiyada a uchastkasining belgilari nolga teng deb hisoblanadi, qolgan uchastkalarining



belgilari esa cheksizlikka teng. Bu a dan boshqa uchastkalarga masofalar hali noma'lum ekanligini aks ettiradi. Barcha grafik uchastkalari tashrif buyurilmagan deb belgilangan.

Algoritmning bosqichi. Agar barcha uchastkalar tashrif buyurilgan bo'lsa, algoritm tugaydi. Aks holda, tashrif buyurilmagan uchastkalardan minimal belgi qiymatiga ega bo'lgan u uchastkasi tanlanadi. Biz u ushbu nuqtaning oldingi nuqtasi sifatida joylashgan barcha mumkin bo'lgan yo'llarni ko'rib chiqamiz. U dan chiqadigan qirralar orqali bog'langan uchastkalarni uning *qo'shnilari* deb ataladi. U ning har bir qo'shnisi uchun, tashrif buyurilgan deb belgilanganlardan tashqari, yangi yo'l (yo'nalish) uzunligini hisoblaymiz, bu u ning joriy belgisi va u bilan ushbu qo'shni o'rtasidagi qirrasiz uzunligi yig'indisiga tengdir. Agar hosil bo'lgan uzunlik qiymati qo'shnining belgisi qiymatidan kichik bo'lsa, unda belgini hosil bo'lgan qiymat bilan almashtiramiz. Barcha qo'shnilarni ko'rib chiqqandan so'ng, u ni *tashrif buyurilgan* deb belgilaymiz va algoritm bosqichini takrorlaymiz [3].

Masalan, yuqoridagi sxema uchun 1-dan 5-gacha o'tish jarayonida algoritmning natijasi quyidagi ketma-ketlik bo'lishi mumkin: 1 – 2 – 3 – 5.

Har bir olingan nuqta uchun navbatma-navbat quyidagi harakat algoritmi bajariladi:

1. Joriy va keyingi nuqtalarning koordinatalari bo'yicha ularni bog'laydigan vektorning og'ish burchagini Ox o'qidan hisoblash.
2. Joriy kurs burchagi va zarur burchak qiymatiga asoslanib, burilish burchagi qiymatini shakllantirish.
3. Belgilangan burchakda burilish funksiyasini bajarish, yangi kurs burchagi qiymatini saqlash.
4. To'g'ri chiziqli harakat qilish funksiyasini bajarish.

Yakuniy nuqtaga yetgach, robot kutish rejimiga o'tadi.

Tayyorlangan algoritmnin sinovdan o'tkazish va mavjud analoglar bilan taqqoslash natijasida shuni aniqladikki, xonani soddalashtirilgan usulda vaznli grafik ko'rinishida ifodalash metodikasini qo'llash hisob-kitoblarni minimal resurslar bilan amalga oshirish imkonini

beradi, bu esa tizimning hisoblash quvvatlarida iqtisod qiladi va loyihaning iqtisodiy jihatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, yana bir muhim jihat - robotning joylashuvi koordinatalarini aniqlash usulini tanlash zarurati. Ushbu muammoni hal qilishning eng keng tarqalgan usuli — har bir g'ildirakning yurish masofasini hisoblash uchun ishlatiladigan *odometrik* sensorlardan foydalanishdir. Bu esa maydondagi nisbiy joylashuv koordinatasini olish imkonini beradi. Ushbu turdagi sensorlarning tipik misoli — reduktorlar yoki motorlarning chiqish valiga o'rnatilgan fotoelektrik inkremental aylanish o'zgartirgichlari (inkremental kodlagichlar). Ushbu usulning kamchiligi — haqiqiy sharoitlarda g'ildiraklarning sirpanishi bilan bog'liq yig'ilgan xatolar paydo bo'lishidir [4].

Natija. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, xona rejasiga asoslangan yo'lni hisoblash algoritmi inkremental kodlagichlardan foydalangan holda, 150 burchak sekundi rezolyutsiyasiga ega bo'lgan holda 1 soat davomida harakatlanishda yig'ilgan joylashuv xatosi 25 santimetrga tashkil etadi. Shuning uchun yig'ilgan xatolar miqdorini kamaytirish maqsadida joylashuvni nazorat qilishning qo'shimcha usullaridan foydalanish taklif etiladi: shift yoki polga o'rnatilgan sensorlar, ular ma'lum nuqtalarda joylashgan bo'lib, ulardan o'tganda yig'ilgan xato nolga tushiriladi.

Xulosa. Maqolada ko'rib chiqilgan tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan algoritm universal bo'lib, deyarli har qanday ishlab chiqarish jarayonida kichik o'zgarishlar bilan qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, odometr sensorlari va qo'shimcha xato nol tizimidan foydalanilganda, tizim ishlashining yuqori aniqligi ta'minlanadi, bu esa uni katta xatolik bilan tanqidiy jarayonlarda ishlatishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Девянин Е. А. О движении колесных роботов. // Докл. науч. школы-конференции «Мобильные роботы и мехатронные системы». 1998. С. 169-200.
2. Мартыненко Ю. Г. Динамика мобильных роботов. // Соросовский образовательный журнал. 2000. № 5. С. 110-116.
3. Алгоритм Дейкстры – Википедия: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki/Алгоритм_Дейкстры.
4. <http://clar.uspu.ru/bitstream/uspu/18180/2/2023Gorbunov.pdf>



ENDOKRIN KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA ERTA TASHXISLASHNING MATEMATIK MODELLARI

Nishanov Axram Xasanovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti tizimli va amaliy dasturlash
kafedrası professori
nishanov_akram@mail.ru

Mengturayev Farxod Ziyatovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi
f.mengtoraev@dpi.uz
ORCID: 0000-0003-0562-8377

Allayarov Uktamjon Bektashovich,

Toshkent tibbiyot Akademiyasi Termez filiali, ichki kasalliklar
propedevtikasi, reabilitologiya, xalq tabobati va endokrinologiya
kafedrası asistenti.
criptolione7777@gmail.com

Xaydarov Sherali Islom o'g'li,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
sh.haydarov@dpi.uz
ORCID: 0000-0002-2514-3329

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda endokrin kasalliklarning profilaktikasi va erta tashxislash masalalarining matematik modellashirish usullari o'rganildi. Tadqiqotda ehtimollik nazariyasi, statistik tahlil, klassifikatsiya algoritmlari va klasterlash usullari qo'llanilib, diagnostika jarayonini optimallashtirish yondashuvlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, matematik modellar diagnostika aniqligini oshirishda va sog'liqni saqlash tizimining resurslarini samarali taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Bayes teoremasi asosida kasallik ehtimolini hisoblash, klasterlash algoritmlari yordamida xavf guruhlarini aniqlash va dinamik prognozlash yondashuvlari orqali kasallik rivojlanishini oldindan baholash mumkinligi isbotlandi. To'plangan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish orqali profilaktika samaradorligini kuchaytirish va individual davolash rejasini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: Endokrin kasalliklar, profilaktika, erta tashxis, matematik modellashirish, klassifikatsiya, klasterlash

Kirish. Endokrin kasalliklarning profilaktikasi va erta tashxislanishi tibbiyot sohasida dolzarb masalalardan biri bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu kasalliklar endokrin bezlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi va vaqt o'tishi bilan boshqa organlar va tizimlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin [15]. Profilaktika va erta tashxis orqali kasalliklarning asoratlari kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirishga erishiladi. Ushbu kasalliklar endokrin bezlar faoliyatidagi

buzilishlar natijasida yuzaga keladi va ko'pincha turli asoratlarga olib kelishi mumkin [1-5]. Kasalliklarni erta bosqichda aniqlash orqali bemorlarning hayot sifatini oshirish va davolash samaradorligini kuchaytirish mumkin. Endokrin kasalliklarning erta tashxisi statistik yondashuvlar, ehtimollik nazariyasi va matematik modellashirish yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu jarayonda ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va qaror qabul qilish usullari asosiy o'rinni egallaydi [6-8]. Endokrin kasalliklarning erta



tashxislash masalasi matematik modellashtirish orqali yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Ehtimollik nazariyasi, klassifikatsiya modellar va klasterlash usullari diagnostik jarayonni takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar sog'liqni saqlash tizimini samarali boshqarish va bemorlarning hayot sifatini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [9-12].

Endokrin kasalliklar zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularning erta tashxisi sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu kasalliklar endokrin bezlar faoliyatidagi buzilishlar natijasida yuzaga keladi va ko'pincha turli asoratlarga olib kelishi mumkin. Kasalliklarni erta bosqichda aniqlash orqali bemorlarning hayot sifatini oshirish va davolash samaradorligini kuchaytirish mumkin. Endokrin kasalliklarning erta tashxisi statistik yondashuvlar, ehtimollik nazariyasi va matematik modellashtirish yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu jarayonda ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va qaror qabul qilish usullari asosiy o'rinni egallaydi. Endokrin kasalliklarning profilaktikasi va erta tashxislanishi nafaqat bemorlar hayotini saqlashga, balki sog'liqni saqlash tizimi uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Profilaktika dasturlari kasallik xavfini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, ular sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish, xavf omillarini nazorat qilish va kasallikning ilk belgilarini aniqlashga yo'naltirilgan. Matematik modellar ushbu jarayonlarni boshqarish va optimallashtirish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Endokrin kasalliklar, masalan, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari va metabolik sindrom, turli xil diagnostik yondashuvlarni talab qiladi. Kasalliklarni erta aniqlash algoritmlaridan foydalanish orqali klinik qaror qabul qilishni avtomatlashtirish va bemorlarni tasniflash samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, profilaktika jarayonida aholini xavf guruhlariga ajratish, sog'lom turmush tarziga o'rgatish va epidemiologik ma'lumotlarni yig'ish muhim o'rin tutadi [16-20]. Mazkur tadqiqot endokrin kasalliklarning profilaktikasi va erta tashxislash masalalarining matematik ifodalanishini ko'rib

chiqadi. Unda statistik yondashuvlar, ehtimollik nazariyasi, klassifikatsiya va klasterlash algoritmlari orqali diagnostika va profilaktika jarayonlarini optimallashtirish yondashuvlari o'rganiladi. Ushbu masalaning matematik modellashtirilishi tibbiy resurslarni samarali taqsimlash va bemorlar uchun individual yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi [21-22].

Endokrin kasalliklarning erta tashxislash masalasi matematik modellashtirish orqali yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Ehtimollik nazariyasi, klassifikatsiya modellar va klasterlash usullari diagnostik jarayonni takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar sog'liqni saqlash tizimini samarali boshqarish va bemorlarning hayot sifatini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [23-24].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Endokrin kasalliklarning profilaktikasi va erta tashxislash bo'yicha matematik modellarni qo'llash masalasida olimlarning umumiy fikri shundan iboratki, zamonaviy statistik va matematik yondashuvlar diagnostika jarayonlarining aniqligi va samaradorligini oshiradi. Bayes modeli, klassifikatsiya algoritmlari va klasterlash usullari kasallikni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi, bu esa kasallikning asoratlarni kamaytiradi va bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi. Olimlar matematik modellashtirishni diagnostika jarayonini avtomatlashtirish vositasi sifatida ko'radi. Ayniqsa, katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati bemorlar uchun individual davolash rejalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar fikricha, ma'lumotlar yig'ishdan tortib, dinamik prognozlash va profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirishgacha bo'lgan jarayonlarda matematik yondashuvlar tibbiy resurslarni optimallashtirishga va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, olimlar diagnostik jarayonlarda algoritmlarning aniqligini oshirish va noto'g'ri tashxis ehtimolini kamaytirish uchun chiqindilarni aniqlash usullarini keng qo'llash zarurligini ta'kidlashadi. Ularning fikriga ko'ra, bu yondashuvlar orqali sog'liqni saqlash tizimi uchun iqtisodiy samaradorlik



va bemorlar uchun hayot sifati kafolatlanadi. Umuman olganda, olimlar matematik modellarni tibbiyotning ajralmas qismi sifatida ko'radi va ularni amaliyotga kengroq joriy etishni tavsiya qiladi. Quyidagi olimlarni ishlarida shuni kursatib beradiki.

Alan Turing (Buyuk Britaniya) – Matematik modellar va algoritmik yondashuvlarning murakkab tizimlar, shu jumladan tibbiyotda qo'llanishi imkoniyatlarini birinchi bo'lib asoslab berdi. U zamonaviy algoritmlar va modellashtirishning tamal toshini qo'ygan.

Buyuk Britaniya olim Thomas Bayes modeli va ehtimollik nazariyasi orqali kasallik ehtimolini baholashni asoslagan. Uning yondashuvi diagnostik qarorlar qabul qilishda asosiy nazariya sifatida qo'llanilmoqda.

Kanada olim Geoffrey Hinton – Neyron tarmoqlar va mashinani o'qitish texnologiyalari orqali diagnostik jarayonlarni avtomatlashtirishda ilg'or natijalarga erishgan. Uning tadqiqotlari tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda.

AQSh olim Leo Breiman, Random Forest va boshqa klassifikatsiya algoritmlarini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shgan. Ushbu algoritmlar simptomlarni tahlil qilish va bemorlarni sog'lom va kasallik guruhlariga ajratishda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Buyuk Britaniya olim David Cox statistik modellar, xususan Cox regressiyasi orqali xavfni aniqlash va bashorat qilishni rivojlantirgan. Bu model endokrin kasalliklarning xavf omillarini tahlil qilishda samarali natijalar beradi.

Rossiya Andrey Kolmogorov ehtimollik nazariyasining asoschisi. Uning ishlari tibbiyotda statistik tahlil va ehtimollik modellarini joriy etishda asosiy ilmiy zamin yaratib berdi.

AQSh olim Michael Jordan zamonaviy mashinani o'qitish va ehtimollik nazariyasining yetakchi tadqiqotchilaridan biri. Uning ishlari tibbiy ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va diagnostik jarayonlarni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan.

Rossiya olim Vladimir Vapnik Support Vector Machines (SVM) algoritmini ishlab chiqqan. Ushbu

algoritm endokrin kasalliklarni tashxislashda keng qo'llanilmoqda.

Buyuk Britaniya olim Christopher Bishop statistik tahlil va mashinani o'qitish bo'yicha ilg'or tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari tibbiyotda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi.

AQSHlik olim Peter Norvig ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt texnologiyalarini diagnostika va profilaktikada qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Yuqoridagi olimlar endokrin kasalliklarni tashxislash va profilaktikada matematik modellarni qo'llashni nazariy va amaliy jihatdan boyitgan. Ularning ishlari diagnostika aniqligini oshirish, xavf guruhlarini aniqlash va individual davolash rejalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Natijalar. Endokrin kasalliklarning profilaktikasi endokrin tizim kasalliklarining oldini olish va ularni rivojlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. **Endokrin kasalliklar nima?** Endokrin kasalliklar endokrin bezlarning noto'g'ri ishlashi natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar bo'lib, ular gormonlarning me'yordan oshib ketishi yoki kamayib ketishi bilan kechadi. Ko'p uchraydigan endokrin kasalliklar. Qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari (gipotiroidizm, gipertiroidizm) Metabolik sindrom, o'smirlik davridagi gormonal disbalans, kortizol yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi bular ustida biz profilaktika ishlarini olib borish orqali uni oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. 1. **Sog'lom ovqatlanish. Tuz miqdorini nazorat qilish**, ayniqsa yodli tuz iste'mol qilish qalqonsimon bez kasalliklarining oldini olishda muhim. **Shakarni cheklash**, qandli diabet xavfini kamaytirish uchun, Meva va sabzavotlarga boy, vitamin va minerallarga boy ovqatlarni iste'mol qilish. 2. **Faol hayot tarsi.** Har kuni kamida 30 daqiqa jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish (yurish, yugurish, suzish). Ortiqcha vazndan qochish yoki mavjud vaznni me'yorga keltirish. 3. **Stressni boshqarish.** Stress gormonal disbalansga olib kelishi mumkin, shuning uchun stressni boshqarish usullarini o'rganish. 4.




Tibbiy ko'riklardan muntazam o'tish. qandli diabet, qalqonsimon bez va boshqa endokrin kasalliklar xavfini aniqlash uchun yillik tekshiruvlardan o'tish,. 5. **Zararli odatlardan voz kechish.** chekish va alkogol ichimliklarni iste'mol qilish endokrin tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 6. **Vitamin va mineral yetishmovchiligini oldini olish, yod** qalqonsimon bez faoliyati uchun zarur, dengiz mahsulotlari, yodlangan tuz iste'moli muhim, **D vitamini** quyoshda ko'proq bo'lish, agar kerak bo'lsa, D vitamini qo'shimchalarini qabul qilish, **kaltsiy va magniy** gormonlar sinteziga ta'sir qiladi, sut mahsulotlari va yong'oqlarda mavjud. 7. **Irqiy va oilaviy tarixni hisobga olish,** oila a'zolarida endokrin kasalliklar bo'lsa, xavf omillarini kamaytirish choralari ko'rinishi kerak. 8. **Atrof-muhit omillaridan himoya qilish,** Toksik moddalar va kimyoviy vositalardan uzoq turish. Endokrin kasalliklarning oldini olish uchun sog'lom turmush tarzini saqlash, muntazam ravishda shifokorga murojaat qilish va individual ehtiyojlarga mos profilaktika choralari ko'rish zarur. Profilaktika nafaqat sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytiradi, balki hayot sifatini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar yordamida profilaktika ishlarini olib borish jarayonida ish unumdorligi sezilarli darajada oshiradi [15].

Endokrin kasalliklaridan qandli diabet kasalligi profilaktika ishlarini olib borish uchun kasallikning rivojlanishini oldini olish yoki uni kechishini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. 1. Sog'lom ovqatlanish. Shakar iste'molini kamaytirish, shirinliklar, gazlangan ichimliklar va qandolat mahsulotlarini cheklash, ko'proq tola moddalarga boy ovqatlar iste'mol qilish, bunda sabzavotlar, mevalar, butun donli mahsulotlar, yong'oqlar va dukkakli mahsulotlar muhim o'rin tutadi, fastfud va yog'li ovqatlardan qochish, ularda yuqori kaloriyal va yog' miqdori ko'p bo'lib, bu tana vazni va insulin rezistentligiga salbiy ta'sir qiladi, cheklangan miqdorda uglevod iste'moli, sekin hazm bo'ladigan murakkab uglevodlarga e'tibor bering (grechka, qizil guruch, suli yormasi), 2. Jismoniy faollikni oshirish. Haftasiga kamida 150 daqiqa o'rtacha jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish

(yurish, yugurish, suzish, yoga), kundalik turmushda harakatni ko'paytirish (lift o'rniga zinadan chiqish, ko'proq piyoda yurish), ortiqcha vazndan xalos bo'lish yoki uni nazorat qilish. 3. Tibbiy ko'riklar va monitoring. Qondagi glyukoza darajasini muntazam tekshirish, ayniqsa, yuqori xavf guruhiga kiruvchi odamlar uchun (yoshi kattalar, ortiqcha vaznli odamlar, oilasida diabet bilan og'riganlar), glikemik indeks va glikemik yukni kuzatish, bu oziq-ovqatning qandli diabetga ta'sirini tushunishga yordam beradi, qon bosimi va lipidlar (xolesterin) darajasini nazorat qilish. 4. Stressni boshqarish. Stress insulin darajasini oshirishi va qondagi qand miqdoriga ta'sir qilishi mumkin, meditatsiya, nafas olish mashqlari yoki yoga kabi usullardan foydalanish stressni kamaytirishga yordam beradi, 5. Zararli odatlardan voz kechish. Chekishni tashlash, chekish insulin rezistentligini oshiradi, alkogolni me'yorda iste'mol qilish yoki voz kechish, ko'p miqdordagi alkogol qandli diabetni rivojlanish xavfini oshiradi. 6. Xavf omillarini hisobga olish. Agar yaqin qarindoshlarda qandli diabet bo'lsa, xavf omillari haqida xabardor bo'lish va diabetning rivojlanishini oldini olish uchun yuqoridagi tavsiyalarga qat'iy amal qilish lozim. 7. Ta'lim va xabardorlik. Odamlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish uchun maktablarda, ish joylarida va jamoat joylarida sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik bo'yicha treninglar tashkil qilish, qandli diabetning erta belgilari haqida ma'lumot yetkazish (tez-tez chanqash, charchoq, vazn yo'qotish). 8. Jamoatchilikka yo'naltirilgan tadbirlar. Xavf omillarini kamaytirish bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqish, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida shakar miqdorini kamaytirishni rag'batlantirish, qandli diabetga qarshi profilaktika kunlarini tashkil qilish va aholining ishtirokini oshirish. Qandli diabetning oldini olish sog'lom turmush tarzini saqlash, yodlangan va balanslangan ovqatlanish, jismoniy faol hayot tarzini yo'lga qo'yish va muntazam tibbiy nazorat orqali amalga oshiriladi. Ushbu choralarga amal qilish diabet rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va hayot sifatini yaxshilaydi.

Qandli diabet kasalligini profilaktikasi





1-rasm. Qandli diabetning profilaktikasiga qaratilgan grafik diagrammasi.

Ushbu grafik har bir elementning umumiy ahamiyatini foizlar ko'rinishida aks ettiradi. Bunda sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik eng yuqori ta'sir ulushiga ega.

Endokrin kasalliklar erta tashxislashning matematik modellari. Endokrin kasalliklar zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ular nafaqat alohida organlarning funksiyasiga, balki butun organizmning gomeostaziga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu kasalliklarning erta tashxisi bemorlar uchun sog'lom hayot sifatini saqlash, davolash samaradorligini oshirish va jiddiy asoratlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Endokrin kasalliklarning diagnostikasida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish uchun matematik modellar va algoritmlar muhim ahamiyatga ega. Bu usullar tashxis jarayonini optimallashtirish, aniqlikni oshirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Mazkur hujjatda endokrin kasalliklarni erta tashxislash masalasi matematik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Yondashuvlar statistik modellar, ehtimollar nazariyasi va optimallashtirish algoritmlariga asoslanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish jarayonlari orqali tashxislashning aniqligi va samaradorligi oshiriladi. Ushbu matematik ifodalanish usullari tibbiy diagnostika tizimlarini rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Endokrin kasalliklarning erta tashxislash masalasining matematik ifodalanishi, odatda, ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va qaror qabul qilish

jarayonlarini optimallashtirishga asoslanadi. Matematik yondashuvda avvalo kasallikka oid klinik ma'lumotlar va simptomlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar o'z ichiga quyidagilarni oladi. Biometrik ko'rsatkichlar (qon shakar darajasi, gormon miqdori va boshqalar), simptomlar (sub'ektiv va ob'ektiv belgilar), kasallik tarixiga oid ma'lumotlar.

Endokrin kasalliklarning erta tashxislanish masalasini kengroq matematik asosda tushuntirilgan. Har bir formula qanday qo'llanilishi va ma'nosi haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

1. Tashxislash va klassifikatsiya masalasi endokrin kasalliklarni aniqlash masalasi ko'pincha klassifikatsiya masalasi sifatida ifodalanadi. Bunda bemorlarning simptomlari va belgilari asosida ular "kasallik mavjud" yoki "sog'lom" sinflariga ajratiladi.

Klassifikatsiya funksiyasi.

$$f(X) \rightarrow Y$$

Bu yerda $X = \{X_1, X_2, \dots, X_n\}$ – bemorlar ma'lumotlari simptomlar va aniqlanish sohasi, $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_n\}$ – tashxis masalan, $y_i \in \{0, 1\}$ 0 – sog'lom, 1 – kasal, Optimallashtirish muammosi klassifikatsiya modeli optimal bo'lishi uchun yo'qotish funksiyasi L minimal bo'lishi kerak.

$$\min_{f \in F} \sum_{i=1}^n L(f(x_i), y_i)$$

L - yo'qotish funksiyasi, Misol. log-likelihood yoki cross-entropy funksiyasi, $f(x_i)$ - model tomonidan berilgan tashxis ehtimoli, Algoritmlar. Logistic Regression.

$$P(Y = 1 | X) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x_1 + \dots + \beta_k x_k)}}$$

Bu yerda β_i – har bir belgi uchun og'irlik, Neyron tarmoqlar modellashtirish chuqur o'rganuvchi (Deep Learning) tarmoqlari yordamida amalga oshiriladi.

2. Bayes teoremasi bilan ehtimolni baholashda endokrin kasalliklarni aniqlashda Bayes teoremasi bemorning simptomlari asosida kasallik ehtimolini hisoblash imkonini beradi.



$$P(Y|X) = \frac{P(X|Y)P(Y)}{P(X)} \quad (1)$$

Bu yerda, $P(Y|X)$ - berilgan simptomlar to'plami X mavjud bo'lsa, kasallik Y ehtimol $P(X|Y)$ - kasallik bo'lgandagi simptomlarning ehtimoli, $P(Y)$ - kasallikning umumiy ehtimoli, $P(X)$ - simptomlarning umumiy ehtimoli. Qo'llanilishi bemorning simptomlari asosida tashxis ehtimolini hisoblash uchun ishlatiladi. Tahlil qilish uchun oldindan ma'lumotlar bo'lishi kerak $P(X|Y)$ va $P(Y)$.

3. Klasterlash masalasida kasalliklarni guruhlash uchun simptomlar asosida bemorlarni klasterlash amalga oshiriladi. Bu endokrin kasallikning turli shakllarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

Matematik model. Klasterlash maqsadi - simptomlar vektorlari X ni k ta klasterga bo'lish.

$$\min_c \sum_{i=1}^n \min_j \|x_i - c_j\|^2 \quad (2)$$

Bu yerda X_i har bir bemorning simptomlari (belgilarning vektori), C_j j-klasterning markazi, $\|x_i - c_j\|$ simptomlar va klaster markazi orasidagi masofa (masalan, Evklid masofasi).

4. Normadan chetga chiqishlarni aniqlash (Outlier Detection) ba'zi simptomlar normadan keskin chetga chiqadi. Bu ma'lumotlarni aniqlash uchun normadan chetga chiqishlarni aniqlash usullari qo'llaniladi.

Z-ballar. Z-ballar bemorlarning simptomlarining normadan qancha chetga chiqishini ko'rsatadi.

$$Z_i = \frac{X_i - \mu}{\sigma} \quad (3)$$

Bu yerda X_i - simptom qiymat, μ - ma'lumotlarning o'rtacha qiymati, σ - simptomlarning standart og'ishi.

Agar $Z_i > 5$ bo'lsa, bu qiymat normadan chetga chiqish hisoblanadi.

5. Qaror qabul qilish modeli Endokrin kasalliklar tashxislanib bo'lgach, davolash yoki profilaktika strategiyasini tanlash uchun qaror qabul qilish modellari qo'llaniladi.

Qaror modellarining matematik ifodasi.

$$\arg \max_{a \in A} E[U(a, X)] \quad (4)$$

Bu yerda a - qarorlar to'plami (masalan, davolash rejasi, tekshiruvlar), $U(a, X)$ - foyda funksiyasi (davolash natijasida sog'liq yaxshilanish ehtimoli). Qo'llanilishi profilaktika choralarini belgilash, kasallik rivojlanishini oldini olish uchun eng samarali chora-tadbirlarni tanlash.

6. Prognozlash modeli endokrin kasallikning rivojlanishini prognoz qilish uchun vaqt qatorlari yoki differensial tenglamalar ishlatiladi.

Differensial tenglamalar kasallik rivojlanishini vaqt bo'yicha ifodalash.

$$\frac{dC}{dt} = f(C, t) \quad (5)$$

Bu yerda C - kasallik holati, t - vaqt, $f(C, t)$ - kasallik o'zgarishini belgilovchi funksiya.

Yuqoridagi matematik modellar endokrin kasalliklarni erta aniqlash va ularning rivojlanishini oldini olish uchun qo'llaniladi. Ular tibbiy diagnostika tizimlarida, shuningdek, profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Endokrin kasalliklarni erta tashxislashning matematik ifodalash usullari diagnostikada aniqlik va tezlikni oshiradi, xavf guruhlarini belgilaydi va bemorlar uchun individual davolash rejalarini yaratish imkonini beradi. Bu yondashuv tibbiyotning boshqa sohalarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Endokrin kasalliklarning erta tashxislanishini matematik modellashtirish bu kasalliklarning boshlang'ich bosqichida aniqlanishini ta'minlash uchun turli matematik va statistika usullarini qo'llash jarayonidir. Bu yondashuv tibbiyotda diagnostika aniqligini oshirish, resurslarni samarali boshqarish va



bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida endokrin kasalliklarni profilaktikasi va erta tashxislash masalalarida quyidagi natijalarga erishildi.

1. Matematik modellarni qo'llash. Ehtimollik nazariyasi, klassifikatsiya, va klasterlash algoritmlaridan foydalanish diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam berdi. Ayniqsa, Bayes modeli va neyron tarmoqlar asosida amalga oshirilgan yondashuvlar bemorlarning kasallik xavfini aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llandi.

2. Tashxis aniqligining oshishi. Model yordamida diagnostika jarayonida to'g'ri aniqlik sezilarli darajada oshdi. Ma'lumotlar to'plamidagi chiqindilarni aniqlash natijasida noto'g'ri tashxis qo'yilish ehtimoli kamaydi.

3. Xavf guruhlarini aniqlash. Klasterlash algoritmlari yordamida bemorlarni simptomlari asosida xavf guruhlariga ajratish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu sog'liqni saqlash resurslarini maqsadli va samarali taqsimlash imkonini berdi.

4. Kasallik rivojlanishining prognozi. Dinamik modellar yordamida kasallik rivojlanishining ehtimoli prognoz qilindi. Bunda vaqt qatorlari va differensial tenglamalar yordamida bemorning holati tahlil qilindi.

5. Profilaktika samaradorligi oshadi. To'plangan ma'lumotlarni tizimli qayta ishlash orqali kasallikning rivojlanishini oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni shakllantirish mumkin bo'ldi.

Matematik yondashuvlar endokrin kasalliklarning diagnostika jarayonini tezkor va aniqligini oshiruvchi vosita sifatida o'zini namoyon qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimida ushbu modellarni qo'llash orqali resurslarni optimallashtirish, davolash samaradorligini oshirish va bemorlar hayot sifatini yaxshilash mumkin. Dinamik prognozlash usullari kasallik rivojlanishini oldindan aniqlash va shunga mos ravishda individual davolash rejasini shakllantirish imkonini beradi. Profilaktik chora-tadbirlar uchun aholini xavf guruhlariga ajratish va aniq yondashuvlarni joriy etish kasalliklarning erta bosqichlarida samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Matematik yondashuvlar

diagnostika jarayonini sezilarli darajada optimallashtirishga yordam beradi. Sog'liqni saqlash tizimida ushbu modellarni joriy etish orqali tashxislash jarayoni avtomatlashtiriladi, bu esa resurslar samaradorligini oshiradi. Profilaktik dasturlar orqali xavf guruhlariga qaratilgan ishlanmalar kasallikning erta bosqichda oldini olishga yordam beradi. Dinamik prognozlash usullari yordamida kasallik rivojlanishini aniqlash va individual davolash rejasini yaratish mumkin. Klasterlash algoritmlarini joriy etish bemorlarni to'g'ri guruhlash va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Kelgusida matematik modellarni real tibbiyot amaliyotiga kengroq joriy etish orqali sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va bemorlar hayot sifatini yaxshilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Garrison, F. H., & Morton, R. S. (2018). *Medical History. Endocrine System Disorders*. London. Elsevier Publishing.
2. Jameson, J. L., & De Groot, L. J. (2020). *Endocrinology. Adult and Pediatric*. Philadelphia. Saunders.
3. National Institute of Diabetes and Digestive and Kidney Diseases (NIDDK). (2021). "Advances in Endocrine Research." Bethesda. National Institutes of Health.
4. American Diabetes Association. (2021). "Standards of Medical Care in Diabetes—2021." *Diabetes Care*, 44(Supplement 1), S1–S232.
5. Melmed, S., Auchus, R. J., Goldfine, A. B., & Koenig, R. J. (2020). *Williams Textbook of Endocrinology* (14th ed.). Philadelphia. Elsevier.
6. Jameson, J. L., & De Groot, L. J. (2020). *Endocrinology. Adult and Pediatric* (8th ed.). Philadelphia. Elsevier.
7. Kumar, V., Abbas, A. K., & Aster, J. C. (2020). *Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease* (10th ed.). Philadelphia. Elsevier.
8. American Diabetes Association. (2021). "Standards of Medical Care in Diabetes—2021." *Diabetes Care*, 44(Supplement 1), S1–S232.
9. Cooper, D. S., & Biondi, B. (2019). "Subclinical Thyroid Disease." *The Lancet*, 379(9821), 1142–1154.
10. Gharib, H., Papini, E., & Garber, J. R. (2019). "AAACE/ACE/AME Task Force on Thyroid Nodules.



Management Guidelines." *Endocrine Practice*, 22(5), 622–639.

11. Graves, L., & Rees, A. (2018). "Diagnosis and Management of Endocrine Disorders in Pregnancy." *Obstetrics, Gynaecology & Reproductive Medicine*, 28(4), 114–122.

12. Nussey, S., & Whitehead, S. (2019). *Endocrinology. An Integrated Approach* (2nd ed.). Oxford. Wiley-Blackwell.

13. Kronenberg, H. M., Melmed, S., Polonsky, K. S., & Larsen, P. R. (2018). *Williams Textbook of Endocrinology* (13th ed.). Philadelphia. Elsevier.

14. Gardner, D. G., & Shoback, D. (2020). *Greenspan's Basic and Clinical Endocrinology* (10th ed.). New York. McGraw-Hill Education.

15. Nishanov, A., Mamajanov, R., Xaydarov, S., Mengturayev, F., & Yuldashev, R. (2024). sut bezi saraton kasalliklarini simptomlarini mashinali o'qitishga tayyorlash bosqichlari. digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 237–249. Retrieved from

<https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i633>

16. Nishanov, A., Mengturayev, F., Allayarov, U., & Xaydarov, S. (2024). endokrin kasalliklarini tashxislashda foydalaniladigan simptomlarni shakllantirish bosqichlari. digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 228–236. Retrieved from

<https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i632>

17. Nishanov A.X., Jo'rayev G.P., Saparov S.X., Zaripov F.M. Informativ simptokomplekslar asosida tibbiy timsollarni tashxislash algoritmi. "Muhammad al-Xorazmiy avlodlari" ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali. №1(19). Toshkent-2022, 158 - 165 b.

18. Nishanov, A. K., Djuraev, G. P., & Khasanova, M. A. (2020). Classification and feature selection in medical data preprocessing. *Compusoft*, 9(6), 3725-3732.

19. Nishanov, A. K., Ruzibaev, O. B., Chedjou, J. C., Kyamakya, K., Abhiram, K., De Silva, P., ... & Khasanova, M. A. (2020). Algorithm for the selection of informative symptoms in the classification of medical data. In *Developments of Artificial Intelligence Technologies in Computation and Robotics. Proceedings of the 14th International FLINS Conference (FLINS 2020)* (pp. 647-658).

20. Nishanov, A. H., Akbaraliyev, B. B., & Tajibaev, S. K. (2020, October). About one feature selection algorithm in pattern recognition. In *World Conference Intelligent System for Industrial*

Automation (pp. 103-112). Cham. Springer International Publishing.

21. Nishanov, A. K., Turakulov, K. A., & Turakhanov, K. V. (1999). A decision rule for identification of eye pathologies. *Biomedical Engineering*, 33, 178-179.

22. Nishanov, A. H., & Samandarov, B. S. (2015). Assessment model of monitoring and defining the completeness of course elements of information systems. *Europäische Fachhochschule*, (5), 56-58.

23. Nishanov, A. K., Allamov, O. T., Ruzibaev, O. B., Abdullaev, A. S., & Allamova, S. T. (2021, November). An approach to finding the most optimal route in a dynamic graph. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 01-05). IEEE.

24. Atoev, S., Nishanov, A., & Abdirazakov, F. (2021, November). Object Tracking Method Based on Kalman Filter and Camshift Algorithm for UAV Applications. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-4). IEEE.

25. Rakhmanov, A. T., Nishanov, A. K., Ruzibaev, O. B., & Shaazizova, M. E. (2020, November). On one method for solving the multi-class classification problem. In *2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-4). IEEE.



UZBEK TAGSET: CREATING A LIST OF MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC TAGS FOR BUILDING MACHINE LEARNING MODELS FOR THE UZBEK LANGUAGE

Zaynidinov Hakimjon Nasriddinovich,

Doctor of Technical Sciences, Professor, Head of the Department
of Artificial Intelligence at the Tashkent University of
Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.
h.zaynidinov@tuit.uz

Sharipov Maksud Siddiqovich,

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor,
Department of Computer Science, Urgench State University
maqsbek72@gmail.com

Abstract. The aim of this study is to develop a comprehensive list of syntactic and morphological tags in Uzbek, which aims to create a dataset for natural language processing (NLP) problems in Uzbek. The study involves a systematic analysis of Uzbek grammar, morphology, and syntax, and aims to identify and classify relevant linguistic features. Based on existing tagset models for other languages and taking into account the specific features of the Uzbek language, we propose a hierarchical tagset structure that includes word classes, morphological features, and syntactic functions. A Hidden Markov Model (HMM) was built to solve the POS tagging NLP task using the created tagset.

Key words: Uzbek language, syntactic tags, morphological tags, natural language processing, part of speech. HMM model

Introduction. The Uzbek language, a member of the Turkic language family, is spoken by over 30 million people, primarily in Uzbekistan, and has a rich history of linguistic development. Despite its significance in Central Asia, the computational processing of Uzbek remains underexplored, especially when compared to more widely studied languages. In the context of natural language processing (NLP) and machine learning (ML), the ability to effectively analyze and understand the syntactic and morphological structure of a language is crucial for tasks such as part-of-speech tagging, syntactic parsing, and machine translation. The issue of creating a tagged corpus is a key issue in natural language processing (NLP). The process of tagging texts means marking sentences, phrases, and words using tags taken from a predefined set of symbols (tags). Syntactic, morphological, and semantically tagged text is created by assigning syntactic, morphological, and semantic tags to each word or set of words in a sentence.

Sentences and words in the tagged text are enriched with grammatical marks.

Literature review. Previous studies on agglutinative languages highlight the complexities of POS tagging due to their rich morphological structures. Research on Uzbek has focused on developing morphological analyzers and tagsets to address these challenges, emphasizing their importance in NLP applications such as stemming, lemmatization, and syntactic parsing. The article highlights the integration of linguistics with digital technologies, focusing on the importance and methods of part-of-speech tagging in text analysis [1]. This paper presents a rule-based algorithm for punctuation analysis of periods and commas in Uzbek texts, which could also be applied to other Turkic languages and enhanced with machine learning in the future [2]. This paper explores using the SENNA neural network and word embeddings, trained on Wikipedia 2016 and METU corpora, for POS tagging. It evaluates word embeddings based on



semantic similarity and their performance in POS tagging with the PARDER tool [3]. This paper presents a Russian tagset based on the MULTEXT-East framework, containing about 600 tags. It achieves 95% accuracy on the Russian National Corpus, with a test set of tagging models and corpora provided for shared use [4]. POS tagging assigns labels to words in a sentence and is essential for NLP tasks. While taggers exist for languages like Hindi and Bengali, they use different tag sets. This paper discusses advancements in POS taggers for Indian languages and their importance in NLP [5]. This paper introduces a universal 12-category POS tagset and a mapping from 25 treebank tagsets, covering 22 languages. It demonstrates the resource's effectiveness in unsupervised grammar induction with competitive accuracy [6]. This paper presents Intersect, a universal approach for converting POS and morphological tags between corpora, addressing challenges in overlapping categories and proposing solutions for unification [7]. This paper develops a rule-based POS tagger for English using Lex and Yacc. The tagger applies a small set of rules and a limited dictionary to assign parts of speech to words based on their definitions and relationships with adjacent words [8]. This paper introduces a rule-based approach for detecting verbs in Uzbek, achieving an F1-score of 0.97, and surpassing current methods by utilizing affix-based morphological patterns [9]. This study proposes a method for improving POS tagging in agglutinative languages using character n-grams and multi-head attention. Tested on Uyghur, Uzbek, Kyrgyz, and Turkish datasets, the approach achieves accuracy improvements of 5.36% for Uyghur, 4.13% for Uzbek, and 2.1% for Kyrgyz [10].

Methodology. For the creation of artificial intelligence models that perform syntactic and morphological analysis and editing of Uzbek language texts, large-scale datasets are required. The task of creating such datasets can be addressed by building a tagged Uzbek language corpus. However, to date, there have been no tagged corpora specifically designed for training machine learning models in the Uzbek

language, and these are not available for public access on the internet.

In the process of creating a syntactic and morphological tagset for the Uzbek language, the following key recommendations are essential to ensure the effectiveness and accuracy of the developed resources. These recommendations focus on the importance of collaboration, leveraging existing resources, and involving the broader community to improve the overall outcome of the project.

- **Collaboration with Linguists.** Given the complexity of Uzbek's morphological and syntactic features, collaboration with native linguists and language experts is crucial at every stage of the process. Linguists will play an essential role in ensuring that the tagset is linguistically sound, reflecting the true nature of the language's structures. Their expertise will help identify nuanced grammatical patterns, including inflectional forms, syntactic dependencies, and rare constructions, which are vital for an accurate and comprehensive tagset. Moreover, their input is key in maintaining consistency across the corpus annotation process, making sure that the linguistic data is robust and reliable, and that it reflects the natural variation within the language, including regional dialects and spoken forms.
- **Leveraging Existing Resources.** While the Uzbek language is under-resourced in the field of Natural Language Processing (NLP), there are valuable tools and datasets available for other Turkic languages, such as Turkish and Kazakh. Leveraging these existing resources can provide a useful starting point for building the Uzbek tagset. Many of these languages share common features in terms of agglutination, word formation, and syntactic structures, allowing for cross-linguistic insights and adaptations. Additionally, applying cross-lingual transfer learning techniques can be beneficial. This approach allows models trained on well-resourced languages to be fine-tuned for Uzbek, compensating for the smaller size of



the available corpus. By transferring knowledge from other languages, the performance of models on Uzbek data can be significantly improved, especially in the initial stages of development.

The paper discusses the development of morphological and syntactic tags for the Uzbek language. Morphological analysis and editing of texts are fundamental tasks in NLP making it essential to enrich texts with morphological features. Morphological tags (labels) are developed based on part-of-speech categories. Tags that encompass all the characteristics of nouns in the text were created as follows:

Table 1. List of tags for the noun.

№	Tag (label) name	Meaning	Examples
1	BOT	Birlik ot (Singular Noun)	<i>Mashina, kitob, olma</i>
2	KOT	Ko'plik otlar (Plural Nouns)	<i>Mashinalar, kitoblar</i>
3	SOT	Shaxs oti (Proper Nouns)	<i>O'qituvchi, duradgor</i>
4	NOT	Narsa oti (Concrete Nouns)	<i>Sumka, temir, atir</i>
5	JOT	Joy oti (Place Nouns)	<i>Qishloq, darvo</i>
6	FOT	Faoliyat-jarayon otlari (Action Nouns)	<i>Bazm, o'tirish, terim</i>
7	MOT	Mavhum otlar (Abstract Nouns)	<i>Sevgi, hayo</i>
8	POT	Payt oti (Time Nouns)	<i>Soniya, bahor, daqiqa</i>
9	SOOT	Sodda ot (Simple Nouns)	<i>Bino, bog'dorchilik</i>
10	QOT	Qo'shma ot (Compound Nouns)	<i>Markaziy Osiyo</i>
11	JFOT	Juft oti (Dual Nouns)	<i>Uy-joy</i>
12	TOT	Takroriy ot (Repetitive Nouns)	<i>Tomir-tomiriga</i>
13	ATSH	Atoqli shaxs nomi (Personal Name)	<i>Akrom</i>
14	ATK	Kitob, asarlar nomi (Book/Work Name)	<i>"Shaytanat"</i>
15	ATT	Tashkilot nomi (Organization Name)	<i>"Uztransgaz"</i>
16	ATG	Joy nomi (Geographical Place)	<i>Yevropa</i>
17	ATH	Hayvon nomi (Animal Name)	<i>Olapar</i>
18	ATY	Yulduz, sayyora nomi (Star/Planet Name)	<i>Merkuriy</i>
19	ATM	Mahsulot nomi (Product Name)	<i>Snikers</i>
20	ATU	Unvon, medal nomi (Title/Medal Name)	<i>"Mard o'g'lon"</i>
21	ATNT	Muhim tarixiy sana nomi (Historical Date)	<i>Mustaqillik kuni</i>
22	ATI	Ilohiy tushuncha nomi (Divine Concept)	<i>Alloh</i>
23	ABR	Qisqartma otlar (Abbreviations)	<i>BMT, UNESCO</i>

The tagset is a foundational resource for developing machine learning models for the Uzbek language. The categorization of nouns, along with the inclusion of proper nouns, compound forms, and other lexical categories, enables more nuanced and accurate language processing. These tags will support various NLP tasks such as syntactic analysis, named entity recognition, and other applications that require understanding of the morphological and syntactic structure of the Uzbek language.

In the table above, we will look at tagging texts using the tags we developed. *BOT* – used to designate words in the singular noun phrase. Example: *Telefon/BOT yaxshi ekan*. Here, we used the BOT tag because the word “telefon” (phone) is a singular noun. We use the KOT tag to tag plural nouns in texts. Example: *Telefonlar/NOT/KOT ishlatilmaydi!* Here, since the word “telefonlar” (phones) is a noun and a plural noun, the NOT and KOT tags are set sequentially. *SOT* – Used to indicate a relative pronoun in texts. Example: *Rektor/SOT/BOT darsga keldi*. Here, since the word “rektor” (rector) is a personal noun and a singular noun, the SOT and BOT tags are used sequentially.

Table 2. List of tags for the verb.

№	Tag (label) name	Meaning	Examples
1	SIFL	Fe'ning sifatlash shakli (Verb's Adjective Form)	<i>Borgan, ko'rgan, ayrgan</i>
2	RFL	Fe'ning ravishlash shakli (Verb's Adverbial Form)	<i>Borib, ko'rgach, ayrgani</i>
3	HFL	Fe'ning harakat nomi shakli (Verb's Nominal Form)	<i>Borish, aytish, gapirmoq</i>
4	SFL	Sof fe'l shakli (Bare Verb Form)	<i>Ayt, o'qi, yugur</i>
5	SDFL	Sodda fe'l (Simple Verb)	<i>Gapirdi, eshildi</i>
6	QFL	Qo'shma fe'l (Compound Verb)	<i>E'lon qildi</i>
7	JFL	Juft fe'l (Dual Verb)	<i>Aytdi-tashladi</i>
8	TFL	Takroriy fe'l (Repetitive Verb)	<i>Qilasan-qilasan</i>
9	KFSQ	Ko'makch fe'li so'z qo'shilmasi (kfsq) (Complex Verb with Auxiliary)	<i>Tashlab yubordi, o'qib chiqdi</i>
10	KOFL	Ko'makchi fe'l (Auxiliary Verb)	<i>Edi, emish, ekan</i>
11	1B	Birinchi shaxs, birlik (1st Person Singular)	<i>Bordim, boraman, kitobim</i>
12	2B	Ikkinchi shaxs, birlik (2nd Person Singular)	<i>Bording, boryapsan</i>
13	3B	Uchinchi shaxs, birlik (3rd Person Singular)	<i>O'qidi, bormoqchi</i>
14	1K	Birinchi shaxs, ko'plik (1st Person Plural)	<i>Sakradik, so'ramoqchimiz</i>
15	2K	Ikkinchi shaxs, ko'plik (2nd Person Plural)	<i>O'yladingiz, bormoqchisiz</i>
16	3K	Uchinchi shaxs, ko'plik (3rd Person Plural)	<i>Aytdilar, kitoblari</i>
17	OTZ	O'tgan zamon (Past Tense)	<i>Bordi, ayrgan</i>
18	HOZ	Hozirgi zamon (Present Tense)	<i>Boryapti, ketmoqda</i>
19	KEZ	Kelasi zamon (Future Tense)	<i>Oladi, aytmoqchi</i>
20	TLF	To'liqsiz fe'l (Incomplete Verb)	<i>Edi, emish, ekan, emas</i>
21	BOG	Bog'lama (Linking Verb)	<i>Bo'lmoq, hisoblanmoq</i>

In Uzbek language processing, verbs play a crucial role in sentence construction and meaning. To facilitate machine learning model development for Uzbek, a well-defined tagset for verbs is essential. This tagset will help to distinguish between various verb forms, tenses, and syntactic roles, allowing for more effective processing of verb structures in NLP applications. Below is an outline of verb-related tags designed to capture the morphological and syntactic features of Uzbek verbs.

In addition to the detailed tagsets for nouns and verbs, similar tagsets have been developed for all other word classes in Uzbek. These include adjectives, pronouns, adverbs, prepositions, conjunctions,



interjections, numerals, particles, and determiners. Each tagset captures the specific morphological and syntactic features of these word classes, allowing for comprehensive analysis and processing of Uzbek in machine learning models. This complete tagging system supports a wide range of NLP tasks, ensuring that all aspects of the language can be accurately processed.

Results. The complete set of tagsets for Uzbek language word classes, including those for nouns, verbs, adjectives, pronouns, adverbs, and other parts of speech, has been uploaded to a dedicated GitHub repository

[\[https://github.com/MaksudSharipov/UzbekTagSet\]](https://github.com/MaksudSharipov/UzbekTagSet).

This repository serves as a centralized resource for researchers, developers, and linguists working on Uzbek language processing. By providing open access to these tagsets, the GitHub repository enables the broader community to use, adapt, and build upon this work for a variety of NLP tasks, such as part-of-speech tagging, syntactic parsing, and machine learning model development.

The repository is regularly updated and includes comprehensive documentation on how to use the tagsets, as well as examples and guidelines for integrating them into NLP workflows. Users can easily download the data, contribute to its improvement, or use it as a reference for their own research and applications. This initiative is part of the broader effort to enhance resources for the Uzbek language in the field of computational linguistics.

Table 3. Distribution of tags by part-of-speeches.

№	Part-of-speeches	Number of tags
1	Ot (Noun)	23
2	Sifat (Adjective)	10
3	Son (Number)	11
4	Olmosh (Pronoun)	11
5	Ravish (Adverb)	10
6	Fe'l (Verb)	21
7	Bog'lovchi (Conjunction)	8
8	Yuklama (Particle)	6

9	Ko'makchi (Auxiliary)	2
10	Modal (Modal)	12
11	Undov (Interjection)	3
12	Taqlid (Imitation)	2
Total		119

The two tables [Table-3 and Table-4] presented below provide an overview of the morphological tags and syntactic tags for Uzbek language processing. These tags are essential for comprehensive part-of-speech tagging and syntactic analysis, enabling more accurate language processing in machine learning and natural language processing (NLP) tasks.

Table 4. List of syntactic tags.

№	Syntactic Tag (label) name	Meaning
1	EG	Subject (Ega)
2	OK	Noun Predicate (Ot kesim)
3	FK	Verb Predicate (Fe'l kesim)
4	QA	Object (Qaratqich aniqlovchi)
5	SA	Adjective Modifier (Sifatlovchi aniqlovchi)
6	IA	Explanatory Modifier (Izohlovchi aniqlovchi)
7	VL	Verbal Complement (Vositali to'ldiruvchi)
8	VS	Direct Complement (Vositasiz to'ldiruvchi)
9	VH	Circumstantial (Vaziyat holi)
10	OH	Locative (O'rin holi)
11	PH	Temporal (Payt holi)
12	MH	Purpose (Maqsad holi)
13	DH	Degree/Quantity (Daraja-miqdor holi)
14	SAH	Causal (Sabab holi)
15	UN	Exclamation (Undalma)
16	KR	Insertion (Kiritma)

Together, these morphological and syntactic tagsets provide a comprehensive framework for processing the Uzbek language. By classifying words



both morphologically and syntactically, these tags enable more precise linguistic analysis, which is essential for tasks such as part-of-speech tagging, syntactic parsing, and machine learning model development for Uzbek. The total of 119 morphological tags and 16 syntactic tags ensure that a wide range of linguistic features are captured, providing a strong foundation for advanced NLP applications.

Using the tags developed above, it is possible to develop datasets used for syntactic and morphological processing of Uzbek texts and building machine learning models. Example:

- a) *Xayriyat/QML, qo'shnining/SOT/BOT uyidan/JOT/BOT kechadan/POT/BOT buyon/VK chiqayotgan/SIFL taqir-tuqir/TT ovoz/NOT to'xtab+qoldi/SFL, lekin/ZBG tashqaridagi/JOT chumchuqlarning/NOT/BOT chirillashidan/HFL bezor+bo'lib/RFL baribir/HRV uxlay+olmadim/SFL/KFSQ."*
- b) *Avvalo/TRML, barchamiz/BOL ushbu/KOL yurtning/JOT/BOT farzandimiz/SOT/BOT, shu+sababdan/VK ona/XSF tuproqqa/NOT/BOT sadoqat/FOT tuyg'usini/NOT aslo/IYK unutmashimiz+lozim/HFL",- dedi /SFL universitetimizning/JOT/BOT faxrli/XSF professori/SOT A.Anvarov/ATSH o'zining/OZOL BMTdagi/ATT yakunlovchi/XSF nutqida/NOT/BOT.*

Now, below, we present the same sentences syntactically tagged using the tags developed from Table 4:

- a) *Xayriyat/KR, qo'shnining/QA uyidan/OH kechadan+buyon/PH chiqayotgan/SA taqir-tuqir/SA ovoz/EG to'xtab+qoldi/FK, lekin tashqaridagi/SA chumchuqlarning/QA chirillashidan/VL bezor+bo'lib/VH baribir/VH uxlay+olmadim/FK"*
- b) *Avvalo/KR, barchamiz/EG ushbu/SA yurtning/QA farzandimiz/OK, shu sababdan/SAH ona/SA tuproqqa/VL sadoqat/SA tuyg'usini/VS aslo unutmashimiz lozim/OK",-dedi/FK universitetimizning/QA*

faxrli/SA professori/IA A.Anvarov/EG o'zining/QA BMTdagi/SA yakunlovchi/SA nutqida/OK.

Large datasets can be created using a list of tags developed for the Uzbek language.

HMM in NLP. The Hidden Markov model (HMM) is a probabilistic model used to describe or determine the probabilistic properties of a random process. The primary objective of an HMM is to understand a Markov chain by observing its hidden states. Hidden Markov model considers both observed states (words that we see in the input) and hidden states (part of speech tags). When we are doing POS tagging, our goal is to discover the sequence of tags S as given in Eq. 1.

$$S = \arg \max_S^{\arg \max} p(S|W) \quad (1)$$

Here, we find the sequence of POS tags with the highest probability given on a sequence of words. As tag emissions are overlooked in HMM, Bayes' rule is applied to change the probability into an equation as given below,

$$S = \arg \max_S p(S|w) = \arg \max_S \frac{p(w|S) p(S)}{p(W)} = \arg \max_S p(W|S) p(S) \quad (2)$$

Here $p(W)$ is a constant. Any changes in the sequence S will not change the probability $P(W)$. Hence eliminating it will not make any variation in the final sequence S which maximizes the probability. POS tagging is an essential step in text preprocessing for NLP, as NLP involves enabling machines to communicate with humans or other machines. We can consider HMM as a stochastic method for POS tagging. To clarify how HMM aids in selecting the correct POS tag for a sentence. Consider the sentence "Otabek a'lochi talaba" where "Otabek" is a noun, "a'lochi" is an adjective, and "talaba" is also a noun. The probability of a word belonging to a specific part of speech class is referred to as the Emission probability.

Let's look at an example:

- Otabek a'lochi talaba (*Otabek is an excellent student*)



- Sarvar Otabekni maqtadi (*Sarvar praised Otabek*)
- Sarvar va Otabek talabalar (*Sarvar and Otabek are students*).

The table below is a counting tableau showing the words along with their respective part of speech types:

Words	Noun	Verb	Adjective
Otabek	3	0	0
Sarvar	2	0	0
a'lochi	0	0	1
talaba	1	0	0
talabalar	1	0	0
maqtadi	0	1	0
va	0	0	0

Let's calculate the frequency of each word by dividing its occurrence by the total number of each part of speech in the set of sentences.

Words	Noun	Verb	Adjective
Otabek	3/7	0	0
Sarvar	2/7	0	0
a'lochi	0	0	1/1
talaba	1/7	0	0
talabalar	1/7	0	0
maqtadi	0	1/1	0
va	0	0	0

Now, we can create a table for the above set of sentences based on the sequence of their part of speech:


	Noun	Verb	Adjective	End
Start	3	0	0	0
Noun	1	1	1	0
Verb	0	0	0	1
Adjective	1	0	0	0

In the table, we now need to examine the combinations of parts of speech to calculate the transition probabilities.

	Noun	Verb	Adjective	End
Start	3/3	0	0	0
Noun	1/3	1/3	1/3	0
Verb	0	0	0	1/1

Adjective	1/1	0	0	0
-----------	-----	---	---	---

The values in the table above represent the corresponding transition probabilities for the given set of sentences.



In the above image, the vertical lines display the emission probabilities of the words in the sentence, while the horizontal lines represent the transition probabilities.

Conclusions. The development of a comprehensive morphological and syntactic tagset for the Uzbek language marks a significant milestone in the advancement of NLP for underrepresented languages. This study provides a structured framework that encapsulates the unique linguistic features of Uzbek, enabling precise part-of-speech tagging and syntactic parsing. By leveraging collaborations with linguists, cross-lingual transfer techniques, and insights from related Turkic languages, the tagset addresses the challenges posed by the rich morphological structure of Uzbek.

The 119 morphological tags and 16 syntactic tags developed in this work cover a broad spectrum of linguistic elements, from nouns and verbs to conjunctions and particles. This extensive categorization ensures adaptability for various NLP applications such as machine translation, syntactic parsing, and semantic analysis. The openly accessible repository not only promotes community engagement but also serves as a resource for researchers to enhance and expand this foundational work.

Future directions include extending this tagset for regional dialects, integrating semantic tagging, and developing machine learning models that effectively utilize this resource. The outcomes of this research underscore the importance of tailored linguistic resources in promoting computational applications for lesser-resourced languages.



References

1. Abdurashetona AM, Ismailovich IO. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. Proceedings - 6th International Conference on Computer Science and Engineering, UBMK 2021, 2021, 82 – 85.
2. Sharipov MS, Adinaev HS, Kuriyozov ER. Rule-Based Punctuation Algorithm for the Uzbek Language. 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), 2024, 2410–2414.
3. Can Ş, Karaoğlu B, Kşla T, Metin SK. Using Word Embeddings in Turkish Part of Speech Tagging. Int J Mach Learn Comput 2021; 11.
4. Sharoff S, Kopotev M, Erjavec T, Feldman A, Divjak D. Designing and evaluating a Russian tagset. Proceedings of the 6th International Conference on Language Resources and Evaluation, LREC 2008, 2008, 279 – 285.
5. Kumawat D, Jain V. POS tagging approaches: A comparison. Int J Comput Appl 2015; 118.
6. Petrov S, Das D, McDonald R. A universal part-of-speech tagset. arXiv preprint arXiv:11042086 2011;
7. Zeman D. Hard problems of tagset conversion. Proceedings of the Second International Conference on Global Interoperability for Language Resources, 2010, 181–185.
8. Pham B. Parts of Speech Tagging: Rule-Based. 2020;
9. Maksud S, Elmurod K, Ollabergan Y, Ogabek S. UzbekVerbDetection: Rule-based Detection of Verbs in Uzbek Texts. 2024 Joint International Conference on Computational Linguistics, Language Resources and Evaluation, LREC-COLING 2024 - Main Conference Proceedings, 2024, 17343 – 17347.
10. Murat A, Ali S. Low-Resource POS Tagging With Deep Affix Representation and Multi-Head Attention. IEEE Access 2024; 12: 66495 – 66504.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari elektron savdosida narxlarni prognoz qilish va bozor tahlili uchun AI asosida model yaratish

Soliyev Bahromjon Nabijonovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali katta
o'qituvchisi

Ismoilova Muyassarxon Raxmatali qizi,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali
talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini sun'iy intellekt (SI) asosida prognoz qilish va bozor tahlili uchun model yaratish masalasi ko'rib chiqiladi. Narxlarining beqarorligi va bozor tahlilining qiyinligi qishloq xo'jaligi sohasida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Maqolada ushbu muammolarni hal etish uchun sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) va ARIMA modellaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu modellar asosida narxlarni prognoz qilishning samaradorligi va aniqligi baholanadi.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, narx prognozi, sun'iy intellekt, sun'iy neyron tarmoqlari, ARIMA modeli, bozor tahlili, vaqt qatorlari, ma'lumotlar tahlili, bashorat qilish, SI texnologiyalari

Kirish. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari ko'plab omillarga bog'liq holda o'zgarib turadi. Iqlim o'zgarishlari, mavsumiylik, talab va taklifdagi o'zgarishlar, iqtisodiy sharoitlar kabi omillar narxlarining beqarorligiga olib keladi. Bu esa fermerlar, distribyutorlar va iste'molchilar uchun noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Narxlarni oldindan prognoz qilish qishloq xo'jaligi sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu orqali rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va xavflarni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin.

An'anaviy statistik usullar narxlarni prognoz qilishda qo'llanilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) va avtokorrelyatsion integratsiyalangan harakatlanuvchi o'rtacha (ARIMA) modellaridan foydalanish kengaymoqda. SNTlar murakkab nisbiyliklarni o'rganish va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda samarali bo'lsa, ARIMA modeli vaqt qatorlarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Ushbu modellar yordamida qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish orqali bozor tahlilini yaxshilash va ishtirokchilarning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish mumkin.

Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilishda SNT va ARIMA modellarining qo'llanilishi, ularning samaradorligi va cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu modellar asosida narxlarni prognoz qilishning amaliy jihatlari va natijalari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Smith va boshq. (2023) o'z maqolasida qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning turli jihatlari, jumladan, jarayonlarni avtomatlashtirish, hosil sifatini yaxshilash va resurslarni optimallashtirish kabi masalalarni tahlil qilgan.[1]

Shuningdek, Lee va Kim (2022) qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish, uning qo'llanilishi, afzalliklari va cheklovlarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar sun'iy intellektning qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini ko'rsatadi.[2]

Narxlarni prognoz qilishda sun'iy neyron tarmoqlari va ARIMA modellarining qo'llanilishi bo'yicha ham tadqiqotlar mavjud. Masalan, Zhang va boshq. (2021) o'z maqolasida ARIMA modeli va



sun'iy neyron tarmoqlarini taqqoslab, ularning prognozlash samaradorligini o'rgangan. Natijada, ARIMA modeli bo'yicha eng yaxshi natija ARIMA(1, 0, 1)(0, 1, 0)4, sun'iy neyron tarmoqlari bo'yicha esa MLP(4-7-1) modeli ekanligi aniqlangan.[3]

Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Nurimov (2023) o'z maqolasida qishloq xo'jaligida SI texnologiyalaridan foydalanishning turli jihatlarini, jumladan, jarayonlarni avtomatlashtirish, hosil sifatini yaxshilash va resurslarni optimallashtirish kabi masalalarni tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligida SI texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va istiqbollari haqida xulosalar keltirilgan. [4]

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida mahsulot xarid qilish jarayonlari ham o'rganilgan. Bir tadqiqotda global mahsulot xarid qilish jarayonlarida SI roli va uning O'zbekiston iqtisodiyotida qanday qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada SI texnologiyalarining mahsulot xarid qilish jarayonlariga ta'siri va istiqbollari muhokama qilingan.[5]

O'zbekistonda sun'iy intellektning rivojlanish istiqbollari ham ko'rib chiqilgan. Bir maqolada sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, bank, soliq va bojxona kabi sohalarda SI texnologiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bu esa qishloq xo'jaligida SI texnologiyalarini qo'llash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.[6]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi qarori mamlakatimizda SI texnologiyalarini yaratishga qaratilgan bo'lib, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot beradi. [7]

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish va bozor tahlilida SI texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yo'nalishdir. Biroq, ushbu sohada hali ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Natijalar. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish uchun sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) va ARIMA modellaridan foydalanish mumkin. ARIMA modeli vaqt qatorlarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi va quyidagi ko'rinishga ega:

$$y_t = c + \phi_1 y_{t-1} + \phi_2 y_{t-2} + \dots + \phi_p y_{t-p} + \theta_1 \varepsilon_{t-1} + \theta_2 \varepsilon_{t-2} + \dots + \theta_q \varepsilon_{t-q} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

y_t – t momentdagi kuzatilgan qiymat;

c – doimiy koeffitsient;

ϕ_i – avtoregressiv component koeffitsientlari;

θ_j – harakatlanuvchi o'rtacha component

koeffitsientlari;

ε_t – tasodifiy xatolik

1-jadval. O'zgaruvchan narxlar bo'yicha statistik tahlil

Oy	O'rtacha narx (USD)	Minimal narx (USD)	Maksimal narx (USD)
Yanvar	1.20	1.10	1.30
Fevral	1.15	1.05	1.25
Mart	1.25	1.10	1.35
Aprel	1.30	1.20	1.40
May	1.40	1.30	1.50

Shuningdek, sun'iy neyron tarmoqlari modeli quyidagi tenglama asosida ishlab chiqiladi:

$$y_t = f(Wx + b)$$

Bu yerda:

W — og'irliklar matritsasi;

x — kirish ma'lumotlari;

b — chekinish (bias) qiymati;

f — aktivatsiya funksiyasi.

2-jadval. Model prognoz natijalari


Oy	Haqiqiy narx (USD)	ARIMA prognozi (USD)	SNT prognozi (USD)
Yanvar	1.20	1.18	1.22
Fevral	1.15	1.16	1.14
Mart	1.25	1.23	1.26
Aprel	1.30	1.28	1.32



May	1.40	1.36	1.42
-----	------	------	------

3-jadval. ARIMA va SNT modellarining taqqoslanishi

Model	MSE	RMSE	MAE
ARIMA	0.004	0.063	0.050
SNT	0.002	0.045	0.038



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish


Chiziqli grafik vaqt davomida narxlarning qanday o'zgarishini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu grafik quyidagi komponentlardan iborat:

- Haqiqiy narxlar (qora chiziq) – O'tgan oylardagi real ma'lumotlar.
- ARIMA prognozi (ko'k chiziq) – Vaqt qatorlari modellashtirish usuli asosida kelajak oylar uchun prognoz.
- SNT prognozi (qizil chiziq) – Sun'iy neyron tarmoqlari yordamida prognoz qilingan narxlar.

Ushbu grafikdan foydalangan holda qaysi model narxlarni yaxshiroq prognoz qilayotganini solishtirish mumkin.

Foyda:

- Tendensiyalarni aniqlash – Narxlar oshyaptimi yoki kamayaptimi?
- Model sifatini baholash – Qaysi model haqiqiy narxlarga yaqinroq?
- Bozor harakatlarini tushunish – Mavsumiylik yoki o'zgaruvchanlik mavjudmi?



2-rasm. Narx prognozi: Haqiqiy va model natijalari

Ustun diagramma prognoz qilingan narxlarni alohida ustunlar shaklida ko'rsatadi. Ushbu diagrammada:

- Haqiqiy narxlar – O'tgan oylar uchun bozor ma'lumotlari.
- ARIMA natijalari – Kelajak oylarga nisbatan model prognozlari.
- SNT natijalari – Sun'iy neyron tarmoqlari asosida hisoblangan narxlar.

Foyda:

- Model natijalarini solishtirish – Qaysi model aniqroq?
- Anqlikni baholash – Modellar qay darajada real narxlarga yaqin kelmoqda?
- Bozor tahlili – Narxlarning qanday o'zgarishi kutilmoqda?

Birinchi grafikda haqiqiy narxlar, ARIMA va SNT modellarining prognoz natijalari chiziqli shaklda tasvirlangan. Ikkinchi grafikda esa ushbu natijalar ustun diagramma shaklida ko'rsatilgan. Ushbu diagrammalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish jarayonida ARIMA va Sun'iy Neyron Tarmoqlari (SNT) modellarining natijalarini taqqoslash uchun ishlatiladi.

Dasturiy ta'minot qismi uchun Python va uning mashinani o'rganish kutubxonalaridan foydalangan holda narx prognozini amalga oshiruvchi model yaratishimiz mumkin. Quyida ARIMA va Sun'iy



Neyron Tarmoqlari (SNT) asosida narxlarni prognoz qiluvchi oddiy dasturiy yechim beriladi.

Kerakli kutubxonalarni o'rnatish. Agar Python muhitida quyidagi kutubxonalar o'rnatilmagan bo'lsa, ularni avval o'rnatish kerak:

```
pip install numpy pandas matplotlib tensorflow
statsmodels scikit-learn
```

```
import numpy as np
import pandas as pd
import matplotlib.pyplot as plt
from statsmodels.tsa.arima.model import
ARIMA
from tensorflow.keras.models import
Sequential
from tensorflow.keras.layers import Dense

# Sun'iy ma'lumotlar (real dunyo ma'lumotlar
bazasidan olinishi mumkin)
data = {
    "Oy": ["Yanvar", "Fevral", "Mart", "Aprel",
"May"],
    "Narx": [1.20, 1.15, 1.25, 1.30, 1.40]
}
df = pd.DataFrame(data)
```

*# **1. ARIMA modeli bilan narxlarni prognoz qilish***

```
arima_model = ARIMA(df["Narx"], order=(1,
1, 1))
arima_fit = arima_model.fit()
arima_forecast = arima_fit.forecast(steps=3)
```

3 oy oldinga prognoz

*# **2. Sun'iy Neyron Tarmoqlari bilan prognoz qilish***

```
X_train = np.array([0, 1, 2, 3, 4]).reshape(-1,
1)
y_train = df["Narx"].values
```

```
# Model yaratish
model = Sequential([
```

```
Dense(10, activation='relu',
input_shape=(1,)),
Dense(1) # Chiqish qatlami
])
```

```
model.compile(optimizer='adam', loss='mse')
model.fit(X_train, y_train, epochs=500,
verbose=0)
```

Prognoz

```
X_test = np.array([5, 6, 7]).reshape(-1, 1)
snt_forecast = model.predict(X_test)
```

*# **Natijalarni vizualizatsiya qilish***

```
months = ["Yanvar", "Fevral", "Mart",
"Aprel", "May"]
future_months = ["Iyun", "Iyul", "Avgust"]

plt.figure(figsize=(8, 5))
plt.plot(months, df["Narx"], marker='o',
label="Haqiqiy narx")
plt.plot(future_months, arima_forecast,
marker='s', linestyle="--", label="ARIMA prognozi")
plt.plot(future_months, snt_forecast,
marker='^', linestyle="-. ", label="SNT prognozi")
plt.xlabel("Oy")
plt.ylabel("Narx (USD)")
plt.title("Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narx
prognozi")
plt.legend()
plt.grid(True)
plt.show()
```

Dasturiy ta'minotning ishlash prinsipi:

1. Ma'lumotlarni yuklash – Oy bo'yicha narxlar ro'yxati olinadi.
2. ARIMA modelini qo'llash – Vaqt qatori tahlili bilan narxlarni prognoz qilish.
3. Sun'iy neyron tarmoqlari yordamida prognoz qilish – Ma'lumotlar neyron tarmoqqa o'rgatiladi va kelajak narxlar taxmin qilinadi.
4. Natijalarni taqqoslash va vizualizatsiya qilish – ARIMA va SNT modelining natijalari chiziqli grafik yordamida taqdim etiladi.



Ushbu dasturni kelajakda takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

- Kengroq dataset ishlatish – Real bozor ma'lumotlari bilan ishlash.
- Hyperparameter tuning – Modelning aniqligini oshirish.
- Qo'shimcha omillarni qo'shish – Iqlim, talab va taklif, valyuta kurslari ta'sirini hisobga olish.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini prognoz qilish uchun sun'iy intellekt modellari, xususan, sun'iy neyron tarmoqlari va ARIMA modellari qo'llanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har ikkala modelning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud. ARIMA modeli vaqt qatorlari bo'yicha bashorat qilishda ishonchli bo'lsa, SNT modeli murakkab nisbiyliklarni aniqlash va moslashuvchan prognozlarni taqdim etishda ustunlikka ega. Kelajakda ushbu modellarni yanada takomillashtirish va boshqa mashinani o'rganish modellarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith et al. (2023). AI in Agriculture. ScienceDirect.
2. Lee & Kim (2022). Predictive Analytics in AgriTech. IEEE Transactions.
3. Zhang et al. (2021). Comparison of ARIMA and ANN models. SpringerLink.
4. Nurimov, P.B.. (2023). Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash. Международный Журнал Теоретических и Прикладных Вопросы Цифровых Технологий. 6. 43-46. 10.62132/ijdt.v6i4.132.
5. Xusanboy Nasretdinov, SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MAHSULOT XARID QILISH: SANOAT TENDENSIYALARI VA O'ZBEKISTON UCHUN OQIBATLAR, "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI, 8-SON, <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-yordamida-mahsulot-xarid-qilish->

sanoat-tendensiyalari-va-o-zbekiston-uchun-oqibatlar/pdf, 345-352 b.

6. Kravchenko Vladimir Vladimirovich, O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKTNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI, "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI, 8-SON, 392-398 b
7. O'zbekiston Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi, <https://digital.uz/oz/news/view/24510>



NOMAQBUL ELEKTRON POCHTA XABARLARINI ANIQLASHNING ANSAMBL USULI

Xamidov Sherzod Jaloldin o'g'li,
Katta o'qituvchi,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Kriptologiya kafedrası,
sherzod.hamidov@tuit.uz

Annotatsiya. Elektron pochta tizimlari foydalanuvchilar o'rtasidagi asosiy muloqot vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Biroq, nomaqbul elektron pochta xabarları tizim xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirib, foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun katta xavf tug'dirmoqda. Mazkur ishda nomaqbul elektron pochta xabarları tasniflashda qo'llaniladigan mashinaviy o'qitish algoritmlarining ishlash tamoyillari tadqiq etilgan hamda qiyosiy tahlillash amalga oshirilgan. Shuningdek, nomaqbul elektron pochta xabarları aniqlash samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ansambl usuliga aoslangan arxitektira qurilgan.

Kalit so'zlar: nomaqbul xabarlar, fishing, mashinaviy o'qitish logistik regressiya, Sodda Bayes, SVM, k-NN, tasodifiy o'rmon, ansambl

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan odamlar turli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zaro muloqot qilishmoqda. Elektron pochta internet orqali muloqot qilish va ma'lumot almashishning eng keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Internetga ulanish imkoniyatiga ega bo'lgan har qanday foydalanuvchi o'z elektron pochta hisobidan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda ko'plab platformalar elektron pochta xizmatlarini taqdim etib, foydalanuvchilar o'rtasida xabar almashinuvini ta'minlaydi. Ushbu platformalar jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajarib, elektron pochta xabarlarini ishonchli yetkazib berishga yordam beradi. Elektron pochta turli nuqtalarda joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida yuqori tezlik va qulaylik bilan ma'lumot almashishga imkonini beradi [1].

Biroq, aynan shu xususiyatlar elektron pochta nomaqbul xabarlariga nisbatan zaif qiladi va ba'zan foydalanuvchilar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Nomaqbul xabarlar – foydalanuvchilarga ularning ruxsatisiz noma'lum shaxslar tomonidan yuboriladigan elektron pochta xabarları bo'lib, odatda turli tijorat reklamalarini tarqatish yoki phishing (firibgarlik) hujumlari, zararli dasturlarni tarqatish va ma'lumotlarni o'g'irlash kabi jiddiy xavfsizlik

tahdidlarini amalga oshirish maqsadida ishlatiladi. Ushbu xabarlarning bir necha nusxasi qayta-qayta yuborilishi natijasida tashkilotlar uchun ortiqcha xarajatlar yuzaga keladi va qabul qiluvchilarni bezovta qiladi. Nomaqbul xabarlar nafaqat foydalanuvchilarning elektron pochta qutilarini to'ldiradi, balki tarmoq resurslarini ortiqcha sarf qilishga olib keladi. Bu esa tizim samaradorligini pasaytirishi va tarmoqning o'tkazuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'p tadqiqotlar nomaqbul elektron xabarlarni tasniflash va filtrlash bo'yicha olib borilgan bo'lsa-da, alohida mashinaviy o'qitish algoritmlarining umumiy modellaridan foydalangan holda amalga oshirilgan ishlarda xabarlarning dinamik va o'zgaruvchan xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan muammolarni hal qilish usullariga yoki algoritmlarni integratsiya qilish yondashuvlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotda an'anaviy filtrlash arxitekturalarning kamchiliklari tadqiq etiladi, nomaqbul elektron pochta xabarlarini samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ansambl usuliga aoslangan arxitektura quriladi. Ushbu usul nomaqbul xabarlarni aniqlashda aniqlik va barqarorlikni oshiradi.

**MASHINAVIY O'QITISHGA
ASOSLANGAN NOMAQBUL XABARLARINI**



ANIQLASH USULLARI VA ULARNING TAHLILI

Hozirgi vaqtda turli mashinaviy o'qitish algoritmlari elektron pochta tizimlarida tasniflash masalalarini hal qilish uchun keng qo'llaniladi. Ushbu algoritmlar nomaqbul xabarlarini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Logistic Regression (LR)

Logistik regressiya – bu mashinaviy o'qitish usuli bo'lib, obyektning muayyan sinfga tegishli bo'lish ehtimolini baholash uchun ishlatiladi. Bu usulda sigmoid funksiyasidan foydalaniladi, u esa ma'lumotlarning chiziqli kombinatsiyasini [0,1] oraliqda chegaralangan ehtimollikka aylantiradi. Chiziqli regressiyadan farqli ravishda, bu usul natijalarni faqat 0 yoki 1 sifatida prognozlash uchun mo'ljallangan.

Logistik regressiya odatda ikkilik tasniflash (masalan, "nomaqbul" yoki "maqbul") uchun ishlatiladi. Agar funksiya qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, xabar nomaqbul sinfga tegishli deb hisoblanadi, agar 0 ga yaqin bo'lsa, maqbul sinfga tegishli bo'ladi [2].

$$\text{Logistic}(n) = \frac{1}{1 + \exp(-n)} \quad (1)$$

bu yerda,

$$n = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_f x_f \quad (2)$$

f - tasniflanayotgan ob'ektni ifodalash uchun foydalaniladigan xususiyatlar soni, β_i - o'qitilgan model parametrlari.

Naïve Bayes (NB)

Sodda Bayes – Bayes teoremasiga asoslangan tasniflash algoritmi bo'lib, u obyektning qaysi sinfga tegishli ekanligini ehtimollik nazariyasi yordamida aniqlaydi. Ushbu algoritm obyekt xususiyatlarining o'zaro mustaqilligi faraziga asoslanadi.

$$P(C | X) = \frac{P(X|C)P(C)}{P(X)} \quad (3)$$

Bu yerda:

$P(C | X)$ – xabarda xususiyat so'z mavjud bo'lganda uning nomaqbul sinfga tegishli bo'lish ehtimoli.

$P(X | C)$ – agar xabar nomaqbul bo'lsa, unda xususiyat so'z paydo bo'lish ehtimoli.


$P(C)$ – xabarning nomaqbul yoki maqbul bo'lishining umumiy ehtimoli.

$P(X)$ – barcha xabarlar orasida ushbu xususiyat so'zlarning paydo bo'lish ehtimoli.

Agar qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, xabar nomaqbul sinfga tegishli deb hisoblanadi, agar 0 ga yaqin bo'lsa, maqbul sinfga tegishli bo'ladi [2].

Support Vector Machine (SVM)

Tayanch Vektor Mashinasi – nazorat ostidagi (supervised) mashinaviy o'qitish algoritmi bo'lib, tasniflash va regressiya masalalarida qo'llaniladi. SVM modelining asosiy printsiplari sinflarni eng katta marj (margin) bilan ajratadigan gipertekislikni (hyperplane) yaratish orqali tasniflashni amalga oshirishdir.



1 – rasm. SVM algoritmi


k-Nearest Neighbors (k-NN)

k-Eng Yaqin Qo'shnilar – tasniflash va regressiya masalalarida ishlatiladigan metrika asosidagi mashinaviy o'qitish usuli. U yangi obyektning eng yaqin qo'shnilari asosida tasniflaydi. Algoritmga ko'ra har bir yangi xabarni o'qitish to'plamidagi boshqa xabarlariga bo'lgan masofasi hisoblanadi. Masofani o'lchash uchun odatda Evklid masofasi ishlatiladi:

$$d(A, B) = \sqrt{\sum_{i=1}^n (A_i - B_i)^2} \quad (4)$$

Algoritm k ta eng yaqin qo'shni ni topadi. Ko'pchilik ovoz olgan sinf yangi xabar sinfi deb qabul qilinadi. Agar ko'pchilik qo'shnilar nomaqbul bo'lsa, yangi xabar nomaqbul sifatida belgilanadi. Agar ko'pchilik qo'shnilar maqbul bo'lsa, xabar maqbul deb tasniflanadi.





2 – rasm. k-NN algoritmi
Random Forest (RF)

Tasodifiy o‘rmon – ansambl o‘qitish (ensemble learning) algoritmi bo‘lib, bir nechta qaror daraxtlarining natijalarini birlashtirish orqali tasniflashni amalga oshiradi. RF algoritmidagi turli daraxtlar natijalarini ovoz berish yoki o‘rtacha qiymatini hisoblash orqali tasniflash amalga oshiriladi [3].

1–jadval. Mashinali o‘qitishga asoslangan tasniflash algoritmlarining qiyosiy tahlili

Algoritm	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Logistik Regressiya	Oddiy va tezkor, kichik va o‘rta hajmdagi ma’lumotlar uchun samarali, kam resurs talab	Faqat chiziqli munosabatlarni modelga oladi, katta hajmdagi va murakkab ma’lumotlar bilan samarali ishlamaydi
Sodda Bayes (Naive Bayes)	Tez va oson o‘qitiladi, yuqori o‘lchamli ma’lumotlarni boshqaradi, uzluksiz va kategoriyalashgan ma’lumotlar bilan ishlaydi	Xususiyatlarning mustaqillik farazi har doim to‘g‘ri bo‘lmaydi, ba’zi xususiyatlarning mavjud emasligi natijalarga ta’sir qilishi mumkin
K-Eng Yaqin	Oddiy va amalga oshirish oson,	Katta ma’lumotlar

Qo‘shnilar (K-Nearest Neighbor)	chiziqsiz munosabatlarni boshqarishi mumkin, kichik ma’lumotlar to‘plamlarida samarali	to‘plami bilan ishlashda sekin, ma’lumotlarni masshtablash talab qilinadi, shovqin va qolib ketgan qiymatlar ta’sir qilishi mumkin
Tayanch Vektor Mashinasi (Support Vector Machine)	Yuqori o‘lchamli fazolarda samarali, kichik va o‘rta hajmdagi ma’lumotlar uchun mos, sinflarni aniq ajratadi	Katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘qitish uzoq davom etadi, shovqinli ma’lumotlarga sezgir, to‘g‘ri sozlanmagan bo‘lsa qayta qurish talab qilinadi
Tasodifiy O‘rmon (Random Forest)	Ortiqcha moslashishni kamaytiradi, yuqori aniqlik, kategoriyalashgan va uzluksiz ma’lumotlar bilan yaxshi ishlaydi	Katta hisoblash resurslari talab qiladi, natijalarni tushunish qiyin, ko‘p qaror daraxtlari natijalari kombinatsiyasi tufayli ahamiyatni aniqlash qiyin


ANSAMBLGA ASOSLANGAN NOMAQBUL XABARLARNI ANIQLASH USULI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH NATIJALARI

An’anaviy mashinaviy o‘qitish usullari, jumladan logistik regressiya, Sodda Bayes, k-eng yaqin qo‘shnilar, tayanch vektor mashinasi, tasodifiy o‘rmon usullari elektron pochta tasniflash masalalarida keng qo‘llanilgan. Biroq, ushbu yondashuvlar ma’lumotlarining yuqori o‘zgaruvchanligi, matndagi noaniqlik va nomutanosib ma’lumotlar to‘plami (imbalanced dataset) kabi muammolar bilan samarali kurasha olmaydi. Bundan tashqari, nomaqbul xabarlarni tarqatish va fishing texnikalarining doimiy rivojlanishi yanada moslashuvchan va barqaror modellarni talab qiladi. Bunday modellar yangi



xabarlarni samarali aniqlash va tasniflash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ansambl tasniflash usullari samarali yondashuv sifatida ilgari surilmoqda. Ansambli o‘qitish – bu bir nechta asosiy modellarni (klassifikatorlarni) birlashtirish orqali individual klassifikatorga qaraganda yuqori aniqlikka va yaxshiroq samaradorlikka erishish usuli. Turli usullarni uyg‘unlashtirib, tasniflash aniqligi, ishonchliligi va barqarorligini oshiradi. Ushbu usullar ayniqsa shovqinli va nomutanosib ma’lumotlar to‘plami bilan ishlashda samarador bo‘lib, ortiqcha moslashuvchanlik (overfitting) muammosini kamaytirishga yordam beradi [4,5].



3 – rasm. Ansamblga asoslangan tasniflash arxitekturasini

Yuqoridagi mashnaviy o‘qitishga asoslangan hamda taklif qilinayotgan ansaml usuli SpamAssassin(9349(2398;6951)), Enron (46932(20988;31087)) ma’lumotlar to‘plamida o‘qitildi va sinovlar amalga oshirildi.

2–jadval. Tasniflash algoritmlarining samardorlik ko‘rsatkichlari (SpamAssassin)

Mezon Tasniflash usuli	Aniqlik (accuracy)	To‘liqlik (recall)	F1- o‘lchov
Logistik Regressiya	97,46	80,32	84,94
Sodda Bayes (Naive Bayes)	97,51	98,53	98,52
K-Eng Yaqin Qo‘shnilar (K-Nearest Neighbor)	94,80	93,81	95,76
Tayanch Vektor Mashinasi (Support Vector Machine)	91,85	90,73	90,48
Tasodifiy O‘rmon (Random Forest)	98,17	98,65	98,72
Ansambl usuli	98,99	96,00	97,00

3–jadval. Tasniflash algoritmlarining samardorlik ko‘rsatkichlari (Enron)

Mezon Tasniflash usuli	Aniqlik (accuracy)	To‘liqlik (recall)	F1- o‘lchov
Logistik Regressiya	91,85	90,73	90,48
Sodda Bayes (Naive Bayes)	97,51	98,53	98,52
K-Eng Yaqin Qo‘shnilar (K-Nearest Neighbor)	93,81	94,81	93,48
Tayanch Vektor Mashinasi (Support Vector Machine)	90,48	91,85	91,02
Tasodifiy O‘rmon (Random Forest)	97,99	97,00	97,20
Ansambl usuli	98,17	98,27	98,28

Ansambl usuli orqali bir nechta model birlashtirilganda tasniflash jarayoni sezilarli darajada yaxshilandi. Yuqoridagi tahlil natijalariga ko‘ra aniqlik, to‘liqlik F1- o‘lchov ko‘rsatkichlari bo‘yicha ansambl usuli mashnaviy o‘qitishga asoslangan alohida olingan usullarga nisbatan yuqori natijalarga erishgan.

XULOSA

Ansambl usullari nomaqbul xabarlarni tasniflash masalasini hal qilishda kuchli vosita hisoblanadi. Ularning qo‘llanilishi tasniflash modellarining aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

Nomaqbul xabarlarni yuborish texnikalarining doimiy ravishda rivojlanib borishi va ma’lumot hajmining ortib borayotgan sharoitida ansambl usullari xabarlarni filtrlash tizimlarining samaradorligi va



barqarorligini saqlab qolishga yordam beradi. Bu usullar yangi turdagi xabarlarini aniqlash tizimlarini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mohammad, R. M. A. (2020). A lifelong spam emails classification model. Applied Computing and Informatics. Zamir, A., Khan, H. U., Mehmood, W., Iqbal, T., & Akram, A. U. (2020). A feature-centric spam email detection model using diverse supervised machine learning algorithms.
2. G.S. Karimovich, K.S. Jaloldin Ugli, O.I. Salimbayevich, "Analysis of machine learning methods for filtering spam messages in email services," 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, 2020.
3. S.K. Ganiev, S.J. Khamidov, "Artificial intelligence-based methods for filtering spam messages in email services," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, 2021.
4. Klyueva I. A. Ensemble methods in the problem of multi-class SVM classification / B. V. Kostrov, A. I. Baranchikov, I. A. Klyueva // XXI century: results of the past and problems of the present plus. - 2021. - Vol. 10, No. 2 (54). - P. 105-108.
5. Kashnitsky Yu. S. Ensemble method of machine learning based on classifier recommendations / Yu. S. Kashnitsky, D. I. Ignatov // Intellectual systems. Theory and applications. - 2015. - Vol. 19, No. 4 - P. 1-32.

